



MARKETING

ilmiy, amaliy va ommabop jurnal

MARKETING

BIZNES

BRENDING

SAVDO

INNOVATSIYA

RAQAMLI MARKETING

ELEKTRON TIJORAT



2024-YIL, IYUN
№4-SON

www.marketingjournal.uz

№240874



2024-YIL

iyun

№ 4-son



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 30-IYUN, 2024-YIL

JURNALNING MAQSADI

tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT
www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:
tdiu.marketing@mail.ru

TELEGRAM BOT:
[@marketinjournaltbot](https://t.me/marketinjournaltbot)

TELEGRAM KANAL:
<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri;

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Kasimova Fatima Tulkunovna i.f.d., TKTI professori;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Odilova Sitora Sayfitdin qizi, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Axmedova Mavluda Shavkatovna, PhD, TDIU Statistika kafedrasini dotsenti;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat ug'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD., TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Elektron nashr. 241 sahifa. E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. Namangan muhandislik-texnologiya instituti
3. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

Samadov Asqarjon Nishonovich O‘ZBEKISTONDA REKLAMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI	4
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna INNOVATSION MARKETING TIZIMIDA BRENDING KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	13
Ostonaqulova Gulsaraxon Muxammadyoqub qizi MAMLAKATNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	25
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, Karriev Karimbergan Safarboy o‘g‘li IMPROVING METHODOLOGIES FOR INCREASING EXPORT COMPETENCE OF SMALL BUSINESSES AND PRIVATE ENTERPRISES	34
Eshpulatova Muazzam Barnoevna AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI.....	41
To‘rayeva Nafisa Odiljonovna KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLANILISHINING ILMIY-NAZARIY JIHLTLARI.....	48
Parpiyeva Ra‘no Abdurasulovna MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNIG IQTISODIY ASOSLARI	58
Yusupova Dilbar Mirabidovna KORXONADA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI.....	69
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi, Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi FORMATION OF A MANAGEMENT STRUCTURE IN THE FIELD OF ICT...78	78
Mirziyodova Gulnoza Ayubkhan qizi INDUSTRY 4.0: UZBEKISTAN’S PATH TO DIGITAL TRANSFORMATION ..84	84
Норбоева Нафиса Эркиновна ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ В ИНТЕГРИРОВАННОЙ СРЕДЕ НА БАЗЕ ERP СИСТЕМЫ	95
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjayevna O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	110
Bozorov Ubaydullo Baxshulloyevich ELEKTRON TIJORAT INFRA TUZILMASI ASOSIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	121

Мирзарахимова Азиза Баҳром кизи ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УСЛУГ	138
Nabiyeva Feruza Odilovna О‘ЗБЕКISTONDA RAQAMLI BANKING XIZMATLARINI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI TAHLILI	144
Abduganiyeva Mavjuda Asatullayevna RAQAMLI IQTISODIYOTDA AR VA VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	150
Xasanova Nasiba Nazar qizi BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	156
Qulmatova Sayyora Safarovna RAQAMLI PLATFORMALARNING KORXONALAR MARKETING FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI	167
Karimova Shirin Zoxid qizi О‘ЗБЕКISTONDA ELEKTRON TIJORATNING O‘SISHIGA TA‘SIR QILUVCHI TO‘SIQLAR	172
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o‘g‘li KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI	183
Saydaliyeva Umidaxon Solijon qizi TURISTIK ZONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	188
Mansurov Saidxo‘ja Kamalovich SANOAT KORXONALARI EKSPORT STRATEGIYASINI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	193
Ахмедходжаев Равшан Темурович МАРКЕТИНГОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СРЕДСТВ РАЗМЕЩЕНИЙ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ТУРИЗМЕ НА ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ УЗБЕКИСТАНА	206
Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALAR BILIMINI VANOLASH METODIKASI	221
Аблатдинов Султанбек Азатович ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	228
Азларова Муштарийбегим Аброр кизи СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ КОНКУРЕНТНЫХ ПОЗИЦИЙ НА РЫНКЕ.....	235

O‘ZBEKISTONDA REKLAMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Samadov Asqarjon Nishonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrası professori, i.f.n.

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda reklama faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi qonunida reklamaga nisbatan qo‘yilgan asosiy talablar batafsil bayon etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: reklama, reklama faoliyati, reklama beruvchi, reklama ishlab chiqaruvchi, reklama tarqatuvchi, reklamadan foydalanuvchi, aksil reklama, noto‘g‘ri reklama, yashirin reklama, qiyosiy reklama, ijtimoiy reklama, tashqi reklama.

Аннотация

Статье рассмотрены правовые основы организации рекламной деятельности в Узбекистане. В частности, Закон Республики Узбекистан «О рекламе» подробно описывает основные требования к рекламе. Также в данной статье отражены задачи, определенные в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О регулировании рынка внешней рекламы».

Ключевые слова: реклама, рекламная деятельность, рекламодатель, производитель рекламы, распространитель рекламы, пользователь рекламы, встречная реклама, ложная реклама, скрытая реклама, сравнительная реклама, социальная реклама, наружная реклама.

Abstract

This article discusses the legal framework for organizing advertising activities in Uzbekistan. In particular, the Law of the Republic of Uzbekistan "On Advertising" describes in detail the basic requirements for advertising. Also, this article reflects the tasks defined in the Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On the regulation of the outdoor advertising market".

Keywords: Advertising, advertising activity, advertiser, advertising producer, advertising distributor, advertising user, counter advertising, false advertising, hidden advertising, comparative advertising, social advertising, outdoor advertising.

KIRISH

O‘zbekistonda bozor munosabatlari shakllanishi mulkchilikning turli shakllarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yuzaga kelishi, ichki va tashqi bozorda raqobatning kuchayishi reklamaning jamiyatdagi rolini kuchaytirdi. Buning natijasida mamlakatda reklama faoliyatining huquqiy asos yaratildi va reklama bozori shakllandi.

Xorijdagi reklama tajribasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, marketing strategiya sini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan reklama tadbirlarini kompleks va izchil o‘tkazish alohida, umumiy maqsad bilan o‘zaro bog‘lanmagan, o‘tkazish vaqti

turlicha bo‘lgan tadbirlarga nisbatan katta samara beradi. Agar bozor, reklama qilinayotgan mahsulot xususiyatlari va iste‘molchilar tahlil qilinmagan bo‘lsa, reklama hech qanday samara bermaydi. Aniq reja tuzmay turib, reklama kompaniyasi iste‘molchilarni tasniflay olmaydi, bunda tabiiyki, kutilgan natijaga erishilmaydi. Reklama kompaniyasi puxta rejalashtirilgan, muvofiqlashtirilgan bo‘lishi va muayyan vaqt davomida turkum reklama hamda sotishni qo‘llab-quvvatlovchi tadbirlar sifatida o‘tkazilishi lozim.

Rejalashtirilgan barcha iste‘molchi guruhlar imkon qadar to‘liq qamrab olingandagina reklama o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erisha oladi.

Iste‘molchilarning bozordagi faoliyatini hisobga olish nihoyatda muhim: xaridlar xususiyati ko‘p jihatdan shaxsiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan belgilanadi. Aynan ana shu nuqtayi nazar reklamaning uch tarkibiy qismi: diqqat-e‘tibor, xotirada saqlab qolish va ishontirish belgilanadi. Reklamaning asosiy maqsadi – tanlash vaqtida maqsadli iste‘molchilar tipik vakilining e‘tiborini, aynan reklama qilinayotgan obyektga jalb etishdan iborat. Shuning uchun reklama mutaxassislari iste‘molchiga ta‘sir o‘tkazishga, buning diqqatini tortishga harakat qilib, uni reklamaning muddaosini xotirada saqlab qolishga majbur etadilar.

Reklama yaratishning bevosita ijobiy qismiga kelsak, bunda asosiy e‘tibor quyidagi masalaga qaratilishi lozim: reklama tovar yoki xizmat ko‘rsatish turining xaridor bo‘lishi kutilayotgan shaxs e‘tiborini jalb etishi uchun ifodali va betakror bo‘lishi lozim. Kutilmagan, estetik jihatdan puxta o‘ylangan reklama iste‘molchining diqqatini o‘ziga tortadi. Biroq betakrorlik yagona maqsad bo‘lmasligi kerak. Ushbu muammoning mohiyatini jahon reklama nazariyasining klassigi Devid Ogilvi juda aniq ifodalab bergan: *“Shaxsan men reklama tijoratiga ko‘ngil ochish yoki san‘atning bir turi deb emas, balki axborot manbai sifatida qarayman. Men reklama mahsulotini yaratayotganimda oddiy iste‘molchi aslo uning kreativligidan, ya‘ni noodatiy ijodiy topilmasidan hayratga tushishi kerak emas. Menga eng muhimi: xaridor shu darajada qiziqib qolsinki, borib reklama qilinayotgan mahsulotni sotib olsin”*. Samarali reklamani yaratish uchun reklama mahsulotini rejalashtirish, yaratish, joylashtirish va huquqiy tartibga solishning nazariy asoslarini bilish lozim.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda reklama faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro hamjamiyatda reklamaning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi reklamashunos olimlar tomonidan etarli darajada tadqiq etilmagan. Tarixiy manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, reklamaning vujudga kelishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Reklama tarixini yoritgan Yevgeniy Viktorovich Romat o‘zining “Reklama: tarix, nazariya, amaliyot” [1] nomli kitobida ta’kidlashicha, reklama atamasi lotincha “reklamare” – “qichqirmoq” yoki “xabar bermoq” so‘zidan kelib chiqqan. Muallif ushbu fikrni ilgari surishda qadimda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy hayotdagi hodisalarga tayanadi, jumladan, Qadimgi Rim va Gretsiyada faoliyat turiga ko‘ra dastlabki

reklama tarqatuvchisi paydo bo'lgan deb hisoblandi, va bu jarayon savdo do'konlari va mahsulotlar haqida xabarlarni baqirib aytuvchi jarchilardan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, reklama tarixi bo'yicha fikr bildirgan faylasuf Lutsiy Aney Seneka bundan ikki ming ilgari, reklama haqida fikr bildirib, "dastlabki reklama qiluvchilar orasida somsa sotuvchilar ham, har xil pishiriqlar sotuvchilar ham bor edi. Har biri o'z bilganicha o'z mahsulotini baqirib maqtardi" [2], deb yozgan edi. Faylasuf Lutsiy Aney Senekaning fikrlarini tahlil qilib, aytish mumkinki, u o'zi yashagan davrda reklamani paydo bo'lishini, jamiyat hayotida tutgan o'rni va shaklini o'z asarlarida ifodalab, bu atamaning etimologik mazmunini to'liq yoritib berganligiga guvoh bo'lamiz.

L.Vinnichukni ta'kidlashicha, qadimgi hunarmand va savdogarlar raqobatchilardan ajralib turish maqsadida qadimgi o'zlari ishlab chiqarayotgan va sotayotgan mahsulotlariga firma tamg'a yoriqlarini qo'yganlar [2]. Shunday tamg'alarga misol qilib, qadimgi dunyoda sotilgan guruchlarga qo'yilgan 1.2, 1.3 va 1.4 kabi yoriqlarni keltirish mumkin.

Bu tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, qadimda reklama qiluvchilar o'z mahsulotlarini boshqalarning mahsulotidan ajralib turishi uchun mahsulotiga xos belgini, ya'ni tamg'a yoriqlarni ixtiro qilganlar. Ushbu ixtiro esa keyinchalik firmalarni o'z nomi va tamg'asi bilan mahsulot ishlab chiqarishga asos solgan deb fikr bildirish mumkin.

Xorijiy adabiyotlarda reklama, asosan, marketing nuqtayi nazaridan talqin etiladi. Masalan, Xalqaro reklama assotsiatsiyasining ta'rifiga ko'ra, reklama – g'oyalar, tovarlar yoki xizmat turlarining aniq buyurtmachi tomonidan haq to'langan holda noshaxsiy taqdim etilishi va oldinga qarab siljitishning har qanday shaklidir [3].

AQSH Shimoli-g'arb universiteti professori, taniqli marketolog F. Kotler reklamaga yuqorida ta'kidlangan fikrga yaqin ta'rif beradi: "Reklama kommunikatsiyaning moliyalashtirish manbai aniq ko'rsatilgan holda, pulli axborot tarqatish vositalari orqali amalga oshiriladigan noshaxsiy shaklidir" [4].

O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi qonunida reklamaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Reklama – bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va texnologiyalar to'g'risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot" [5].

Ta'kidlash joizki, reklama o'zining dunyoga kelgan vaqtdan boshlab uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tdi va bugunga kelib, u turli ko'rinish va turli shakllarda namoyon bo'lgan holda ko'p qirrali va ko'p unsurli hodisaga aylandi. Hozirgi kunda reklama jahon axboroti sohasida ulkan vazifalarni amalga oshirmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya va deduksiya, mantiqiy va tarkibiy tahlil, guruhlashtirish, iqtisodiy statistik tahlil va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda reklama faoliyatini

tashkil etishning huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarorining o‘rni beqiyos ekanligi ko‘rsatib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda reklamaning taraqqiy etishi bevosita mustaqillik yillari bilan bog‘liq. Iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronlik qilgan vaqtda reklama asosan siyosiy shiorlar yoki juda ibtidoiy chaqiriqlar bilan chegaralangan edi.

Mamlakatda bozor munosabatlari infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi reklama faoliyati uchun ham katta imkoniyatlarni yaratdi. Umuman, bozor munosabatlarini rivojlantirishni reklamasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega” [6] ekanligi kafolatlab qo‘yilgan. Reklama ham ana shu huquqni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi 2022-yil 7-sentyabrda “Reklama to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi reklama faoliyatining huquqiy asoslarini yaratdi. Ushbu qonunga binoan reklamaga nisbatan quyidagi asosiy talablar qo‘yilgan:

- qonuniylik;
- ishonchlilik;
- reklamadan foydalanuvchiga zarar, shuningdek, ma‘naviy zarar etkazmaydigan shakl va vositalardan foydalanish.

Shu bilan birga reklama beruvchi, reklama tayyorlovchi va reklama tarqatuvchining huquq hamda majburiyatlari, reklamaga bo‘lgan mualliflik huquqi, televideniye va radioda, bosma nashrlarda, telefon hamda hujjatli elektron aloqadan foydalaniladigan tarzdagi, tashqi, transport va pochta jo‘natmalaridagi reklama xususiyatlari ko‘rsatilgan.

“Reklama to‘g‘risida”gi qonunda noaniqligi, ikki xil ma‘noni anglatishi, bo‘rttirilishi, yashirilishi oqibatida reklamaning tarqatish vaqti, joyi va usuliga nisbatan qo‘yilgan talablar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarning buzilishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg‘ituvchi yoki chalg‘itishi mumkin bo‘lgan shaxslarga, shuningdek, davlatga moddiy va ma‘naviy zarar etkazish ehtimoli bo‘lgan noto‘g‘ri reklama ta‘qiqlanishi belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, iste‘molchining ongiga uning o‘zi anglamagan holda ta‘sir o‘tkazadigan yashirin reklamani ham tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida reklama davlat tilida yoki reklama beruvchining xohishiga ko‘ra boshqa tillarda tarqatiladi. Belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari), bosma usulda terilgan bo‘g‘inli belgilar (logotiplar) asli qaysi tilda bo‘lsa, shu tilda keltirilishi mumkin.

“Reklama to‘g‘risida”gi qonunda quyidagilarni reklama qilish ta‘qiqlangan:

- ishlab chiqarilishi yoki tarqatilishi qonun hujjatlari bilan ta‘qiqlangan mahsulot haqida axborot tarqatish;
- jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy

mavqeyiga qarab yoki boshqa holatlarga ko'ra kamsitish yoki o'zga shaxslarning mahsulotini badnom etish;

- qonun hujjatlari buzilishiga olib kelishiga mumkin bo'lgan, fuqarolarning salomatligi yoki hayotiga va atrof-muhitga zarar etkazuvchi yoxud zarar etkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek, xavfsizlik vositalariga e'tiborsizlik tuyg'usini uyg'otuvchi harakatlarga da'vat etish;

- majburiy sertifikatlashtirilishi zarur bo'lgan yoki ishlab chiqarilishi yoxud tarqatilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) bo'lishi talab etiladigan mahsulotning tegishli sertifikat, litsenziyasi bo'lmay turib reklama qilish;

- agar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqa qoida ko'zda tutilgan bo'lmasa, boshqa mahsulot reklamasida qo'llaniladigan umumiy echim, matn, tasvir, musiqali yoki ovozli ohanglarni aynan takrorlash;

- jismoniy shaxslarning ismi yoki tasviridan uning roziligisiz foydalanish;

- pornografiyani tarqatish;

- axborot mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xorijiy so'z va iboralardan foydalanish;

- mahsulot davlat organlari yoxud ularning mansabdor shaxslari tomonidan ma'qullanganligini ko'rsatish;

- ishtirok etish uchun muayyan mahsulotni olish sharti qo'yilgan rag'batlantiruvchi lotereya, tanlov, o'yin yoki shunga o'xshash boshqa tadbirlar o'tkazish, tadbirning tashkilotchisini, uni o'tkazish qoidalari va muddatlarini, bunday tadbir haqidagi axborot manbaini, mukofotlar yoki yutuqlar miqdorini, ularni olish muddatlari, joyi hamda tartibini ko'rsatmagan holda reklama qilish;

- mahsulotni tovar belgisi yoki xizmat ko'rsatish belgisi reklama qilish ta'qiqlangan yoxud reklama qilishga nisbatan tegishli cheklovlar yoki talablar belgilangan mahsulotning tovar belgisi xizmat belgisini adashtirib yuborish darajasida bir xil yoxud unga aynan o'xshash bo'lgan boshqa mahsulotning reklamasini ko'rinishida reklama qilish.

Qonunda tamaki, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasining ta'qiqlanishi ham ko'rsatilgan. Shu bilan birga voyaga etmaganlarga mo'ljallangan reklamaga ayrim cheklovlar, xususan, ular iste'mol qilayotgan yoki undan foydalanayotgan tasvir tushirilgan, voyaga etmaganlarni mahsulot olishga yoki reklama qilinayotgan mahsulotni olishni iltimos qilib uchinchi shaxslarga murojaat etishga da'vat etuvchi, haqiqiy yoki o'yinchoq quroldan foydalanilgan reklama ta'qiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi qonuni talablari ijro etilishini ta'minlash davlat boshqaruv organlariga va joylardagi davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzurida Reklama bo'yicha idoralararo kengash tuzilgan. Idoralararo kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining reklamani ishlab chiqarish, joylashtirish va tarqatish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qo'llanish amaliyotini tahlil qilish;

- tovarlar (ishlar va xizmatlar) bozorida reklamani ishlab chiqarish, joylashtirish va tarqatish jarayonida paydo bo'ladigan xulq-atvorning madaniyatli norma hamda qoidalarini shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- yuridik va jismoniy shakllarning reklama faoliyatiga ko'maklashish, reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish, reklama faoliyatini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish;

- tovarlar (ishlar va xizmatlar) bozorlarida, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq bank, sug'urta va boshqa xizmatlar bozorlarida, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorlarida reklamani tarqatishda halol raqobatni hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilish;

- reklama beruvchilar, reklama ishlab chiqaruvchilar, reklama tarqatuvchilar va reklamadan foydalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining ijodiy uyushmalari, jamoat birlashmalari, nufuzli xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan reklama faoliyati masalalari bo'yicha aloqalarni rivojlantirish;

- reklama faoliyatini yoritishga, halol raqobatni, reklamada ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashish;

- reklama faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va o'z-o'zini tartibga solish bo'yicha xorij tajribasini tahlil qilish;

- reklama faoliyatini amalga oshirish ustidan nazoratning samaradorligi masalasi bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganishni tashkil etish;

- ijtimoiy reklamani ishlab chiqarish, joylashtirish va tarqatishda tashabbuskorlik ko'rsatish va boshqalar.

Vakolatli davlat organlari reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligini aniqlagan taqdirda, qonunbuzar mazkur organlarning qaroriga binoan va ular ko'rsatgan muddatlarda aksilreklama berishi shart.

Aksilreklama – noto'g'ri reklama keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tarqatiladigan raddiya hisoblanadi. Aksilreklama berish, shuningdek, ixtiyoriy ravishda yoki sudning qarori bilan amalga oshirilishi mumkin. Aksilreklama berishni amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlar qonunbuzar tomonidan qoplanadi.

“Reklama to'g'risida”gi qonunda, shuningdek, noto'g'ri reklama, yashirin reklama va qiyosiy reklamaga oid ko'rsatmalar ham berilgan.

Noto'g'ri reklama – noaniqligi, ikki xil ma'noni anglatishi, bo'rttirish, yashirish oqibatida reklamani tarqatish vaqti, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg'ituvchi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan shaxslarga, shuningdek, davlatga moddiy hamda ma'naviy zarar etkazish ehtimoli bo'lgan reklama noto'g'ri reklama hisoblanadi. Noto'g'ri reklamani amalga oshirish ta'qiqlanadi.

Yashirin reklama – iste'molchilar ongiga uning o'zi anglamagan holda ta'sir ko'rsatuvchi, shu jumladan, maxsus videolavhalardan foydalanish yo'li bilan hamda boshqa usullar orqali ta'sir o'tkaziladigan reklamadir. Yashirin reklamadan radio,

tele, video, audio va kino mahsulotida, shuningdek, boshqa mahsulotda foydalanishga hamda uni o'zga usullar bilan tarqatishga yo'l qo'yilmaydi.

Qiyosiy reklama – raqobatchi yoki uning tomonidan taqdim etilayotgan muayyan bir turdagi mahsulotga bevosita yoki bilvosita aynanlashtiriladigan reklama. Agar reklamada moddiy, muhim, ishonchli xossalari xolisona taqqoslansa, agar bunda reklama undan foydalanuvchini chalg'itib qo'ymasa va chalg'itishi mumkin bo'lmasa, reklama beruvchi bilan raqobatchining shaxsi yoki reklama beruvchining va raqobatchining tovar belgilari, firmaning nomi, mahsuloti aralashib ketmasa hamda raqobatchining ishchanlik obro'sini yoki uning tovar belgisini, firmaning nomini, mahsuloti yoki faoliyatini badnom etmasa, qiyosiy reklamaga yo'l qo'yiladi.

O'zbekistonda hozirgi kunda reklama bozori jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Mamlakatning reklama bozorida milliy reklama agentliklari, jahonning etakchi reklama agentliklari hamda ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.

“Reklama to'g'risida”gi qonunda tashqi reklamani joylashtirish tartibi, mahalliy davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Shuning uchun viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligida tashqi reklamani tartibga solish bo'yicha maxsus xizmatlar tashkil etilgan.

2020-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi [3]. Mazkur qarorga ko'ra, tashqi reklama obyektlarini qurish tartibi, tashqi reklama obyektlarini qurish uchun beriladigan er uchastkalari, davlat mulki bo'lgan bino va inshootlar ro'yxatini shakllantirish, tashqi reklama obyektlarini er uchastkalari, davlat mulki bo'lgan bino va inshootlarida qurish huquqini elektron auksion orqali berish tartibi, o'rnatilgan tashqi reklama obyektlari uchun to'lovlar miqdorini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomlar hamda tashqi reklama obyektlari xavfsizligining umumiy texnik reglamenti tasdiqlandi.

Reklama sohasiga ham yuqori texnologiyalarning joriy qilinishi shahar infratuzilmasiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, hududning toza va tartibli bo'lishini ham ta'minlaydi.

2020-yil 1-martdan boshlab, reklama faoliyatini raqamlashtirish Toshkent shahrida tashqi reklamani joylashtirish sohasida joriy etiladigan alohida tartibning vazifalaridan biri sifatida kiritilgan.

Mazkur qarorga binoan bundan buyon tashqi reklama obyektlariga pasport beriladi. Obyektga pasport berilishi undan foydalanish mas'uliyatini oshiradi, qolaversa, tartib-intizomga rioya etilishini ta'minlaydi. Shuni hisobga olgan holda endi er uchastkalaridagi tashqi reklama obyektlari uchun 10 yil muddatga, davlat mulki bo'lgan bino va inshootlardagi tashqi reklama obyektlari uchun 5 yil muddatga Davlat xizmatlari markazlari orqali reklama joylariga pasport berish joriy qilindi. Hujjatlashtirish jarayoni bir martalik yig'im summasini to'lash orqali amalga oshiriladi.

Ba'zi hollarda reklama obyektidan foydalanish uchun hujjatlarni qalbakilashtirish holatlari uchrab turadi. Shunday vaziyatlarda qanday yo'l tutiladi? Qarorda belgilanishicha, qalbakilashtirilgan hujjatlardan foydalanilgan holda tashqi

reklama obyektlariga olingan pasport, guvohnoma, ruxsatnoma va huquqni belgilovchi boshqa hujjatlar, shuningdek, tegishli vakolatli organning qarorisiz oʻrnatilgan tashqi reklama obyektlari boʻyicha hujjatlarning muddatini uzaytirishga ruxsat berilmaydi va ular haqiqiy emas deb hisoblanadi. Qarorga koʻra, tashqi reklama obyektlarini qurish uchun beriladigan er uchastkalari aniqlanib, ularning roʻyxati shakllantiriladi. Koʻp qavatli uyda yashaydiganlarni qiynaydigan muammolardan biri eshigi tagiga reklama va eʼlonlarning ruxsatsiz joylashtirilishi edi.

Qarorga koʻra, tumanlar (shaharlar) hokimliklari bu jarayonni oʻz nazoratiga oladi. Yaʼni tashqi reklama obyektlarini qurish uchun beriladigan er uchastkalari hamda davlat mulki boʻlgan bino va inshootlarni aniqlash maqsadida hududlarni oʻrganadi. Yer uchastkasidan foydalanish huquqini, shuningdek, davlat mulki boʻlgan bino va inshootlarga reklama obyektlarini joylashtirish huquqini belgilovchi hujjatlar tayyorlanishi hamda tashqi reklama obyektlarini tizimli monitoring qilish va ularni noqonuniy joylashish holatlarini aniqlashni yoʻlga qoʻyadi.

Shu bilan birga tashqi reklama obyektlarida joylashtirilgan reklamalar, jumladan, ijtimoiy reklamalar hisobini yuritib, yoʻlning qatnov qismida joylashgan aholi turar-joy binolarining tashqi qismida (balkon, deraza, eshik va hokazolar) har qanday turdagi shaxsiy eʼlonlarni joylashtirishga yoʻl qoʻymaslik choralari koʻradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Oʻzbekistonda reklama faoliyatini tashkil etishning huquqiy asosi sifatida Oʻzbekiston Respublikasining “Reklama toʻgʻrisida”gi qonuni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama bozorini tartibga solish toʻgʻrisida”gi qarori beqiyos muhim oʻrin egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Reklamanning yuqorida keltirilgan taʼriflarini tahlil qilib, uning mohiyati va xususiyatlari toʻgʻrisida quyidagicha xulosa qilish mumkin. Yaʼni reklama:

- axborot etkazish vositasi;
- u aniq shaxsga emas, balki aholining maʼlum belgisiga ajratilgan qismi, yaʼni maqsadli isteʼmolchilarga yoʻnaltirilgan boʻladi;
- axborot etkazish toʻlov asosida amalga oshiriladi;
- axborot turli vositalar orqali tarqatiladi;
- maqsadli isteʼmolchilarga taʼsir koʻrsatishni rejalashtiradi;
- reklama beruvchini aynanlashtirish imkonini beradi.

Reklama hamisha isteʼmolchiga moʻljallangan va unga yoʻnaltirilgan boʻladi. Reklamanning vazifasini faqat tovar va xizmatlarni targʻib etish savdo belgisining nufuzini oshirishga xizmat qilishi bilan chegaralab boʻlmaydi. U quyidagi boshqa vazifalarni ham bajaradi:

- korxonada, uning tarixi, yutuqlari borasidagi axborotlarni tarqatadi;
- jamiyat tomonidan korxonaga ijobiy munosabatni shakllantiradi;
- reklama beruvchining tovari yoki xizmatlariga nisbatan notoʻgʻri tasavvurlarni yoʻqotadi;
- servis xizmati, yaʼni korxonada xaridor tovarni sotib olganidan keyin ham, u haqida gʻamxoʻrlik qilishi toʻgʻrisida qoʻshimcha maʼlumotlarni tarqatadi;

- ekologik jihatdan sof mahsulotlarni, atrof-muhitga ziyon keltirmaydigan korxonalarni reklama qilish orqali iste'molchilarning ekologik tarbiyasiga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda reklama faoliyatini tashkil etishning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi qarori beqiyos muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ромат Е.В. Реклама: история, теория, практика. Учебник для вузов. – М.: Питер, 2002.
2. Винничук Л. Люди, нравы и обычаи Древней Греции и Рима. – М.: Высшая школа, 1988.
3. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Серёгина Ю.К., Шахурин В.Г. Рекламная деятельность. – М.: Издательско-книготорговый центр "Маркетинг", 2001.
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Прогресс, 1990.
5. Ўзбекистон Республикаси "Реклама тўғрисида"ги қонуни, 2022 йил, сентябр.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
7. Феофанов О.А. США: реклама и общество. – М.: Экономика, 1974.
8. Школьник Л.С., Тарасов Е.Ф. Язык улицы. – М.: Экономика, 1977.
9. Джон Р., Росситер, Лари Перси. Реклама и продвижение товаров. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2000.
10. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Экономика

INNOVATSION MARKETING TIZIMIDA BRENDING KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna
TDIU, Marketing kafedrası dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanib, raqamli marketingda eng muhim omil hisoblangan branding konsepsiyasi o'rganilgan, uni amaliyotda tatbiq qilinish usullari va yo'llari tahlil qilinib, zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan firma va korxonalar mahsulotlari brendini bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh bo'lib, bozorda o'z o'rnini mustahkam egallash masalalari ko'rib chiqilgan va ushbu sohada vujudga kelayotgan bir qancha muammolar yuzasidan fikr va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Savdo markasi, brend, korporativ identifikatsiya, qadoqlash, reklama, diffuziya, kommunikatsiya, individual, logotip, strategiya, monitoring, narx nuqtasi, eksklyuzivlik, ideal iste'molchi, onlayn, oflayn, ko'p brendlilik, brend kengaytmasi, yangi brend, missiya.

Аннотация

В данной статье с использованием инновационных маркетинговых стратегий в условиях цифровой экономики была изучена концепция брендинга, которая рассматривается как важнейший фактор цифрового маркетинга, проанализированы методы и способы ее реализации на практике, продукция фирм и предприятий, работающих в сферах современного производства и обслуживания, конкурентоспособна в условиях современной экономики.

Ключевые слова: бренд, фирменный стиль, упаковка, реклама, распространение, коммуникация, индивидуальность, логотип, стратегия, мониторинг, цена, эксклюзивность, идеальный потребитель, онлайн, оффлайн, мультибренд, расширение бренда, новый бренд, миссия.

Abstract

In this article, using innovative marketing strategies in the conditions of the digital economy, the concept of branding, which is considered as the most important factor in digital marketing, has been studied, analyzed the methods and ways of its implementation in practice, the products of firms and enterprises operating in the areas of modern production and service are competitive in the conditions of the.

Key words: brand, corporate identity, packaging, advertising, diffusion, communication, individual, logo, strategy, monitoring, price point, exclusivity, ideal consumer, online, offline, multi-brand, brand extension, new brand, mission.

KIRISH

Innovatsiyalar va globallashuv tufayli barcha bozorlar jadal rivojlanmoqda. Raqobat kuchayib bormoqda va bir xil mahsulot yoki xizmat uchun ko'proq etkazib beruvchilar ya'ni bozorda taklif miqdori mavjud. Bu mijozlar hamda

iste'molchilar uchun foydalidir, chunki ular tanlash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, etkazib beruvchilar oldiga yangi vazifa qo'yadi. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida hozirgi zamonaviy marketologlarning vazifasi raqobat jarayonida mahsulot va xizmatlarning mijozlar ehtiyojlarini o'rgangan holda, ularga tanitish va sotib olishlari yohud iste'mol qilishlarini ta'minlashdan iborat. Brending buning asosiy echimidir.

Brendning maqsadi aniq tovar imijini yaratish va aloqa yo'nalishini aniq shakllantirishdir. Brending bozorni o'rganish, mahsulotni aniqlash, tovar nomini yaratish, tavsiflovchi yorliq belgisi, vizual va og'zaki identifikatsiya tizimlarini (savdo markasi, korporativ identifikatsiya, qadoqlash, maxsus tovushlar va boshqalar), identifikatsiya va aloqadan foydalanishni o'z ichiga oladigan brend g'oyasini aks ettiruvchi va etkazuvchi ommaviy axborot vositalari hisoblanadi [1]. Brending — bu tovarlarga uzoq muddatli iste'molchilarning imtiyozlarini yaratish uchun maqsadli marketing faoliyatidir. Brending marketing kommunikatsiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida amalga qilinadi: savdo markasi, qadoqlash, reklama, mahsulotni tushuntirishga yordam beradigan va iste'molchining zehni va psixologiyasida boshqa raqobatchilardan farq qiluvchi mahsulot imijini yaratishga yordam beradigan boshqa marketing harakatlarini o'z ichiga oladi. Brend — bu shunchaki oddiy logotip emas. Brending – innovatsiyalar bozorida brendlar shakllanishini o'rganadigan, xaridorlar bilan uzoq muddatli ishonch asosidagi munosabatlar o'rnatish va oqibatda sezilarli raqobatli ustunliklarga ega bo'lish imkonini beradi [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Brend innovatsiyasi korporativ strategiyaning muhim tarkibiy qismidir. Strategik rejalashtirish orqali brend innovatsiyasi korxonalariga yangi marketing loyihalarini amalga oshirishga yordam beradi.


F.E Wyebster Jr “Marketing konsepsiyalarining qayta kashf etilishi” nomli maqolasida firmaning bozordagi raqobatbardoshligi uning biznes aloqalari orqali innovatsion marketing g'oyalari yordamida bozorni egallash qobiliyatini aks ettiradi deb aytib o'tilgan. (Webster, 1988). Ishbilarmonlik munosabatlaridagi sherikning imkoniyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati sheriklikning raqobatbardoshligiga hissa qo'shish qobiliyatiga bog'liq (Day, 1994 , Ernst, 2000) [3].

Anderson (1995) so'zlariga ko'ra, brend va sotuvchi munosabatlari har ikki tomonning raqobatbardoshligini bir-birining resurslarni va ularning bozorni o'rganish va qiymat yaratish imkoniyatlarini realizatsiya qilish qobiliyatlari haqida o'zaro tushunchalarga asoslanadi [4].

Sharma va Sheth tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari (1997) kompaniyalarning raqobatbardosh bo'lish istagi ularni tranzaksiyaga yo'naltirilgan falsafasini munosabatlarga yo'naltirilgan qadriyatlarga o'tkazishga undashini ochib beradi. Sharma va Sheth (1997) raqobatbardosh bozorda xaridorlarning kuchi bozordagi etkazib beruvchilar sonini kamaytirishi mumkinligini taxmin qilishdi, xaridor va etkazib beruvchining markali mahsulotlariga investitsiya qilish to'g'risidagi

qarori uni qo‘llab-quvvatlashda etkazib beruvchilarning innovatsionligi bilan bog‘liqligini asosladi [5].

Marketing sohasidagi mashhur mutaxassis Piter Doy, brendni shakllantirish mexanizmi elementlarini ko‘rib chiqar ekan, uch bosqichni ketma-ketlikda bosib o‘tgan holda brendni yaratish mumkin deb hisoblaydi (1-rasm):



1-rasm. Uch bosqichni ketma-ketlikda bosib o‘tgan holda brendni yaratish[6]

METODOLOGIYA


Shu boisdan ilmiy tadqiqot davomida analiz va sintez, analiz tahlil, qiyosiy tahlil, statistika, so‘rovnoma tahlili yo‘nalishlari orqali branding mazmuni va ahamiyati chuqurroq o‘rganishga harakat qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Branding – bu ayni vaqtda ko‘pchilik uchun yangi kirib kelgan so‘z bo‘lishiga qaramasdan, ancha ommalashdi va uni tub mohiyatini bilish va chet el tadqiqotlarini o‘rganish talab qilina boshlandi. Branding innovatsion faollikka va innovatsiyalar diffuziyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu innovatsiyalar harakatini engillatish va tezlatish, yangi mahsulotlar hayotiylik davrining barcha bosqichlarida xarajatlarni tejab qolish hisobiga ro‘y beradi. Savdo markalarini rivojlanishining o‘zi innovatsiya bilan uzluksiz bog‘liq va innovatsiyaga asoslanadi. Har bir branding operatsiyasida innovatsion jihat mavjud. Bu savdo markasini yangicha ko‘rish, yangicha imij, shartnomalarning yangicha tahriri, iste’molchilar xulq-atvorining yangicha modeli, savdo markasini yangicha joylashtirish, maqsadli bozorni kengaytirish hisobiga savdo markasi oilasini yangilash, yangicha pozitsiyalar, qayta joylashtirish, savdo markalari yangi kommunikatsiyalari va yangicha narx shakllanishidir. Branding usullari iqtisodiyotning globallashuvi sharoitlarida raqobat kurashining istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi [7].

Brend innovatsiyasi yangi g‘oyalarni rivojlantiradi, ijodkorlikni rag‘batlantiradi va marketing bo‘limlariga o‘z tashkilotini keyingi bosqichga olib chiqishga yordam beradi. To‘g‘ri rejalashtirish bilan sotuvchilar innovatsiyalarni muvaffaqiyatli va barqaror ravishda oldinga olib borishlari mumkin. Quyidagi besh bosqichli reja branding, birinchi navbatda, brend xabardorligining asosiy shakllarida — brendni tan olish va brendni eslab qolishda muvaffaqiyat qozonishini nazarda tutadi. Ushbu

fazilatlar bozorda o'z o'rniga ega bo'lgandan so'ng, sotuvchilar tovar xabardorligining yuqori darajalariga — brend assotsiatsiyasi va brend franshizasiga da'vo qilishga harakat qilishadi. Rejaning yakuniy bosqichi brend franshizasining eng yuqori shakli bo'lgan brendga sodiqlikka qaratilgan.



2-rasm. Brendni rejalashtirishning besh bosqichi [8].

Ushbu bosqichlar brandingni har xil turlari uchun qo'llaniladi. Bulardan hozirgi kunda amal qilinib, keng tarqalganlaridan top sakkiztaligini sanab o'tish kerak. Bular quyidagilar:

1. Shaxsiy branding
2. Mahsulot brandingi
3. Xizmat brandingi
4. Chakana savdo brandingi
5. Madaniy va geografik branding
6. Korporativ branding
7. Onlayn branding
8. Oflayn branding[9].

Shaxsiy branding ijtimoiy tarmoqlarda va yuzma-yuz muhitda sodir bo'ladi, bu erda boshqalar sizni idrok etishi sizning professional va ijtimoiy obro'yingizga yaxshi yoki salbiy tarzda ta'sir qilishi mumkin.

Mahsulot brendi bu — ma'lum bir mahsulotni branding harakatidir. Chakana savdo belgisi jismoniy joyda ishlaydigan har qanday biznes uchun majburiydir. So'nggi bir necha yil ichida elektron tijoratda ulkan o'sish kuzatildi va bu tendensiya yaqin orada o'zgarmaydi. Shunday qilib, xaridorlarning eshikdan kirishini ta'minlash uchun chakana sotuvchilar o'zlarining branding o'yinlarini kuchaytirishlari va o'z do'konlarini xaridorlar qaytib kelishni va qaytadan savdo qilishga xohlaydigan tajribaga aylantirishlari kerak.

Korporativ branding, xuddi boshqa branding turlari kabi, brend haqida asosiy fikrlarni bildiruvchi dizayn tanlovlari va harakatlar seriyasidir, masalan:

- Qiymatlar;
- Missiya;
- narx nuqtasi;
- eksklyuzivlik;

- ideal iste'molchi [10].

Korporativ brending veb-sayt dizayni va reklamadan tashqariga chiqadi. Bu kompaniyaning o'zini ijtimoiy va professional tarzda qanday tutishini, masalan, muayyan xayriya tashkilotlari bilan hamkorlik qilish yoki joriy voqealarga javob berishni o'z ichiga oladi.

Onlayn brending, nomidan ko'rinib turibdiki, onlayn tarzda sodir bo'ladigan brendingdir. Shaxsiy yoki mahsulot brendi kabi brendingning o'ziga xos turlaridan farqli o'laroq, onlayn brending internetda sodir bo'ladigan barcha turdagi brendingni nazarda tutuvchi keng toifadir. Bu shaxsning ijtimoiy tarmoqlarda o'zini qanday joylashtirishi, xizmat ko'rsatuvchi provayderning onlayn reklama turi, elektron pochta xabarnomalari, ochilish sahifalari, sezgir veb-dizayn va xabarlarga avtomatik javoblarga kiradigan barcha dizayn tanlovlari hisoblanadi.

Oflayn brending — bu oflayn rejimda sodir bo'ladigan brending. Onlayn brending shaxsiy brending, mahsulot brendingi, korporativ brending va madaniy va geografik brending kabi brending turlarini qamrab olishi kabi, oflayn brending ham ularni qamrab olishi mumkin.

Ko'pchilik mahalliy korxonalar uchun sifatli tovar mavjudligi o'z brendini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun zaruriy, lekin etarli bo'lmagan shart hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bitta tovar guruhida raqobat kuchli va ishlab chiqarilayotgan raqobatchi-tovarlar sifatining yuqori darajada ekanligi kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, brendni shakllantirish mexanizmining dastlabki bosqichlaridan biri sifatida yangi tovar yaratish emas, balki biznes-g'oya ishlab chiqish va ifodalash ko'rsatilmoqda. Brendni faol qo'llashning boshlanishi o'rta asrlarga borib taqaladi, o'shanda do'kon hunarmandlari va novvoylari o'z mahsulotlarini maxsus marka bilan tang'alashgan. Ammo markalashning keng qo'llanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi, chunki bozorda shunga o'xshash mahsulotlarning ko'pligi sabab bo'ldi. Brend iste'molchi uchun muhim bo'lgan ko'pgina xususiyatlarni ajratib olishga yordam berdi, shuningdek mahsulotni tushunishni osonlashtirdi. Mahsulotlar va xizmatlarni iste'molchilar uchun ma'lum qadriyatlar va ta'surotlarga ega markalar bilan almashtirildi. Shu bilan birga, qo'shimcha qiymat jismoniy xususiyatlardan metafizik maydonga o'tadi, bu noyob brendga ega bo'lishdan kelib chiqqan hissiyotlar sifati bilan belgilanadi [12].

Brendingning asosiy obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: tovar-brend sohibi, iste'molchi (yoki iste'molchi xulq-atvori) va brend egasi oladigan foyda. Brend tarkibiy qismlarining o'zaro aloqalarini aniqlash va uning mahsulotini aniqlash uchun bu elementlarni tadqiq etish lozim. Agar kompaniya tomonidan taqdim etiladigan yangi xizmat yoki yangi tovar – sifati pastligi oldindan ma'lum bo'lib, xaridorning funksional ehtiyojlarini qoniqtirmasa, kelgusida brend shakllantirish bo'yicha bajariladigan ishlardan ma'no bo'lmaydi. Brend bo'lishi ko'zda tutilgan yangi tovar yuqori sifatga ega bo'lishi va xaridorning funksional ehtiyojlarini imkon qadar to'laroq qoniqtirishi lozim.

Brend nafaqat tovarlar sifatining kafolati bo'lib qolmasdan, balki, "Brend ostida" mahsulotlarini sotib olish orqali odam turmush tarzini, mukammallik hissi, bu brendning tovarlarini ishlatadigan bir guruhga egalik qiladi va bu brendning tovarlarini

ishlatadigan guruhga tegishli bo‘ladi. Samarali natijalarga yo‘naltirilgan strategiyani ishlab chiqishda innovatsion marketing tizimini isloh qilib quyidagilarni amalga oshirish kerak bo‘ladi:

1. Individual va ijodiy yondashuv;
2. Noyob (mualliflik huquqi) savdolarini rivojlantirish usullaridan foydalanish;
3. Har doim joriy amal vaqtiga amal qilish va ko‘p yillik tajriba real natijalari, tavsiyalar, batafsil va tushunarli hisobotni taqdim etish;
4. Narxga nima kiritilganligini aniqlash;
5. Maqsadli auditoriyani va uning faoliyatining eng odatiy shakllarini o‘rganish;
6. Vaziyatni, bozor auditi va raqobatchilarini tahlil qilish;
7. Konsepsiya va strategiyani tuzish;
8. Reklama tasdiqlangan strategiyaga muvofiq qat’iy ravishda amalga oshirish;
9. Maksimal ta’sir ko‘rsatish strategiyasiga doimiy monitoring va tuzatishlar [13].

Brend innovatsiyasi korporativ strategiyaning muhim tarkibiy qismidir. Strategik rejalashtirish orqali brend innovatsiyasi korxonalariga yangi marketing loyihalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Brend innovatsiyasi yangi g‘oyalarni rivojlantiradi, ijodkorlikni rag‘batlantiradi va marketing bo‘limlariga o‘z tashkilotini keyingi bosqichga olib chiqishga yordam beradi. To‘g‘ri rejalashtirish bilan sotuvchilar innovatsiyalarni muvaffaqiyatli va barqaror ravishda oldinga olib borishlari mumkin. Kompaniya brandingning asosiy bosqichlari:

- bozor holatini, maqsadli auditoriyani (brendning hozirgi holati, agar u allaqachon yaratilgan bo‘lsa) tahlil qilish;
- rejalashtirish (brendning mohiyatini shakllantirish, joylashishni aniqlash; brendni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish);
- brendni yaratish (vizual va og‘zaki identifikatsiya qilish tizimini yaratish; tovar imijini yaratish; tovar hujjatlari to‘plamini yaratish);
- brendni ilgari surish (iste’molchilar va brend o‘rtasida mustahkam aloqani yaratish uchun o‘rnatilgan marketing kommunikatsiyalaridan foydalanish);
- brend monitoringi va ish faoliyatini baholash [15].

Brending quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nom berish, brendning rivojlanishi tavsifi;
- iste’molchining nazarida qiymatni aniqlash (pozitsiya);
- brendni farqlash va mijozlarning ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan farqlarni aniqlash;
- tovar dizaynini yaratish;
- brendni ommalashtirish va ommalashtirish (reklama yordamida).

Iste’molchilarning tajribaga oid idrokini rivojlantirishi va mijozlar o‘zlarining innovatsion ishlaridan shaxsan foyda olishlari mumkin [16]. O‘z brendini yaratayotgan har qanday korxonaning asosiy iqtisodiy maqsadi innovatsiyalarning bozor qiymati va raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Biznes-g‘oya ishlab chiqish brendni shakllantirishda ko‘zda tutiladigan kompaniyaning aniq maqsadlarini ifodalashga

imkon beradi: uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalar, muvaffaqiyatlilikni aniqlash mezonlari, tadbirkorlik faoliyatining taktik va strategik jihatlari va h.k. Biznes-g'oya ishlab chiqish masalasi bugungi kunda ko'plab kompaniyalar uchun dolzarb sanaladi va birlamchi ahamiyat kasb etadi. Mahalliy korxonalar amaliy tajribasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda kompaniyalar biznes-g'oya ishlab chiqishni pisand qilmasdan, o'z faoliyatini ma'lum bir tovar ishlab chiqishdan boshlamoqda. Taklif etilayotgan brend shakllantirish mexanizmi elementi – biznes-g'oya ishlab chiqish – brendni strategik rivojlantirish, shuningdek, korxonaning o'zini rivojlantirish masalalarini samaraliroq hal etishga imkon beradi.

Brendni rivojlantirish — bu sizning professional xizmatlar brendingizni yaratish va mustahkamlash jarayonidir. Biz firmalarga o'z brendlarini rivojlantirishga yordam berar ekanmiz, jarayonni uch bosqichga ajratamiz.

Birinchi bosqich — bu brend strategiyangizni to'g'ri va biznes maqsadlarga moslashtirish.

Ikkinchi bosqich – kompaniya logotipi, shiori va veb-sayti kabi brendni etkazish uchun kerak bo'ladigan barcha vositalarni ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich — yangi ishlab chiqilgan yoki yangilangan brendni mustahkamlash bosqichi [17].

Brendni rivojlantirishda unga har xil usullar bilan, innovatsion marketing sharoitida bevosita ishtirok etgan holda yondashish talab qilinadi. Bunday yondashuvlardan eng asosiy to'rttaligini ko'rib chiqish foydalidir. Brend strategiyasi, Brendni rivojlantirish haqida gap ketganda, albatta, quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, to'rtta asosiy brend yondashuvlari mavjud.



Mahsulot qatorini kengaytirish



Ko'p brendlilik



Brend kengaytmasi



Yangi brend

3-rasm. Brendga yondashishning eng asosiy to'rt xil strategiyasi [17].

Ko'rib turganingizdek, ushbu diagramma mavjud va yangi mahsulot toifasi hamda mavjud yangi brend nomining ikkita atributi atrofida qurilgan matritsasidir. Bu to'rtta qutbdan birini aniqlaydi, xususan:

1. Mahsulot liniyasini kengaytirish. Nomidan ko'rinib turibdiki, mahsulot qatorini kengaytirish kompaniya taklif qilayotgan narsaga juda o'xshash, ammo mijozlar ehtiyojlariga yaxshiroq javob beradigan yangi mahsulotni joriy qilishni nazarda tutadi. Agar brend nomi etarlicha mashhur bo'lsa va kuchli izdoshlar bazasiga ega bo'lsa, bu yondashuv juda keng tarqalishiga ko'maklashadi. Umuman olganda, yaxshi tashkil etilgan bozor mavjudligi mahsulot qatorini kengaytirish uchun yaxshi rag'batdir.

2. Ko‘p brendlilik. Ko‘p brendli strategiya biznesning raqobatchilar bilan bir xil bozordan bir nechta mahsulot sotishini nazarda tutadi. Bu biznesda bitta toifada raqobatlashadigan bir nechta brend borligiga ishonch hosil qilishning bir usuli.

Natijada, u ko‘proq javon maydonini ta‘minlaydi va raqobatchilarga kirishni cheklaydi. Ushbu yondashuv ko‘proq brendlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish va boshqarish uchun pul va resurslarga ega bo‘lgan yirik kompaniyalar uchun keng tarqalgan. Bu erda asosiy afzallik shundaki, ko‘p brendlar bozorda har xil pozitsiyaga ega bo‘lishi mumkin, bu esa har bir brend uchun raqobatdosh ustunlikni ta‘minlaydi.

3. Brendni kengaytirish. Brendni kengaytirish strategiyasini amalga oshirish bozorning brend haqidagi tushunchasini kengaytirishni nazarda tutadi. Bu mavjud brend nomi ostida bir nechta mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etganda sodir bo‘ladi. Umuman olganda, kompaniyalar ushbu strategiya haqida hushyor bo‘lishlari kerak, chunki bozor boshqa mahsulot toifasida o‘z tajribasini qabul qilishni istamaydi.

4. Yangi brend. Yangi brend strategiyasi yangi mahsulot qatorini va u bilan bog‘liq bo‘lgan brendni ishlab chiqishni anglatadi. Mahsulot liniyasi joriy brend taklifi doirasidan tashqarida bo‘lishi kerak, shuning uchun u yangi brendni talab qiladi.

Ushbu strategiyalar amal qilishi va ijobiy natijalarga erishish uchun, “Bir nechta g‘oyalar va logotiplarni birlashtirish etarli emas. Brendni targ‘ib qilish uchun yaxshi o‘ylangan strategiya bilan uni amalga oshirishga yordam beradigan omillardan iborat maxsus qo‘llanma hosil qilish kerak” deydi Allen Martinez va u ushbu quyidagi 4-rasmda ko‘rsatilgan diagrammani qo‘llanma sifatida yaratdi. Ushbu 4 – rasmda: Logo ,websayt ,narx, biznes varag‘i, ishchilar, mahsulot va xizmatlar, sotuvchilar xizmati, ijtimoiy va raqamli marketing kabilar asosiy omil hisoblanib qo‘llanmaga kiritilgan.




4-rasm. Brending strategiyasini qo‘llashdagi eng asosiy omillar [18].

Mavjud brendning kuchi pasayib borayotgan va ular bozor ulushini saqlab qolishni istasa, ushbu strategiyadan foydalanish mumkin.

Ishonchsizlik ortib bormoqda: 69% odamlar har qachongidan ham ko‘proq brendlar soxta yangiliklar yoki noto‘g‘ri ma‘lumot tarqatayotganidan qo‘rqishadi. Har

3 kishidan faqat 1 nafari sotib olgan yoki foydalanadigan brendlarning aksariyatiga ishonishini aytadi. Va 56% odamlarning aytishicha, juda ko‘p brendlar ko‘proq sotuvga erishish uchun ijtimoiy muammolardan marketing hiylasi sifatida foydalanadi. Bundan tashqari, ular sifat, qulaylik, qiymat, yaxshi sharhlar, mijozlar foydadan ustun turishni va boshqa ko‘p narsalarni xohlashadi.



5-rasm. So‘rovnoma orqali brend ishonchi foizini aniqlash [19].

Ko‘pchilik (74%) reklamadan xushlamaydi: Reklama haqida gap ketganda, ko‘pchilik undan qochishadi. Reklamani blokirovka qilish texnologiyasidan foydalanish, media odatlarini o‘zgartirish, ataylab reklamadan qochish, hattoki oqim xizmatlari uchun pul to‘lash — bularning barchasi odamlar sevimli brendlarning reklamalaridan ham qochishiga olib kelishi mumkin.

Tovar — bu iste’molchilar ongida vakilliklar, uyushmalar, hissiyotlar va qadriyatlarga oid ko‘rsatmalar majmuidir. Brendlar boshida yaratilgan. Bu dunyo odamlarga tegishli bo‘lishni xohlagan dunyo. Brend rivojlanishida qo‘llanadigan eng yaxshi usullarni rivojlantirishni rejalashtirmoqchi bo‘lganda, maqsadlar va ehtiyojlar bo‘yicha sinab ko‘rish mumkin bo‘lgan eng keng tarqalgan to‘rtta branding strategiyasidan foydalanish samaraliroqdir. Ular brandingni yaratish borasidagi sa’y-harakatlardan maksimal darajada foydalanishga yordam beradi va har doim iste’molchilarning ehtiyojlariga samarali javob berishini ta’minlaydi.

Binobarin, branding — bu iste’molchilar ongida g‘oyalar, fikrlar, his-tuyg‘ular va qadriyatlarni shakllantirish jarayonidir. Branding maqsadi — maqsadli auditoriya ongida mahsulot (xizmat, kompaniya, hudud, shaxs) qiymatini oshirishdir. Muvaffaqiyatli branding mahsulot innovatsiyasidan muhimroqdir, chunki kompaniya yangi xususiyatlar bilan ta’minlangan taqdirda ham mijozlar notanish brendlarning mahsulotlarini qabul qilmasligi mumkin. Mijozlarning ishonchi mahsulotni ishlab chiqarishda juda muhim.

Ushbu yuqorida aytib o‘tilgan nazariy bilimlarga tayangan hamda amaliyotda qo‘llab, tatbiq qilinib, samarali yutuqlarga erishayotgan brendlar talaygina. Ayni paytda dunyo globallashuvi jarayonida mahsulotlar va xizmatlar juda ko‘p. Raqobatbardoshlikni oshirib, yildan-yilga o‘z brendini kuchli ishonch asosiga

shakllantirib kelayotgan kompaniyalar namunalarini ko'rib chiqamiz. Quyida 6-rasmda eng daromadli kompaniyalar brendlari ko'rsatilgan.

Top 10 Global Brands by Brand Value (\$m), in 2020

Apple	\$322,999	Y-O-Y Change: +38%
Amazon	\$200,667	+60%
Microsoft	\$166,001	+53%
Google	\$165,444	-1%
Samsung	\$62,289	+2%
Coca-Cola	\$56,894	-10%
Toyota	\$51,595	-8%
Mercedes Benz	\$49,268	-3%
McDonald's	\$42,816	-6%
Disney	\$40,773	-8%

Published on MarketingCharts.com in November 2020 | Data Source: Interbrand

When determining the top 100 most valuable brands each year, Interbrand examines three key aspects that contribute to a brand's value: The financial performance of the branded product and service; the role the brand plays in influencing customer choice; and the strength the brand has to command a premium price or secure earnings for the company.

6-rasm. 2020-yilda dunyodagi eng qimmat 10 ta brendlari [19]

Demak, InterBrand ning so'nggi yillik reytingiga ko'ra, Apple sakkizinchi yildirki, dunyodagi eng qimmat brendlar ro'yxatida birinchi o'rinni egallab, Amazon, Microsoft va Google kabi etakchi kompaniyalar ustunlikni saqlab turibdi. Pandemiya natijasida elektron tijoratning o'sishini hisobga olsak, Amazon 2-o'rinni egallash uchun bir o'rinni egallashi ajablanarli emas. Shuningdek, u 2020-yilda eng tez o'sayotgan brend bo'lib, brend qiymatini 60 foizga oshirib, 200,7 milliard dollarga etdi. Bu o'sishning uchinchi yili bo'lsa-da, bu yilgi qiymat sakrashi hozirgacha eng kattasi hisoblanadi. Google o'tgan yili 2-o'rinni egallagan bo'lsa-da, bu yil brend qiymati 1% ga pasayib, 165,4 milliard dollarga tushib, 4-o'ringa tushib ketdi. Brend qiymati 53 foizga oshib, 166 milliard dollarga etib, uchinchi o'rinni egallagan Microsoft Googledan biroz oldinda. Yaqqol etakchi sifatida Apple ning taxminiy brend qiymati qariyb 38 foizga oshib, 323 milliard dollarga etdi va Google brendi qiymatidan ikki baravar ko'proqqa ko'tarildi. Google eng yaxshi 10 talikka kirgan yagona brend emas edi. O'tgan yilga nisbatan, eng yaxshi 10 ta brenddan faqat bittasi qiymati pasaygan bo'lsa, bu yil o'nta eng yaxshi brenddan oltitasi brend qiymatini yo'qotdi. Coca-Cola (№6) 10% ga pasayish bilan eng katta pasayishni qayd etdi, Tayota (7, -8%), Disney (10; -8%), McDonalds (9, -6%) va Mercedes Benz (8, -3%) ham qiymati pasaygan[16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eng yaxshi 10 ta brendning aksariyati qiymati pasayganligi hozirgi muhitdan dalolat beradi. Joriy yilda 100 ta eng qimmat brendning umumiy qiymati 9 foizga o'sgan bo'lsa-da, qayd etilishicha, brendlarning atigi 43 foizi o'sgan, 57 foizi esa ularning qiymati pasaygan. Ta'kidlanishicha, "kuchli brendlar COVID effekti natijasida kuchliroq bo'lib, bulutga asoslangan texnologiyalar va oqim kabi raqamli transformatsiya tendensiyalarini tarmoqlar bo'ylab tezlashtirdi va texnologiya birinchi brendlarning ustunligini kuchaytirdi"[22].

Mahalliy korxonalar amaliy tajribalarini tadqiq etish natijasida aniqlanadiki, brendni shakllantirish mexanizmini quyidagi elementlardan iborat bo'lgan ma'lum bir algoritmik struktura ko'rinishida aks ettirish va tovar hamda xizmatlar bozoriga qo'llash ahamiyatlidir.

1. Brendning biznes-g'oyasini shakllantirish.
2. Bozorni tahlil qilish: segmentlash, bozor sig'imini va uning segmentlarini baholash, bozor dinamikasi va raqobatchilarni o'rganish.
3. Sifatli tovar yoki xizmat yaratish.
4. Tovarni identifikatsiya qilish va individuallashtirish.
5. Bo'lg'usi brend hududida sotuv hajmini oshirish.
6. Iste'molchi tomon reklama kommunikatsiyalari.
7. Korxonada brend mafkurasi muhimligini shakllantirish.
8. Ko'pchilikning moyilligi va sodiqligiga erishish.
9. Iste'molchi ongida brend g'oyasini mustahkamlash.
10. Iste'molchining brend qimmatiga ishonishi va uni o'z qadriyatlariga tenglashtirishi.
11. Brendni kelgusida boshqarish.

Brending konsepsiyasi ishlab chiqarish har bir korxonaning kelajakdagi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatib, uning mahsulot ishlab chiqarish sotish miqdoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda brandingni qo'llash amaliyotda raqobatbardoshlikni oshirib, iste'molchi uchun sifatli va maqbul mahsulot ishlab chiqarishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://prospero.uz/uz/branding-v-tashkente2>
2. International Journal of Marketing Studies 2016. 8(6):52DOI: 10.5539/ijms.v8n6p52 Muallif Fatos Ukaj Prishtina universiteti
3. Journal of Business Research Volume 69, Issue 12, December 2016, PaГЭС 5662-5669
4. Journal of Business Research Volume 69, Issue 12, December 2016, PaГЭС 5662-5669
5. Employer Branding for Competitive Advantage The Role of Employer Branding in the Creation of Powerful Corporate Brands By Harsh Mishra, Aditi Sharma
6. Doyle, P. (1990), "Muvaffaqiyatli brendlarni yaratish: Strategik variantlar", Journal of Consumer Marketing, Vol. 7 No 2, 5-20-betlar. <https://doi.org/10.1108/EUM0000000002572>
7. Эргашходжаева Ш.Д. "Инновацион маркетинг". Дарслик. –Т.: Иқтисодиёт, 2019.
8. El-Ansary, AI (2006), "Marketing strategies", Европа бизнес шархи 18-сон 4, 266-293-б.
9. <https://doi.org/10.1108/09555340610677499>The 8 types of branding (and how to use them)by Lindsay Kramer

10. <https://avtovsamare.ru/uz/korporativnyi-brening-enciklopediya-marketinga-cto-sostavlyaet-osnovu/>
11. <https://fayllar.org/7-mavzu-innovacion-marketing-tizimida-brening-nazariyasi-kon.html>
12. <https://avtovsamare.ru/uz/brening-ponyatie-cel-process-ponyatie-brenda-cto-oznachaet/>
13. <https://avtovsamare.ru/uz/brening-ponyatie-cel-process-ponyatie-brenda-cto-oznachaet/>
14. <https://blog-datimize-com.cdn.ampproject.org/v/s/blog.datimize.com/5-simple-things-to-remember-about-brand-innovation?>
15. Lee Frederiksen, Ph.D. 10-Step Brand Development Strategy. June 21 2021
16. <https://www.marketingstudyguide.com/four-brand-strategies/>
17. <https://helpisaclickaway.com/brand-strategy-1/startupbonsai.com/branding-statistics>
18. <https://www.interbrand.com/thinking/best-global-brands-2020>

MAMLAKATNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ostonaqulova Gulsaraxon Muxammadyoqub qizi
TDIU, Marketing kafedrasida dotsenti, DSc

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalar eksport salohiyatini oshirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlar bozori BKG tahlil usuli asosida o'rganilgan. O'zbekiston uchun xorijiy mamlakatlar bozoriga kirib borishga qaratilgan marketing strategiyalari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: marketing, marketing tadqiqotlari, eksport, xorijiy bozorlar, BKG matritsasi, Porterning raqobat kuchi modeli

Аннотация

В данной статье рассматриваются научные и методические основы использования инновационных маркетинговых стратегий для повышения экспортного потенциала предприятий. Рынок зарубежных стран изучался на основе метода анализа ВКГ. Для Узбекистана предложены маркетинговые стратегии, направленные на проникновение на рынок зарубежных стран.

Ключевые слова: маркетинг, маркетинговые исследования, экспорт, зарубежные рынки, матрица БКГ, модель конкурентной силы Портера.

Abstract

This article examines the scientific and methodological basis of using innovative marketing strategies to increase the export potential of enterprises. The market of foreign countries was studied based on the BKG analysis method. Marketing strategies aimed at penetrating the market of foreign countries are proposed for Uzbekistan.

Keywords: marketing, marketing research, export, foreign markets, BKG matrix, Porter's competitive power model

KIRISH

Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi va raqobatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyotida bozor munosabatlarining har bir ishtirokchisida o'z iqtisodiy faoliyatini baholash ko'nikmalarini hosil etish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar tuzish, hamkorlarni tanlash, xalqaro marketing tamoyillaridan o'z faoliyatida foydalanish, shular asosida qarorlar qabul qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning, jahon bozorlariga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishning qudratli omili sifatida maydonga chiqdi. Jahon banki xulosalariga ko'ra "Kompaniyalar bozor qanchalik katta bo'lsa, samarali faoliyat ko'rsatish va ko'proq iste'molchilarga erishish rejasidagi keng miqyosli imkoniyatlarga ega bo'lishlarini tan olmoqdalar"[1]. Ushbu holatlar esa milliy kompaniyalar tomonidan xalqaro bozorlarda ko'proq iste'molchilarga ega bo'lishini ta'minlovchi innovatsion marketing strategiyalari ega bo'lishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida korxonalarining xalqaro bozorlarga yoʻnaltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan, jumladan, korxonalarda innovatsion marketing tizimini joriy etish, bozor tadqiqotlarini samarali tashkil etish, milliy kompaniyalar samarali xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqish, global qiymat zanjirida (GVCs) samarali faoliyatni taʼminlash, elektron savdo tizimini xalqaro darajada yoʻlga qoʻyish, milliy brendlarning jahondagi nufuzini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oʻzbekistonda korxonalarining eksport va import munosabatlarini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish masalalari boʻyicha muammoning umumiy tomonlari qator iqtisodchi olimlarimiz tomonidan oʻrganilgan. Ularning ishlari xoʻjalik yuritishning bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi savdo va eksport-import munosabatlarini samarali yuritish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga katta hissa qoʻshgan, jumladan:

N.I.Asqarovning ilmiy izlanishlarida “Oʻzbekiston Respublikasida tashqi savdo va bojxona sohasini uygʻun boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” jarayonlari mavzusida bojxona siyosatining mohiyati, uni samarali boshqarish va iqtisodiy xavfsizlikka yondashuv negizida tashqi savdoni bojxona omili asosida boshqarish va tashqi savdo tarkibini optimallashtirish ishlarini tartibga solish kabi jihatlariga koʻproq eʼtibor qaratilgan[2].

Z.J.Adilovanning «Xalqaro bozorga eksport mahsulotlarini yoʻnaltirishning marketing strategiyasi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida milliy xoʻjalik taraqqiyotida xalqaro marketing oʻrni, uning uslubiy jihatlari, maqsadli bozorlarni tanlashdagi ahamiyati, ayniqsa, ilk bor xomashyo va tayyor mahsulotlarni xalqaro bozorlarga yoʻnaltirishda “milliy marketing”, “eksport marketingi” va “xalqaro marketing” tushunchalari qiyoslangan va zamonaviy tamoyillarga asoslangan uslubiy yondashuvlar taklif etilgan[3].

M.R.Boltabayevning ishlarida esa tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu jarayonlarning marketing konsepsiyasi hamda strategiyasiga binoan boshqarish masalalari chuqur tahlil etilib, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yoʻllari bayon etilgan[4].

Xalqaro bozorga chiqishni rejalashtirayotgan sanoat korxonalari, avvalo, marketing harakatlarini mujassamlantirishi lozim boʻlgan muayyan bozorni tanlashi kerak.

Boshqa koʻplab olimlar tomonidan ham xalqaro bozorlarga kirib borishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilgan.

D.A. Pirs, R.B. Robinsonlar strategiyalarni kompaniya darajasiga koʻra tasniflashni taklif etadi. Boshqaruv strategiyalari, birinchi navbatda, boshqaruv darajalariga korporativ, biznes strategiyalari va funksional strategiyalarga boʻlinadi.[5].

Ilmiy o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, korxonaning tashkiliy tarkibi iste'molchilarning qoniqish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi sababli, odatda, korxonaning tashkiliy tarkibiga katta e'tibor qaratiladi. Korxonaning tashkiliy tarkibi – bu korxonaning o'z iste'molchilarini qanday aniqlashini, mahsulotlarini differensiyalash va taqdim etishni, qaysi jarayonlarni mustaqil amalga oshirishini, resurslarni qanday taqsimlashini, iste'mol qiymatini yaratishni hamda foydaga erishishni aks ettiradi[6].

Korxonaning marketing strategiyasining shakllantirishning so'nggi bosqichi iste'mol qiymatini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Mazkur strategiya elementi korxonaning tomonidan taklif qilinayotgan iste'mol qiymati darajasini (uni yaratishga ketgan barcha xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlashni nazarda tutadi[7].

Modomiki, marketing funksiyasi korxonaning tashqi muhit bilan aloqasini bog'lar ekan, u marketing strategiyani ishlab chiqish jarayonida juda muhim hisoblanadi[8]. Strategik marketing tashqi muhit monitoringi, bozorning maqsadli segmentlarini aniqlash, taklif qilinayotgan mahsulotning zaruriy xususiyatlarini qo'yish va raqobatchilarga nisbatan korxonaning qanday joylashishi borasidagi qarorni ishlab chiqish kabi funksiyalarga javob beradi.

Marketing strategiyalarini ishlab chiqish maqsadli bozor segmentini aniqlash va joylashish strategiyasini ishlab chiqish, iste'molchilar bilan o'zaro munosabatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan va yangi mahsulotlarni rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Marketing dasturlarini ishlab chiqishi oldinga surish, sotish va narx shakllantirish strategiyalarini tanlashni anglatadi.[9]

Mamlakat raqobatbardoshligining asosiy sharti sifatida M.Porter nazariyasida "mamlakatda raqobat qanchalik rivojlangan va xaridorlarning talablari yuqori bo'lsa, bu mamlakat korxonalarining xalqaro bozordagi muvaffaqiyatga erishish ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi, aksincha milliy bozordagi raqobatning kuchsizlanishi, qoidaga ko'ra, raqobat ustunligi kuchsizlanishiga olib keladi"[10];

Shuningdek, strategik marketing nazariyalarida ham marketing innovatsiyalariga kam e'tibor qaratilgan. Korxonaning marketing imkoniyatlari sotilgan mahsulot va xizmatlarning hajmini oshib borishi bilan belgilanadi[11]. Ma'lumotlar to'plash, tarqatish, tahlil qilish va atrof-muhitni saqlash kabilarga asosiy urg'u beriladi[12].

Innovatsion marketing marketing imkoniyatlari va korxonaning raqobatbardoshligi esa o'zaro bog'liq tushunchalar hisoblanadi[13]. Marketing raqobatda ustunlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi, shuningdek, raqobat strategiyasi doirasida esa marketing odatiy rol o'ynaydi.

Marketing imkoniyatlari nafaqat innovatsion rivojlanishga, balki innovatsiyalar bozorida muvaffaqiyatga erishishda ham asosiy yordam beradi. Marketing innovatsiyalari OSLO qo'llanmasiga rasmiy kiritilganligi sababli marketing innovatsiyasiga oid ma'lumotlar to'plash tadqiqotchilarda korxonalarining turli yo'nalishlar bo'yicha izlanishlar olib borishiga turtki bo'ldi. Shuning uchun ham bu boradagi izlanishlarni jahon mamlakatlarida etarli daraja emasligiga ahamiyat qaratish lozim. Marketing innovatsiyalari bo'yicha tadqiqotlarni, asosan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida olib borilganligini alohida e'tiborga olish lozim. Mamlakatimiz olimlari, ayniqsa, AQSHda ham bu borada etarlicha tadqiqotlar olib borilmagan va

deyarli innovatsion marketing strategiyalarni ishlab chiqish va uni amalga oshirishning metodologik asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar etarli emas.

Milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatini amalga oshirish zarur. Bunda, milliy manfaatlar doirasi raqobatli ustunlikni ta'minlashga qaratilib, unda bojxona cheklovlarini bevosita cheklov (proteksionistik) bilan emas, balki bilvosita shakllaridan ichki raqobat muhitini shakllantirish kabi usullardan foydalanish taklif etiladi.

METODOLOGIYA

Marketing strategiyasini ishlab chiqishda eng muhim muammo korxonani foyda olishga yo'naltirish hisoblanadi. Uning echimini topishda jahon tajribasida bir qator strategik tahlil usullari va modellaridan foydalaniladi.

“Boston konsalting guruhi qolipi” orqali bozorda foyda olish, korxonada faoliyat ko'rsatadigan hududlardan eng samarali strategik xo'jalik bo'limlarini tanlash bilan amalga oshiriladi. Bu quyidagicha ifodalangan.

		Nisbiy bozor ulushi	
		yuqori	Past
Nisbiy bozor ulushi	yuqori	“Yulduzlar”	“So'roq belgisi”
	past	“Sog'in sigirlar”	“Itlar”

1-rasm. BKG matritsasi[14]

Birinchi hudud — **“yulduzlar”** (katta talab va bozorda yuqori ulushga erishilgan). Bu hududni e'zozlab, yanada mustahkamlash choralari ko'riladi. Bozordagi ulushni saqlash uchun narxlarni pasaytirish, reklama xarajatlarini ko'paytirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va boshqalar amalga oshiriladi.

Ikkinchi hudud — **“sog'in sigirlar”** (past talab, ammo bozorda firmani ulushi yuqori). Bu hududga qattiq nazorat o'rnatiladi.

Uchinchi hudud — **“qiyin tarbiyali bolalar”** (talab yuqori, ammo bozorda ulush kam). Bu hudud imkoniyatlarini o'rganish va “yulduzlar” hududi darajasiga ko'tarilishi ehtimoli bormi yoki yo'qmi? Kerak bo'lsa, harakatni ko'paytirish zarur.

To'rtinchi hudud — **“itlar”** (past talab va bozorda kam ulush). Agar bunday hududni egallab turishga keskin sabab bo'lmasa, undan qutulish kerak.

SWOT tahlil – marketing tahlilining oddiy va keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. SWOT tahlil quyidagicha tavsiflanadi:

- S (STRENGTHS) – firmaning kuchli tomoni;
- W (WEAKNESSES) – firmaning kuchsiz tomoni;
- O (OPPORTUNITIES) – imkoniyatlari;
- T (THREATS) – tazyiqlar.

Yuqoridagi tahlil usullaridan samarali foydalanish asosida korxonalar eksport marketing strategiyasini yaratishi va uni amalga oshirish uchun innovatsion imkoniyatlardan foydalanishi mumkin.

Fikrimizcha, BKG tahlil usullaridan foydalanish asosida korxonalar uchun maqsadli segmentga yoʻnaltirilgan strategiyalarni belgilash imkoniyati mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

BKG tahlil usullaridan foydalanish asosida Oʻzbekistonning asosiy eksport qiluvchi mamlakatlarini istiqbolda qanday strategiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi boʻyicha vazifalar belgilash va taktik maqsadlarni amalga oshirish boʻyicha tavsiyalar berish mumkin. BKG tahlil uchun Oʻzbekiston Respublikasining eksport qiluvchi va jami Oʻzbekistondan import qiluvchi 10 ta mamlakat klaster tahlil natijalarida aniqlangan guruhlar boʻyicha 1-jadval maʼlumotlarini olamiz. 2022-yilda tanlangan mamlakatlar boʻyicha jami eksport ulushi 60 foizni tashkil etadi.

1-jadval maʼlumotlariga koʻra Oʻzbekistonning asosiy eksport qiluvchi mamlakati Rossiya boʻlib, 2018-yilda jami tanlab olingan 10 mamlakatlar boʻyicha jami eksport 60 foiz ulushga ega boʻlsada, 2022-yil bilan taqqoslanganda 1,4 foizga kamayish kuzatilgan. Ushbu holatga, asosan, eksport geografiasini kengayib borishi sabab boʻlgan. Oxirgi 5 yil mobaynida Xitoy bilan tashqi savdo operatsiyalarida kamayish tendensiyasi kuzatilgan. 2018-yil Oʻzbekiston eksportining 19,4 foizi Xitoyga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2022-yilda bu koʻrsatkich 11,4 foizni tashkil etgan.

1-jadval

Oʻzbekiston Respublikasining eksport qiluvchi mamlakatlar boʻyicha BKG tahlil uchun maʼlumotlar¹


Hamkor davlat	2018-yildagi eksport, ming AQSH dollari	2022 yildagi eksport, ming AQSH dollari	2022-yildagi bozor ulushi, %	Bozor ulushining 2010-yilga nisbatan oʻzgarishi, %
Rossiya	1636681	2599858	17,0	2,02
Xitoy	2120927	1753107	11,5	-7,95
Turkiya	865828	1457562	9,5	1,61
Qozogʻiston	1219611	1251475	8,2	-2,98
Qirgʻiziston	251150	926870	6,1	3,76
Afgʻoniston	467087	524958	3,4	-0,84
Tojikiston	136940	392713	2,6	1,31
Turkmaniston	35231	132431	0,9	0,54
Polsha	36359	127587	0,8	0,50
Ozarbayjon	30152	126819	0,8	0,55

Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda BKG matritsasi asosida strategik yoʻnalishlar belgilash boʻyicha eksportdagi ulushi yuqori boʻlgan mamlakat boʻyicha 2-rasmda keltirilgan matritsani olish mumkin.

Oʻzbekistonning eksport bozorlarini segmentlash boʻyicha BKG matritsasi dan maʼlum boʻlmoqdaki Qirgʻiziston, Tojikiston, Afgʻoniston, Ozarbayjon, Polsha va Turkmaniston mamlakatlari ikkinchi hudud — “sogʻin sigirlar” yaʼni past talab, ammo

¹ Oʻzbekiston Respublikasi statistika qoʻmitachi maʼlumotlari asosida tuzilgan

bozorda firmani ulushi yuqori bo'lgan hududdan joy olgan. Ushbu holat esa O'zbekiston uchun qattiq nazorat o'rnatiladigan hudud sifatida qaralishi lozim.



2-rasm. Mamlakatlar bo'yicha BKG matritsasi¹

Mamlakat uchun birinchi hudud — “yulduzlar” sifatida Rossiya va Turkiya bozorlaridir. Ushbu bozorlarda katta talab va bozorda yuqori ulushga erishilganligi bilan izohlash mumkin. O'zbekiston tomonidan ushbu mamlakatlar bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va doimiy ushbu hududda ushlab turish bo'yicha strategik hamkorlik o'rnatilishi talab etiladi. Bozordagi ulushni saqlash uchun boj ta'riflarini ushbu mamlakatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqish, narxlarni pasaytirish, bojxona va logistika muammolarini hal etish, transport va aloqa tizimini samarali tashkil etish, ushbu hududlarda reklama xarajatlarini ko'paytirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va boshqalar amalga oshirilishi lozim.

BKG matritsasidan ma'lum bo'lmoqdaki, yulduzlar safidagi mamlakatlar soni atigi 2 tani tashkil etmoqda va aksariyat mamlakatlar uchinchi hudud — “qiyin tarbiyali bolalar” guruhiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, Qozog'iston va Xitoy kabilar shular jumlasidandir. Ushbu mamlakatlar O'zbekistonning eksport qiluvchilari tomonidan samarali o'zlashtirilayotgan bo'lsada, raqobatning yuqoriligi uchinchi segment sifatida qaralishini yuzaga chiqarmoqda. Ushbu hududlar uchun samarali strategik maqsad hudud imkoniyatlarini o'rganish va “yulduzlar” hududi darajasiga ko'tarilishi ehtimoli bormi yoki yo'qmi degan savollarga javob berishdir. Fikrimizcha, ushbu segmentlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun marketing bozorlarda maqsadli marketing tadqiqotlarini o'tkazilishi, har bir tovar guruhi bo'yicha aniq yo'naltirilgan o'sish strategiyalaridan foydalanish lozim.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Toʻrtinchi hudud guruhidan qisman Afgʻoniston joy olmoqda. Ushbu mamlakatlarning eksport bozorida talabning pastligi va bozorda kam ulushga ega ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Biroq ushbu mamlakatlar bozoridagi shiddatli raqobat, mamlakatda bozor ulushini oshirishga yoʻl bermaydi. Fikrimizcha, bunday hududni egallab turishga keskin sabab boʻlmasa, undan qutulish va asosiy eʼtiborni “qiyin tarbiyali bolalar” guruhiga yoki Rossiya bozorini yana qayta tiklashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

“Porterning umumiy strategik modeli”da korxonalar barcha imkoniyatlarini bozordagi bir segmentga qaratadi, tovar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish evaziga mahsulotga past baho belgilab isteʼmolchilarni koʻproq jalb etadi va sotish hajmini oshiradi. Boshqa holatda esa raqobatchilar yoʻq bozorni yangi tovar assortimenti bilan egallab oladi.

M.Porter 3 xil asosiy raqobatli strategiyalarni ajratib koʻrsatgan:

1. Xarajatlar boʻyicha ustunlik. Bunda tovarga raqibga nisbatan pastroq narx qoʻyish hisobiga yuqori bozor ulushini egallash maqsadida xarajatlarni minimallashtirishga moʻljallanadi.

2. Differensiatsiya – raqiblar taklifi oldida ustunlikka ega boʻlgan mahsulot ishlab chiqarishga va marketing dasturiga moʻljallanadi.

Differensiatsiyaning 4 ta yoʻnalishi mavjud:

- tovar differensiatsiyasi;
- servisni differensiatsiya;
- xodimlar differensiatsiyasi;
- imij differensiatsiyasi.

3. Fokuslash (konsentratsiya) – butun bozorga emas, balki maxsus bozor segmentiga noyob savdo taklifi ishlab chiqish yoʻli bilan moʻljallanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Barchaga maʼlumki, yangi bozorlarga kirib borish eksport qiluvchi mamlakatlar uchun innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish Oʻzbekistondagi eksport qiluvchi mamlakatlar uchun samaralidir:

Oʻzbekiston korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati amaliyotiga asoslanib, eksport strategiyasi doirasida tashqi bozorlarning turlariga va korxonalar joylashgan joyda rejalashtirish bosqichiga bogʻliq ravishda mahsulotlarni ilgari surish uchun marketing vositalariga asoslangan strategik harakatlarning eng koʻp mos keluvchilari bir qator strategiyalarni koʻrishimiz mumkin.

Innovatsion strategiya — bu allaqachon tanish boʻlgan yangi mahsulot bozoriga kirish va uni taʼminlashning bir variantidir, bu strategiya mahsulotlarni ilgari surish va noyob xususiyatlarga ega yangi mahsulotlarni ishlab chiqish boʻyicha marketing rejasini amalga oshirishga yoʻnaltirish orqali amalga oshiriladi. Bozordagi brendning ishlab chiqaruvchilarning boshqa sanoat mahsulotlari bilan tanish boʻlgan isteʼmolchilarga yangi mahsulotlarni yanada muvaffaqiyatli taklif qilish imkonini beradi. Ushbu misol Gʻarbiy Yevropa bozori uchun odatiy boʻlib, ular uchun etkazib

beruvchining nomi va tajribasi, mahsulot sifati va takomillashtirilgan texnologik va iqtisodiy xususiyatlarga ega yangi uskunalarni olish imkoniyati muhimdir.

Eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi — bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy guruhiga aloqasi bo‘lmagan, ammo texnik va texnologik moslikni saqlab qoladigan korxonalar mahsulotlarini ishlab chiqarish dasturiga kiritishdir. Bozorga kirishning ushbu usulidan foydalanish Afrika va neft eksport qiluvchi mamlakatlarida o‘z mahsulotlarini sotish uchun o‘zlarining eksport strategiyalarining maqsadi bo‘lgan kompaniyalar tomonidan keng qo‘llaniladi.

Internatsionallashuv strategiyasi — nafaqat mahsulotlarni eksport qilish orqali, balki chet elda ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish orqali tashqi bozorlarni rivojlantirish, xususan ushbu bozorda keyinchalik sotish uchun mahsulot tannarxidagi transport tarkibiy qismini kamaytirish va mavjud savdo to‘siqlari hamda cheklovlarni chetlab o‘tish imkonini beradi. Bunday holatlarni, asosan, xalq iste‘mol tovarlari va hunarmandchilik tovarlari uchun amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Sementatsiya strategiyasi — korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni maksimal darajada to‘yinganligi uchun yashirin imkoniyatlarning mavjudligi bilan tavsiflangan bozor segmentini tanlashga asoslangan. Ushbu turdagi strategiya tez rivojlanayotgan sanoat bozorlariga xos bo‘lib, mamlakatlarda iste‘molchilarning turli segmentlari bilan ishlashni nazarda tutadi. So‘nggi 3-5 yil ichida Osiyo mamlakatlari hisoblangan Hindiston, Xitoy, Eron kabi mamlakatlar uchun mosdir.

Hamkorlik strategiyasi — bu qo‘shma korxonalar bo‘lib, umumiy brend yaratish orqali xorijiy sheriklar bilan yaqin hamkorlik qilishni nazarda tutuvchi strategik yo‘nalishdir. Bunda tashqi sheriklar bozorining xususiyatlari va sherikning korxonalar aktivlari hamda mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu strategiyalar Yaqin Sharq bozorida eksport strategiyasini amalga oshirish uchun zarurdir, bu mahalliy kompaniya orqali ishlashning zarur sharti bilan bog‘liq va shuning uchun Turkiya, BAA, Eron va Pokiston kabi mamlakatlar uchun qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda sherikning savdo markasidan foydalanish iste‘molchilarning xorijiy mahsulotlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi va transport hamda bojxona xarajatlarini kamaytiradi, chunki aksariyat arab mamlakatlarida erkin iqtisodiy zonalar keng tarqalmoqda, bunda xorijiy ishlab chiqaruvchilar 3 yil soliqdan ozod qilish va importga bojxona to‘lovlarini bekor qilish bilan bog‘liq maksimal imtiyozlarga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Development Report 2020. Global Value Chains: Trading for Development. (Working title). January 11, 2019. <http://pubdocs.worldbank.org/en/124681548175938170/World-Development-Report-2020-Concept-Note.pdf>

2. Асқаров Н.И. Ўзбекистон Республикасида ташқи савдо ва боғжона соҳаларини уйғун бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси, 08.00.13 Менежмент ва

3. маркетинг. 2016 й. ТДИУ кутубхонаси.

4. Адылова З.Дж. Халқаро бозорга экспорт маҳсулотларини йўналтиришнинг маркетинг стратегияси. Докторлик диссертацияси. 08.00.13 Менежмент ва маркетинг. 2008 й. ТДИУ кутубхонаси.
5. Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент: ТДИУ, 2005.–35 б.
6. Кочетков С.В. Управление развитием инновационного потенциала промышленных предприятий : дис. на соиск. уч. степ. д-ра экон. наук : 08.00.05 / С.В. Кочетков. — Санкт-Петербург: ГОУВПО СПб ГУЭиФ, 2011. — 332 с.
7. Adrian J. Slywotzky, Value Migration (Boston, MA: Harvard Business School Press, 1996), 4-бет.
8. Shelby D. Hunt, Robert M. Morgan, “The Comparative Advantage Theory of Competition”, Journal of Marketing, April 1995, 1-15 бетлар.
9. George S. Day, Strategic Market Planning (St. Paul, MN: Harper & Row, 1974), 3-бет.
10. David W. Cravens, Strategic Marketing, 6th edition. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2000, 50-бет.
11. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/ Пер. с англ. — М.: Альпина Biznes books, 2005. – 454 с;
12. O’Driscoll A., Carson D. & Gilmore A. (2000). Developing marketing competence and managing in networks: a strategic perspective. Journal of Strategic Marketing, 8(2), 183-196
13. Sinkula J. M. (1994). Market information processing and organizational learning. The Journal of Marketing, 35-45.
14. Weerawardena J. (2003). The role of marketing capability in innovation-based competitive strategy. Journal of Strategic Marketing, 11(1), 15-35
15. Эргашходжаева Ш.Дж., Қосимова М.С., Юсупов М.А., Самадов А.Н., Шарипов И.Б. Маркетинг. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2018. 359 б.

IMPROVING METHODOLOGIES FOR INCREASING EXPORT COMPETENCE OF SMALL BUSINESSES AND PRIVATE ENTERPRISES

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

*PhD, Associate Professor, Head of Research and Innovation
Tashkent Institute of Management and Economics*

Karriev Karimbergan Safarboy o'g'li

*Assistant of Business administration
Tashkent State University of Economics*

Abstract

This work is devoted to the development and improvement of the methodology for improving export competence of small business and private enterprise. In the present context of globalization and integration of economies, the relevance of this topic is indisputable, since exports are a key element of sustainable development and business competitiveness. The work examines the main aspects affecting the success of export operations among small businesses and private entrepreneurs, and analyses existing methods and suggests new approaches to improve them.

Keywords: export, small business export strategies, private enterprises export development, export readiness, market research, export planning, international marketing, trade promotion, financial support, export regulations, export documentation, networking, export promotion agencies.

Аннотация

Данная работа посвящена разработке и совершенствованию методики повышения экспортной компетентности субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. В современных условиях глобализации и интеграции экономик актуальность данной темы неоспорима, так как экспорт является ключевым элементом устойчивого развития и конкурентоспособности бизнеса. В работе рассматриваются основные аспекты, влияющие на успешность экспортных операций среди малых бизнесов и частных предпринимателей, а также анализируются существующие методики и предлагаются новые подходы к их улучшению.

Ключевые слова: экспорт, экспортные стратегии малого бизнеса, развитие экспорта частных предприятий, готовность к экспорту, исследование рынка, планирование экспорта, международный маркетинг, продвижение торговли, финансовая поддержка, правила экспорта, экспортная документация, создание сетей, агентства по продвижению экспорта.

Annotatsiya

Mazkur maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga bag'ishlangan. Iqtisodiyotning globallashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish uslubiyatini ishlab chiqish dolzarb sanaladi, chunki biznes raqobatbardoshligining asosiy elementi eksportni barqaror rivojlanishtirish hisoblanadi. Maqolada kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik subyektlari o'rtasida eksport operatsiyalarining muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi asosiy jihatlar o'rganilib, mavjud usullar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: eksport, kichik biznes eksport strategiyalari, xususiyl tadbirkorlik eksportini rivojlantirish, eksportga tayyorlik, bozorni o'rganish, eksportni rejalashtirish, xalqaro marketing, savdoni rag'batlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksport qoidalari, eksport hujjatlari, tarmoq yaratish, eksportni rag'batlantirish agentliklari.

INTRODUCTION

In modern enterprise management practices, this principle is also widely used. Its relevance is related to the need to take into account non-quantitative, non-financial factors into account in management decisions. For the first time, the idea of a balanced approach to enterprise management was formulated by Robert Kaplan, Professor of Business School, and David Norton, American Management Consultant. They have developed fundamental theoretical and methodological aspects of new approaches in management based on a balanced score card (BSC). These ideas have been developed in the work of their followers of Rampersad X., Nivera P.R. Prisker A. and other foreign and domestic scientists. MTSP is a management system that provides feedback between internal business processes and external factors, which, along with financial indicators, provides data that reflect customer satisfaction, internal business processes and the company's ability to develop and grow. The methodological basis for the application of the MTSP involves a consistent solution to three problems. The first objective is to define the parameters of strategic objectives. The second objective is to allocate responsibility for achieving the goals. The third is to define tools for achieving strategic objectives.

LITERATURE OF REVIEW

Considering the theoretical justification and methodological principles of strategic management of branches or other aggregates of the national economy complex, it is possible to conclude that insufficient coverage of the benefits of applying the principle of balance. In our view, such a priority area as small business needs to be used, which will help to overcome negative trends in its development, to form a balanced support system to create an enabling environment for sustainable entrepreneurship development. We will develop the main theoretical and methodological aspects of the use of the principle of balance in supporting small business and in building supporting infrastructure. To achieve this goal, the following objectives, as set out in the balance system reviewed, must be consistently addressed:

- Defining strategic objectives for small business development and a system of quantitative indicators reflecting the effectiveness of support;
- Consideration of possible options for achieving the chosen objectives;
- Preparation of a hierarchical structure for the implementation of the goals.

According to previous studies, strategic objectives for small business development include increasing the number of enterprises, increasing the share of gross

domestic product (GDP) to developed countries and ensuring employment, maintaining and developing priority areas, improving the business environment. The strategic objectives listed above can be seen as a system of interrelated tasks which are not different from each other, and characterize various aspects of the main objective of maintaining and developing small businesses.

RESEARCH METHODOLOGY

To assess the dependence of small business development on external and internal factors, we propose a methodology that takes into account $P = (P_1, \dots, P_n)$ the impact of all significant factors, given their proportion. Each indicator has a b_i weight factor reflecting its impact on the phenomenon under study. In order to harmonize the data obtained, preliminary rationing of weight factors must be carried out. Thus, a system of input parameters sufficient to obtain an evaluation is being formed for subsequent analysis. The balance measure will be set as a function B of the selected parameters seeking 1 with absolute balance and 0 with total balance (formula 1).

$$B = \sum_{i=1}^n b_i (P_1, P_2 \dots P_n) \quad 0 \leq B \leq 1 \quad (1)$$

In order to achieve a balanced support infrastructure, we will form a system of indicators of factor variables P .

The principles recommended for the MTSP should be guided in selecting indicators: determining criticality of the quality of balance assessment; including approximately the same amount of data for each of their evaluated areas; ensuring acceptable labor costs for evaluation.

We suggest that, in order to assess the support infrastructure, we develop a system of indicators for P_i corresponding to the typing of infrastructure support we have previously proposed:

P_1 – Coordination and legislative infrastructure;

P_2 – Financial Support Infrastructure;

P_3 – Infrastructure of property support;

P_4 – Information and Advisory Support Infrastructure;

P_5 – infrastructure of training, development of skills;

P_6 – support infrastructure to meet current service objectives;

P_7 – Infrastructure for participation in public procurement and contracts.

The method of expert evaluations is proposed to quantify the selected indicators. Experts assess the importance of indicators on the selected evaluation scale, followed by rating. If all parameters are considered to be equivalent, the binary system of 0 evaluations can be used, the parameter does not have a significant impact, and 1 is a significant effect.

The next phase is to evaluate the effectiveness of the selected support infrastructure parameters. The evaluation of “0” corresponds to a situation where the infrastructure element is important and has a great impact on small business, but its resource support and implementation is not available. The “1” evaluation corresponds to the optimal level of development of the appropriate support infrastructure, which

provides the most favorable environment for small business development. Then formula (1) will take the following formula (1) to take into account the substitutions and transformations:

$$B = \frac{\sum_{i=1}^n b_i * P_i}{\sum_{i=1}^n P_i} \quad (2)$$

The denominator in formula (2) in the binary system of parameters is equal to the number of meaningful parameters n , and the numerator is the amount of estimates of the actual status of the selected parameters, which significantly simplifies the formula:

$$B = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n b_i \quad (3)$$

Based on the expert assessments received on formula (3), a balance of support infrastructure is analyzed. The numerical value B obtained serves as a quantitative reference point for the balance of infrastructure support provided. We introduce the concept of a balance factor equal to the value B . In real conditions, we should not expect to obtain the B balance factor close to the threshold. However, the value $B \leq 0.5$ is a signal that more than half of the infrastructure components are underdeveloped and need to be strengthened. In sample surveillance, we interviewed 500 experts, representatives of small business enterprises in the service sector, which indicates the representation of the sample. The survey was attended by the respondents - staff of private service companies in the field of positions: CEO, Deputy Director, Executive Director, Marketer, Development Manager, Financial Director, etc. The sample processing resulted in the average estimates presented in table 1.

Parameter P7 excludes further calculations for the service sector. Thus, we calculate the balance factor by formula (3) to be equal to 0.41:

Table 1

Evaluation of the way in which business regulations are regulated

Name of the parameter evaluated P	Significance	Efficiency b
P_1 – coordination and legislative infrastructure	0,83	0,37
P_2 – financial Support Infrastructure	0,92	0,63
P_3 – infrastructure of property support	0,94	0,77
P_4 – information and Advisory Support Infrastructure	0,82	0,47
P_5 – training infrastructure, training development	0,80	0,03
P_6 – support Infrastructure to address current service challenges	0,67	0,17
P_7 – infrastructure for participation in public procurement and contracts	0,23	0,05

$$B = \frac{1}{6} (0,37 + 0,63 + 0,77 + 0,47 + 0,03 + 0,17) = 0,41$$

RESULTS AND DISCUSSION

The results and analysis of the work can be useful for practical applications in small business and private enterprise management to increase their export activity and efficiency in international markets.

Calculations have shown a violation of the principle of balance in the formation of support infrastructure, and a number of measures should be developed and implemented to eliminate the imbalances identified. We will analyze in detail each parameter to identify deficiencies.

P_1 – coordination and Legislative Infrastructure. This support link is the leading and determining part of the system. There are many criticisms on the federal support program for the MP [1].

P_2 – financial support infrastructure is a significant component of the infrastructure for the services sector. According to the researchers, there are sufficiently high entry barriers in the service market, which are necessary for the initial purchase of equipment, selection of premises, obtaining permits, training of staff [2]. Funds from the State budget for financial support increased in 2022. several times compared to the pre-crisis period of 2019. Unfortunately, the growth of budget expenditures is not proportional to the growth of the Small Entrepreneurship entities. Researchers were unable to find a statistically significant relationship between financial support and MP development. The following likely causes of inefficiency are: the distortion of financial support measures from MP entities towards support infrastructure organizations, which delays a substantial part of their cash or affiliated structures; the use of predominantly direct financial support methods. The Republic of Uzbekistan uses very poor tools, usually subsidized, which is ineffective from Western experience; the lack of an effective mechanism for the removal of non-priority activities from financial assistance. However, the estimate of 0.66 indicates that the financial support infrastructure is sufficiently efficient and that there is a substantial reserve to improve its performance.

P_3 – the property support infrastructure is particularly important for the service sector, since a license for a particular activity is issued for a specific premise. In this regard, enterprises are forced to select premises that meet the requirements, prepare them for work, and in the event of a refusal to extend the lease contract, they are subject to substantial costs. This results in unequal competitive conditions compared to municipal institutions using premises on the balance of the State. The parameter was the highest score of all - 0.77.

P_4 – information and Advisory Support Infrastructure. Information resources such as the State portal of small and medium-sized enterprises, regional structures - the sites of the Department of Science, Industrial Policy and Enterprise, the State Budget Institution of Small Business of Tashkent, the information resources of associations, unions, etc. can be allocated. The total number of remote access resources and consulting centers in Tashkent exceeds one hundred. However, business representatives are dissatisfied with the quality of awareness of support measures, low interest, mistrust of authorities and information they declare. The reason for this is the insufficient relevance and relevance of the 0.47 score is due to the poor quality of the

information provided and its inconsistency with the needs of small business in the service sector.

P_5 – training infrastructure, training development. As the heads of private business in the service sector point out, “training fees for municipal personnel are made from budgetary funds and private sector colleagues have to pay themselves or study at the expense of the employer. The State does not have support”. Such infrastructure could provide substantial support to small businesses, but at this stage, the needs of service enterprises are completely ignored and the score of 0.03 is close to the minimum.

P_6 – support Infrastructure to address current service challenges. This category includes infrastructure ru, which is potentially capable of helping small business in the service sector to solve its specific problems. As noted earlier, the main factors that impede the development of private enterprise include the modern licensing procedure, the activities of the sanitary services and similar administrative structures, frequent changes in standards. Small Businesses are in urgent need of support in this direction, which is not currently provided, as evidenced by a score of 0.17 [4].

Divisions dealing with and regulating the implementation of legislation should be provided. Domestic researchers have offered their options, such as the establishment of working groups on the concept of entrepreneurship development.

Financial support infrastructure needs to shift the focus from direct allocation of financial resources to promoting small business activities, transparency and accountability of allocated resources, and to keeping the proportions in their distribution. The priority areas for the development of financial support infrastructure are: expansion of concessional lending, guarantees and guarantees; development of investment programs; development of venture and investment funds network; establishment of bodies for improving and monitoring budget expenditures. Property Support Infrastructure is a critical factor for service enterprises. The provision of preferential rental rates, the ransom of premises on concessional terms and the organization of special programs is relevant for the private sector [3].

Infrastructure for training and retraining and assistance infrastructure in current issues for services has been lowered and is virtually absent. We therefore propose the following infrastructure elements: the organization, on the basis of existing training centers and retraining on concessional terms, of small business service professionals; the development and implementation of training methods that allow for retraining, evening and weekend groups, possible distance education; the limitation at the federal level of the possibility of unreasonable and often amending legislation and regulatory activities while respecting the principle of inadmissibility of organizations; the establishment of regional advisory centers for organization assistance in preparing documents, issuance of conclusions, provision of services on preferential terms for small business; the introduction of a duty to inform small business entities of the changes that are being adopted.

CONCLUSIONS AND PROPOSALS

Some conclusions can be drawn from this study. In order to work effectively, the Service Infrastructure Support System, we propose that the principle of balance be used in defining and achieving strategic objectives. There is currently a distortion and imbalance in the formation of infrastructure support for services. A number of measures we have proposed to build a balanced support infrastructure: the establishment of a single independent body for regulating and protecting the rights of small business in the service sector; the shift from subsidies to incentive elements - investment and venture capital funds, concessional lending structures and guarantees and guarantees; the establishment of business incubators for service enterprises; the development of regional property support programs enables the support of small enterprises. In our view, the establishment of an institution of public-private partnership in the field of services is promising, and the development of an institution of social-private partnership on its basis [5].

REFERENCES

1. Stepochkina, E. A. Dynamic balance and indicative planning/E prospects. A. Stepochkina // Bulletin of Volgograd State University. Series 3: Economics. Environment. - 2012. - No. 1. - Pp. 164-170.
2. Small and medium-sized enterprises: legal security: Monograph / I.V. Ershova, L.V. Andreeva, A.G. Bobkov [and others]; p. ed. doct. legal. science, Prof. I.V. Yershov. - M.: Jurisprudence ID, 2014. - 460s.
3. Kostina L.G. Information as a factor in small business infrastructure: diss. ... Candidate Econ. science: 08.00.05 / The Bostin Lyudmila Gennadyevna. - Kirov: 2002. - 187 s.
4. Baranov D.N. Elements of the financial mechanism of the enterprise for the provision of services of cleaning// Economics and entrepreneurship. - 2015.- No. 2015. No. 2 (55). Pp. 635-641.
5. Rudenko L.G. Priority forms of financial support for small entrepreneurship at the present stage of development of the Russian Economy Bulletin of the University of Moscow. S.Y. Witt. Series 1: Economics and management. - 2014. - No. 3(9). - Pp. 26-32. [Electronic resource]. URL: http://www.muiv.ru/vestnik/pdf/eu/eu_2013_4_26_32.pdf

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI

Eshpulatova Muazzam Barnoevna
TDIU, tayanch doktorant

Annotatsiya

Raqamli asrda ijtimoiy media axborot va bilimlarni tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonlik odamlarning iqtisodiy farovonligining asosiy omili bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar sezilarli ta'sir ko'rsatadigan sohalardan biriga aylandi. Ushbu maqola ijtimoiy media odamlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qanday yordam berishi mumkinligini o'rganadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy soha, PESTLE tahlili, tahdid, kibrxavfsizlik

Аннотация

В эпоху цифровых технологий социальные сети играют важную роль в распространении информации и знаний. Финансовая грамотность, являясь ключевым фактором экономического благополучия людей, стала одной из областей, где социальные сети оказывают значительное влияние. Эта статья исследует, как социальные сети могут способствовать повышению финансовой грамотности населения.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, социальная сфера, анализ PESTLE, угрозы, кибербезопасность

Abstract

In the digital age, social media plays a vital role in disseminating information and knowledge. Financial literacy, being a key factor in people's economic well-being, has become one of the areas where social media has a significant impact. This article explores how social media can contribute to improving the financial literacy of the population.

Keywords: Financial literacy, social sphere, PESTLE analysis, threat, cyber security

KIRISH

Raqamli asrda ijtimoiy media axborot va bilimlarni tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonlik odamlarning iqtisodiy farovonligining asosiy omili bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar sezilarli ta'sir ko'rsatadigan sohalardan biriga aylandi. Aholi turmush farovonligiga ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi bilan bir qatorda moliyaviy savodxonligi darajasi ham katta tasir ko'rsatadi. Moliyaviy savodxonlik nafaqat fuqarolarga moliyaviy qarorlarni oqilona qabul qilish vositalarini beradi, balki iqtisodiy faollik va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2023-yil 27-fevral kuni bo'lib o'tgan tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishida moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasiga e'tibor qaratib, "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa

miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak", deb ta'kidladilar.

Darhaqiqat, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yuqori ahamiyat kasb etadi. Bugungi moliyaviy muhit tobora murakkab va dinamik bo'lib, odamlar turli xil moliyaviy mahsulotlar, investitsiya imkoniyatlari va texnologiyalarga duch keladilar. Bu ularning o'z mablag'larini muvaffaqiyatli boshqarish va asosli qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy jarayonlarni chuqur tushunishni talab qiladi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda kuchayib borayotgan firibgarlikdan himoyalanih va moliyaviy xatolarning oldini olishda moliyaviy savodxonlik yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlikka ega shaxslar o'zlarini moliyaviy firibgarliklardan samaraliroq himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular potensial tahdid va yolg'onni o'z vaqtida anglash va unga kerakli choralarni ko'rsa, moliyaviy savodxonlikning etishmasligi natijasida jiddiy moliyaviy xatolarga, jumladan, ortiqcha qarzga, yomon jamg'armalarga va noto'g'ri aktivlarga sarmoya kiritishga olib kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlik iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi, chunki fuqarolar moliyaviy resurslardan yaxshiroq foydalanishlari, tadbirkorlikka sarmoya kiritishlari va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib uning natijalar amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini taminlashning ilmiy metodik asoslari yaratilib ular keng omma e'tiboriga havola etilmoqda.

Jumladan uzoq xorijiy olimlardan[2][3][4], Bashirova M., Granilshikov A., Natrobina O., Ennamorato A., Lusardi A., Kolin K., Shon S., Robert Sh., Margaret M, va boshqalar, Tereza K., Oliviya M. va boshqalar o'zlarining ilmiy qarashlarida moliyaviy savodxonlikning ayrim masalalarini tdqiq etishgan.

Ennamorato A. va Lusardi A.lar moliyaviy savodxonlikka ta'lim dasturlarining shaxslarning xulq-atvori va farovonligiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borishdi. Ular o'z asarlarida ta'limning inson hayotining turli davrlarida moliyaviy qarorlarga qanday ta'sir qilishiga e'tibor berishadi. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy ta'lim dasturlarini erta amalga oshirish balog'at yoshidagi moliyaviy ko'nikmalarni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Kempbell va Spayser ijtimoiy-iqtisodiy holat moliyaviy savodxonlikka qanday ta'sir qilishini o'rganishadi. Ularning ishi katta aholi ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi va noqulay hududlarda moliyaviy ta'limga kamroq kirish moliyaviy xabardorlik darajasining pasayishiga va moliyaviy qarorlarning yomonlashishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Shiller moliyaviy qarorlar qabul qilishning psixologik jihatlarini o'rganadi. U ishida ko'pincha xulq-atvor iqtisodiyotidagi irratsionallik mavzusiga to'xtalib o'tadi.

Moliyaviy xulq-atvorning psixologik jihatlarini, masalan, idrok etish va haddan tashqari o'ziga ishonchni ko'zda tutuvchi ta'lim dasturlari muhimligini ta'kidlaydi.

Miller va uning hamkasblari turli mamlakatlarda moliyaviy ta'lim samaradorligini baholash bo'yicha keng ko'lamli xalqaro tadqiqot o'tkazdilar. Ular hatto qisqa muddatli ta'lim tadbirlari ham moliyaviy savodxonlik darajasini sezilarli darajada, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yaxshilashi mumkinligini aniqladilar.

Kusiardo va Mitchellning tadqiqotlari moliyaviy ta'limning nafaqaxo'rlarning xulq-atvori va moliyaviy barqarorligiga uzoq muddatli ta'sirini baholaydi. Ularning ta'kidlashicha, erta hayotda olingan ta'lim keyingi hayotda moliyaviy xatti-harakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu tadqiqotlar moliyaviy savodxonlik ko'p qirrali hodisa ekanligini, jumladan, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy holat, ta'lim va psixologik jihatlariga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ta'lim dasturlari maksimal samaraga erishish uchun aholining turli guruhlariga ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Mahalliy olimlar[5][6][7][8] tomonidan ham moliyaviy savodxonlikni oshirishning muhim jihatlari keng tadqiq etilib kelin moqda, jumladan Dusmuxamedov O. S., Xojaev A., Akramova Sh.G. Hakimov O.M. kabi mahalliy olimlar o'zlarining ilmiy qarashlari orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning turli yo'nalishlarini taklif etishgan

METODOLOGIYA

Tadqiqot turli manbalar, jumladan, ilmiy maqolalar, tashkiliy hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar tahliliga asoslangan. Sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari, jumladan, ijtimoiy media postlarining kontent tahlili va ularning moliyaviy xabardorlik darajasini baholash uchun foydalanuvchi so'rovlari qo'llanildi.

PESTLE ijtimoiy modelidan foydalanish O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini tekshirish va oshirishga ta'sir etuvchi asosiy tashqi omillarni aniqlash imkonini beradi. Bu siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik jihatlarni hisobga olgan holda yanada samarali strategiya va dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy tarmoqlarning o'sishi muhim global tendensiya bo'lib qolmoqda. 2023-yilda dunyo bo'ylab taxminan 4,95 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo'lgan, bu o'tgan yilga nisbatan 7,07 foizga ko'pdir. Bu o'sish kengroq tendensiyaning bir qismi bo'lib, 2015 yildan beri ijtimoiy media foydalanuvchilari soni ikki baravar ko'paydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish turli mintaqalarda juda farq qiladi. Misol uchun, 2024 yil boshida Shimoliy Yevropa ijtimoiy tarmoqlarning eng yuqori kirib borish darajasini 82% atrofida ko'rsatdi, undan keyin G'arbiy Yevropa va Janubiy Yevropa. Aksincha, Sharqiy va O'rta Afrika kabi mintaqalar eng past kirish ko'rsatkichlarini ko'rsatdi, ularning aholisining atigi 10% ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi[9].

Ijtimoiy media platformalarida o'tkaziladigan o'rtacha vaqt ham o'sishda davom etmoqda. 2023-yilda foydalanuvchilar kuniga 2,5 soatdan ortiq vaqtlarini turli platformalarda o'tkazishdi, YouTube va Facebook sarflangan vaqt bo'yicha eng ko'p foydalanilgan[10]. Bundan tashqari, platformalar turli demografik guruhlar orasida turli o'sishni ko'rmoqda. Masalan, TikTok-dan biznes foydalanuvchilari orasida foydalanish sezilarli darajada oshdi va bu uni eng tez rivojlanayotgan ijtimoiy media kanallaridan biriga aylantirdi.

Har bir platforma o'ziga xos demografik tendensiyalarni ham ko'rsatadi. Misol uchun, Instagram va Snapchat kabi platformalar nisbatan muvozanatli gender taqsimotiga ega, LinkedIn va YouTube esa erkaklar ustunligini ko'rsatadi[11]. Bu turli foydalanuvchilar guruhlari bo'ylab turli ijtimoiy tarmoqlarning turli jozibadorligi va foydaliligini aks ettiradi.

Ushbu dinamik o'sish va foydalanish sxemasi global aloqa va marketing strategiyalarida ijtimoiy medianing keng tarqalgan va rivojlanayotgan rolini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2021 yildan 2022 yilgacha O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 1,7 million kishiga ko'payib, 35,9 foizga oshgan[12].

2024-yilda O'zbekistonda Instagram foydalanuvchilarining umumiy soni 9,43 million kishiga etdi, bu mamlakat aholisining 27,2 foizini tashkil qiladi. Instagram foydalanuvchilarining aksariyati erkaklar (61,9%). Foydalanuvchilar orasida eng katta yosh guruhi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan odamlar bo'lib, 3,9 million foydalanuvchini tashkil etadi[13].

Facebookga kelsak, 2024-yil boshida uning O'zbekistondagi auditoriyasi jami aholining 6,1 foizini tashkil etgan, Instagram'da reklama ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan foydalanuvchilar ulushi 2023-yil yanvaridan 2024-yil yanvarigacha 10,7 foizga oshgan[14].

Bu ma'lumotlar O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning aloqa va marketing vositasi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlab, ularning mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga ta'siri kuchayib borayotganini aks ettiradi.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarni o'z ichiga olgan PESTLE ijtimoiy modelidan foydalangan holda O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish holatini tahlil etamiz.

Siyosiy omillar

Hukumat dasturlari va qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazardan, O'zbekistonda O'zbekiston Markaziy banki va boshqa davlat idoralari ko'magida aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirishga ko'maklashuvchi Milliy moliyaviy inklyuzivlik strategiyasi faol amalga oshirilmoqda. O'zbekistondagi Milliy moliyaviy inklyuzivlik strategiyasi moliyaviy savodxonlikni davlat va ta'lim sohasidagi tashabbuslarga integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu moliyaviy ta'lim dasturlarini amalga oshirish va kengaytirish uchun qulay siyosat muhitini yaratadi.

Shuningdek, mamlakatdagi barqaror siyosiy muhit moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va loyihalarini samarali amalga oshirishga

yordam beradi va bu ta'lim loyihalarini uzoq muddatli rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Siyosiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> • Hukumat dasturlari va qo'llab-quvvatlash: • Siyosiy barqarorlik:
Iqtisodiy omillar (Iqtisodiy)	<ul style="list-style-type: none"> • Iqtisodiy rivojlanish darajasi • Ta'limga investitsiyalar:
Ijtimoiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> • Demografiya: • Madaniy jihatlar:
Texnologik omillar	<ul style="list-style-type: none"> • Internetga kirish: • Mobil texnologiyalar:
Huquqiy omillar (Huquqiy)	<ul style="list-style-type: none"> • Tartibga solish va qonunchilik: • Ta'lim huquqlari:
Atrof-muhit omillari	<ul style="list-style-type: none"> • Infratuzilma va foydalanish imkoniyati: • Atrof-muhit barqarorligi:

1-rasm. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarda foydalanishning PESTLE tahlili

Iqtisodiy omillar

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi aholining ta'lim va moliyaviy xizmatlardan foydalanishiga ta'sir qiladi. Kam daromadli hududlarda bunday xizmatlardan foydalanish etarli darajada emas, bu esa moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun qo'shimcha harakatlarni talab qiladi.

Ta'lim dasturlari va moliyaviy savodxonlik tashabbuslariga davlat va xususiy investitsiyalar aholining xabardorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy omillar

Yosh va o'rta yoshli kattalar ijtimoiy tarmoqlardan tobora ko'proq foydalanmoqda va bu ularni moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim dasturlari uchun asosiy auditoriyaga aylantirmoqda.

Texnologik omillar

Internetning kirib borishi va undan foydalanish imkoniyati ijtimoiy tarmoqlardan ta'lim maqsadlarida foydalanishda asosiy rol o'ynaydi.

Mobil qurilmalarni ishlab chiqish va tarqatish ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar sonining ko'payishiga va ta'lim mazmuniga kirish imkoniyatiga yordam beradi.

Huquqiy omillar

Ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn faoliyatni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik choralari moliyaviy savodxonlik dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va axborotdan foydalanish huquqlarini qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik moliyaviy savodxonlikni oshirishga yordam beradi.

Atrof-muhit omillari

O'zbekistonning chekka va qishloq joylarida infratuzilma, jumladan, elektr va internetning mavjudligi ta'lim dasturlari va resurslaridan foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhit barqarorligi, raqamli ta'lim dasturlarini qabul qilish qog'oz va boshqa resurslar iste'molini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni rag'batlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelingan:

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ta'lim tashkilotlari, davlat va xususiy sektor uchun o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda mobil qurilmalarning yuqori kirib borishi va ijtimoiy tarmoqlardan, ayniqsa, yoshlar o'rtasida faol foydalanilayotganini hisobga olsak, ushbu platformalar ta'lim dasturlarini tarqatishda muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish katta salohiyatga ega, ammo xavflarni minimallashtirish va foydani maksimal darajada oshirish uchun ehtiyotkor strategiyani talab qiladi.

O'zbekistondagi auditoriyaning demografik holati, qiziqishlari va ehtiyojlarini tushunish uchun muntazam tadqiqot olib borishni talab etadi va bu mamlakatda shaxsiylashtirilgan va samarali ta'lim mazmunini yaratish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali taklif etilishi mumkin bo'lgan sertifikatlangan kurslarni yaratish uchun mamlakatdagi sohaga oid OTM va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu taklif etilayotgan ta'lim mazmuniga qo'shimcha qiymat beradi va uning kasbiy rivojlanish uchun jozibadorligini oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ta'lim tashabbuslarining milliy moliyaviy inklyuzivlik va ta'lim strategiyalari bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish ularning ahamiyati va hukumat darajasida qo'llab-quvvatlanishini kuchaytiradi.

Bu takliflar O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni yaxshilash va optimallashtirish, ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlarni maqsadli, qamrab oluvchi va samaraliroq qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uza.uz/uz/posts/tadbirkorlikni-rivozhlantirish-va-kasbga-tayyerlash-or-ali-k-27-02-2020>

2. Баширова М. Й. Методика анализа и моделирование финансовых ресурсов вуза 08.00.12, кандидат экономических наук 2002, Москва.;

3. Гранилшиков А. С. Источники финансирования высшего образования в России и их оптимизация 08.00.10, кандидат экономических наук 202, Москва.,

4. Натробина О. В. Совершенствование системы финансирования образования [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.01 .-М.: РГБ, 2003
5. Dusmuxamedov O. S., Aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish (Tijorat banklari misolida);
6. Hojaev A. Oliy ta'lim muassasalarining aholi moliyaviy savodxonligini oshirishdagi o'rni va ularni amalga oshirish mexanizmlari. Prioritetniye napravleniya, sovremenniye tendensii i perspektivi razvitiya finansovogo rinka, 247–249.;
7. Akramova Sh.G. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish. 08.00.10-Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi/TDIU T; 2019;
8. Hakimov O.M. O'zbekistonda byudjet va to'lov – shartnoma shakllarida ta'lim berish tizimi samaradorligi (sotsiologik tahlil). Fan nomzodligi dissertatsiyasi / O'zMU T; 2010
9. <https://prioridata.com/data/>
10. <https://www.marketingscoop.com>
11. <https://prioridata.com/data/>
12. <https://datareportal.com>
13. https://napoleoncat.com/?utm_source=google&utm_medium=cpc&utm_campaign=worldwide_brand&utm_content=brand_exact_no_space&utm_term=napoleoncat&gad_source=1&gclid=Cj0KCQjwsaqzBhDdARIsAK2gqnfpD-r1yMGoFbK-ODOCS81w-KnFKIAVr43KkMgY6QWTUZJFIIDaaEIaArXQEALw_wcB
14. <https://datareportal.com>

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLANILISHNING ILMIY-NAZARIY JIHLATLARI

To‘rayeva Nafisa Odiljonovna
TDIU, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotning maqsadi kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta‘minlash hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning tamoyillarini ishlab chiqish usullarini o‘rganishdan iborat. Bunda mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotni raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan, shuningdek, kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar, kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ularning tahlili yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, boshqaruv, an‘anaviy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, yangi iqtisodiyot, raqamlashtirish, kichik biznes rehabilitatsiyasi.

Аннотация

В данной статье будут рассмотрены основные проблемы трансформации деятельности малого бизнеса на цифровые технологии для повышения его эффективности. Он также заключается в рассмотрении отдельных элементов технологии с точки зрения их согласованности, сбалансированности и целесообразности с учетом ведущей роли менеджмента в процессе цифровой трансформации. На пути к достижению этих поставленных целей автором были проведены исследования и получены результаты.

Ключвые слова: малый бизнес, малые предприятия, эффективность, система планирования ресурсов предприятия (itp), управление взаимоотношениями с клиентами, CRM-система, стратегическая CRM, операционная CRM, аналитическая CRM, смешанная (совместная) CRM, управление эффективностью бизнеса (BPM).

Abstract

This article will discuss the main problems of transforming small business activities to digital technologies to increase its efficiency. It also consists of considering individual elements of technology from the point of view of their consistency, balance and appropriateness, taking into account the leading role of management in the process of digital transformation. On the way to achieving these goals, the author conducted research and obtained results.

Keywords: small business, small enterprises, efficiency, enterprise resource planning (itp), customer relationship management, CRM system, strategic CRM, operational CRM, analytical CRM, mixed (collaborative) CRM, business performance management (BPM).

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bozorining globallashuv jarayonida masofaviy xizmat ko‘rsatish va onlayn savdolar jadal rivojlanib borishi natijasida mijozlar uchun mazkur

xizmatlardan er yuzini istalgan nuqtasidan turib erkin foydalanish imkoniyati tug' ilmoqda. Hozirda «5,19 milliard kishi internetdan foydalanmoqda, bu butun dunyo aholisining 64,5 foiziga tengdir. Global miqyosda internet foydalanuvchilari soni yiliga 2,1 foizga o'sib bormoqda, biroq ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida yildan-yilga o'sish ancha yuqori. O'rtacha global internet foydalanuvchisi har kuni 6 soat 40 daqiqani onlayn rejimda o'tkazmoqda» [1]. Bunday holatlardan kelib chiqib kichik biznes subyektlari o'z faoliyatlarini raqamli transformatsiya qilishi talab etiladi va mijozlar talabi va raqobatchilar bilan teng bo'lish zaruratini tug'diradi. Umuman olganda, raqamli transformatsiyalashda texnologiyalardan foydalanish kichik biznes subyektlarini o'zgaruvchan bozorlarga javob berish va innovatsiyalarni kuchaytirishda yanada tezkor bo'lishiga yordam beradi va shu bilan ularni yanada barqarorlashtiradi. "2022-yilda raqamli transformatsiyaga sarflanadigan xarajatlar 1,6 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga borib raqamli transformatsiya uchun global xarajatlar 3,4 trillion AQSH dollariga etishi kutilmoqda" [2]. Biroq, ko'pgina kichik biznes subyektlarida bu o'tishni yaxshi rejalashtirish uchun zarur bo'lgan vaqt, mablag'lar, to'g'ri raqamli tizimlarni tanlash, raqamli ko'nikmalarni oshirish, to'g'ri himoya va xavfsizlikni rivojlantirish hamda ushbu yangi vositalarning imkoniyatlarini to'liq moslashtirish va tushunish imkoniyatiga etarli darajada ega emas. Kichik biznes subyektlarida zamonaviy va raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish hanuzgacha muammo bo'lib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilandi. Mavzuni o'rganish davomida umum-iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullar, korrelyatsion-regression va empirik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda raqamli texnologiyalar kompaniyalarga, ayniqsa kichik biznes subyektlarining yangi bozorlarga chiqish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etmoqda, bu ularga mintaqaviy va global raqamli ta'minot zanjirlarida ishtirok etishni yanada jadallashtirmoqda. Bu borada har bir raqamli texnologiya amalga oshirilgandan so'ng uning samaradorligini tahlil qilish va korxonaga qo'shimcha foyda keltirishi yoki byudjetga zarar etkazmasligi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish hamda kichik biznes subyektlari faoliyatida CRM (Customer Relationship Management), ERP (Enterprise Resource Planning), MES (Manufacturing Execution System), PLM (Product Life-cycle Management), MDM (Master Data Management), ERM (Enterprise Risk Management) kabi raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq muammolarga hamda ularni bartaraf etishga ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib “raqamli texnologiyalar” tizimini tubdan yangicha turlarini ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturida: “... kichik va o‘rta biznes korxonalarini o‘rtasida bevosita iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda yagona elektron bazani yaratish va uning qo‘shimcha modullarini ishlab chiqish bo‘yicha biznes jarayonlarni o‘rganish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish...” [3] kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “IT-park asosida ilg‘or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqli echimlar”ni ishlab chiqishni rag‘batlantirish va biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Biznes-navigator” elektron portalini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ishlash mexanizmini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘p jihatdan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Uzoq vaqt davomida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi keskin o‘zgarishlarga olib keldi, iqtisodiyot va umuman jamiyat rivojlanishining trayektoriyasini belgilab berdi. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni shakllantirish aksariyat mamlakatlar uchun ustuvor vazifalardan biridir. So‘nggi yillarda ta’sir ko‘lami va chuqurligi tufayli raqamli texnologiyalarning yangi avlodini yaratish natijasida biznes va ijtimoiy faoliyat modellarini o‘zgartirish to‘lqinida ko‘tarilish kuzatildi. Bunday texnologiyalarga sun‘iy intellekt, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari va boshqalar kiradi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish mehnat unumdorligini 40 foizga oshirishi mumkin. Yaqin kelajakda yangi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish alohida korxonalar va umuman mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi, shuningdek, raqamlashtirish uchun infratuzilma va huquqiy muhitni (raqamli huquq) shakllantiradi.

Shubhasiz, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan, mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni yaratish va joriy etish vektori yaqinda davlat va korporativ darajada milliy rivojlanishning asosiy yo‘nalishi maqomini oldi. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichi tubdan yangi texnologik va tashkiliy, boshqaruv tahdidlarini keltirib chiqaradi, nazariy asosni yaratishni, yangi asosiy tushunchalar ta’riflarining konseptual va kategorik texnologiyalari hamda operatsion tizimlarini shakllantirishni, shuningdek, qonunchilikning to‘liq me’yoriy-huquqiy bazasi va mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi.

«Raqamli iqtisodiyot va “raqamli pul” tushunchalari birinchi marta 25 yil oldin AQSHning Massachusetts texnologiya instituti professori Nikolas Negroponte tomonidan kiritilgan» [4]. Biroq, uning konseptual dizayni uchun muhim to‘siq yaratishga hissa qo‘shadigan aniq ta’rif hali ham mavjud emas.

Jahon banki guruhi Prezidenti Jim Yong Kimning soʻzlariga koʻra, «insoniyat hozirda axborot-kommunikatsiya inqilobini boshdan kechirmoqda. Uning fikricha, mobil telefonga ega boʻlgan eng kambagʻal uy xoʻjaliklari soni qulay yashash sharoitlari yoki ichimlik suvi bilan taʼminlanganlarga qaraganda koʻproq» [5] deb keltiradi.

Chet ellik iqtisodchi olim P.Kirillovning qarashlaricha “raqamli iqtisodiyot fan va texnika taraqqiyotining oqibatlaridan biri sifatida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda tarqatishni raqamli internet texnologiyalari muhitiga oʻtkazishni nazarda tutadi” [6].

V.A.Utkina, Ye.V.Yemshanovalarning fikricha “raqamli texnologiyalar-ni rivojlantirishning yangi bosqichida asosiy xavf va tahdidlardan biri bu kompaniyalar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy platformalar va odamlar oʻrtasidagi munosabatlarning miqdori, sifati va xilma-xilligining sezilarli oʻsishidir” [7]. Ushbu oʻsish tranzaksiyalar soni va maʼlumotlar hajmining eksponent dinamikasi bilan birga keladi, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarning yanada murakkab integratsiyasiga olib keladi, uning oqibatlarini insoniyat hali baholamagan. Ushbu jiddiy oqibatlar va oʻzgarishlar jamiyatdan har bir shaxsdan yangi vakolatlar, qobiliyat va koʻnikmalarni, shuningdek, kundalik hayot fenomenida yangi texnologiyalardan foydalanishga moslashishni talab qiladi. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotidagi global tendensiyalarga javob beradigan taʼlim dasturlarini shakllantirish, shuningdek, yuqori darajadagi “raqamli savodxonlik”ni taʼminlaydigan individual taʼlim trayektoriyalarini shaxsiylashtirish jarayonlari alohida ahamiyatga ega.

Xususan, mamlakatimizda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» [8] gi PF-60-sonli Farmonida “milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish” [9] vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali xususiy sektorning YAIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish imkonini beradi. Kichik biznes subyektlarining jadal rivojlanishida faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etib borish ham muhim hisoblanadi. Vaholanki, jahon iqtisodiyotidagi raqobatlashuv jarayonlarining keskinlashuvi kichik biznes subyektlari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi. Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va insonlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi PQ-4688-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi [10] Qarorida “2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravar, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSH dollariga etkazish” [11] vazifasi qoʻyilgan.

Shuningdek, “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturida: “Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli maʼlumotlar, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalarini qoʻllagan

holda, an'anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda, turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni etkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin" [12] degan fikr bildirilgan.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot bu – kelajak. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Sanoat 4.0 inqilobiga moslashish, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan kichik biznes subyektlari faoliyatiga joriy etishni qanchalik qisqa fursatda hal etishimizga chambarchas bog'liq. Kichik biznes subyektlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali tashkil etish raqamli texnologiyalar sohasida etarli kompetensiyalarga ega bo'lgan etuk kadrlarga borib taqaladi. Bu borada ham tizimli tadbirlar yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash zarur.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishning tezroq kirib kelishini xohlasak, raqamlashtirish ta'sirida turmushimizda turli qulayliklar paydo bo'lsin, desak, raqamlashtirish tatbiqida, albatta, tizimli yondashuv lozim. Kichik biznes subyektlari faoliyatiga o'n yildan buyon elektron hukumat tizimini kiritishga intilib kelamiz. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirishga oid dasturlar xalqimiz, qolaversa, tadbirkorlarimiz xohish-istaklarini to'g'ri anglash imkonini beradi. Tabiiyki, ushbu dasturlarni yanada kengaytirish, takomillashtirish kerak. Biroq ayrim muammolar borki, ularning echimini qisqa fursatda topish talab etiladi.

Birinchidan, raqamlashtirish bu "ma'lumotlar ombori"dir, ma'lumotlar juda katta hajmdan iborat. Ikkinchidan, bizda "ulkan ma'lumotlar" oqimini boshqarish, saqlash va qayta ishlash uchun turli platformalarni kengaytirish muhim. Uchinchidan esa mazkur dasturlar ijrosini ta'minlashda amalga oshirish mexanizmlari hamda moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan bo'lsa-da, monitoring jarayonida jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi muhim, deb hisoblaymiz.

Raqamli texnologiyalar bir necha sabablarga ko'ra kichik biznesni tiklashga yordam beradi. Birinchidan, mobil qurilmalarning joriy etilishi tufayli odamlar uchun raqamlashtirishdan foydalanish osonlashdi. "Raqamli texnologiyalarga o'tish faqat kelgusi yillarda tezlashadi, chunki dunyoda mobil qurilmalardan foydalanuvchilar soni 2021-yilda 6,38 milliarddan 2026-yilda 7,52 milliardga ko'payishi kutilmoqda" [13].

Ikkinchidan, odamlar xarid qilish usuli yillar davomida o'zgardi. Muntazam do'konlar har doim rol o'ynaydi, ammo xaridlarning kelajagi tobora ko'proq onlayn savdodan orqada qolmoqda.


Iyun oyida "Morgan Stanley global elektron tijorat bozori bugungi kunda \$3.3 trln. dan \$5.4 trln. ga 2026-yilda o'sishini taxmin qildi, bu to'rt yil ichida 60% dan" [14] oshadi.

Kichik biznes uchun raqamlashtirishning afzalliklari juda kattadir. Kuchli raqamli strategiyaga ega bo'lgan korxonalar inqirozni engish uchun yaxshiroq tayyorlangan va diversifikatsiya qilingan, chunki ularning onlayn kanallari do'kon ichidagi xaridlarning yo'qolishini yumshatgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OYECD) ma'lumotlariga ko'ra, o'zlarining raqamli kelajagiga sarmoya kiritgan korxonalar bir qator boshqa uzoq muddatli imtiyozlarga ega bo'lishmoqda, jumladan, aloqalarni yaxshilash va jahon bozorlariga kirishni yaxshilash kabilardir.

Kichik biznes subyektlarini kreditlashning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” [15] gi Qonunining 8-moddasiga asosan “kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini hamda o‘zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o‘zga mol- mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirish” [16] huquqlariga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida» [17] gi PF-6079 sonli Farmonida «Kichik biznes va kam ta‘minlangan aholiga huquqiy maslahat berish, ularning taklif va tashabbuslarini qabul qilishning yangi tizimini joriy etish, advokatlar ishtirokisiz huquqiy hujjatlarni tayyorlash imkoniyatini yaratish maqsadida o‘z-o‘ziga huquqiy xizmat ko‘rsatish “Legal Tech” axborot tizimini joriy etish», «Tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha kafillik va kafolatlar, shuningdek, foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya berish to‘g‘risida elektron shartnomalar tuzish, real vaqt rejimida kredit buyurtmalarini ko‘rib chiqish va ularning ijrosi holatini kuzatish kabilarni nazarda tutuvchi “Tadbirkor” axborot tizimini joriy etish [18] » belgilab berilgan.

Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta‘minlash bo‘yicha xalq ta‘limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-sonli Qaroriga ko‘ra “tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholash quyidagi yo‘nalishlardagi asosiy indeksleri” ishlab chiqildi.



1-rasm. Tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholashning asosiy indeksleri¹

¹ Muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirilgan indeksarga asosan “hududlarda raqamli iqtisodiyot holatining reytingi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, mehnatga layoqatli aholi qatlamida ish bilan ta’minlanganlik darajasi va boshqa yo‘nalishlardagi indikatorlarni hisoblash asosida aniqlanadi. Reyting baholash indeksleri, baholash tartibi hamda baholarni hisoblash uslublari tashkilotlarda raqamli transformatsiya va hududlarda raqamli iqtisodiyotni reyting baholash metodikalarida batafsil tavsiflanadi”.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi aniqlangan indikatorlarning miqdoriga qarab 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanadi hamda “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi.

Indikatorlarni reyting baholash natijalariga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi reyting balli bo‘yicha:

- 71 balldan 100 ballgacha baholangan tashkilot — “yashil”;
- 55 balldan 71 ballgacha baholangan tashkilot — “sariq”;
- 55 balldan past baholangan tashkilot — “qizil” deb topiladi.

1-jadval

Hududlarda raqamli iqtisodiyot darajasini reyting baholashni amalga oshirish yo‘nalishlari [22]

Bosqichlar	Mas’ullar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Hududlarda raqamli iqtisodiyot darajasi bo‘yicha statistik va tahliliy ma’lumotlarni NIS.UZ-axborot tizimiga kiritadi.	Hisobot davri yakuni bo‘yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar
2-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	NIS.UZ-axborot tizimiga kiritilgan ma’lumotlar asosida reyting baholashni amalga oshiradi va hududlarni reyting baholash yakunlari asosida reytingni shakllantiradi.	Hisobot davri yakuni bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar
3-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Reyting natijalari va boshqa tahliliy materiallarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish	Hisobot davri yakuni bo‘yicha keyingi oyning 30-sanasiga qadar

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qaroriga 1-ilova “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida raqamli transformatsiya hamda hududlarda raqamli iqtisodiyot holatini reyting baholash tartibi to‘g‘risida” gi Nizom

Reyting baholash natijalari bo‘yicha tegishli tashkilotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasiga ko‘ra Raqamli texnologiyalar vazirligining taklifiga asosan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi bayoni bilan:

• hisobot yilida “yashil” deb topilgan tashkilotlar rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlari keyingi hisobot davri uchun reyting baholash

natijalari eʼlon qilinguniga qadar har oyda lavozim maoshlarining 30 foizi miqdorida ragʻbatlantiriladi;

- hisobot yilida ikki marta “qizil” deb topilgan tashkilotlar rahbarlari va ularning raqamlashtirish boʻyicha oʻrinbosarlariga qonunchilikda belgilangan tartibda jarima qoʻllaniladi yoki jarima qoʻllash haqida taklif kiritiladi. Reyting baholash natijalari boʻyicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi “yashil” deb topilgan tashkilotlarning ijobiy tajribasini boshqa tashkilotlar oʻrtasida ommalashtirish boʻyicha tegishli chora-tadbirlar koʻriladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek: «Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, koʻp mablagʻ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin boʻlmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech boʻladi. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol oʻtish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri boʻladi» [22].

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2021-yilning 17-fevraldagi PQ-4996-sonli «Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi [23] Qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda sunʼiy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish uchun muhim qadam boʻldi. Mazkur qarorga muvofiq, «Sunʼiy intellektni joriy qilishning muhim jihatlari — huquqiy rejim, institutsional asoslar, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xalqaro hamda milliy standartlar, sunʼiy intellekt joriy qilinadigan ustuvor soha va tarmoqlar, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari qamrab olingan» [24].

Oʻzbekistonda “Raqamli Oʻzbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion gʻoyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish boʻyicha davlat organlari va kichik biznes subyektlarining uzviy hamkorligini taʼminlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni etishtirish, shu orqali mamlakatda “xavfsiz axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat hamda dasturlarga olib kelishi mumkin.

Quyida raqamli texnologiyalarni bazilariga to'xtalib o'tamiz: bulutli texnologiyalar — internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir.

Raqamli texnologiyalar — narsalar internetidir (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar interneti hisoblanadi. Ko'pgina maishiy texnikaning elektr tarmog'iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko'proq obyektlari Internetga ulanadi, bu esa ma'lumot to'plash, hatto, ushbu obyektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, internetda obyekt va tashqi dunyoning turli parametrlarini o'z

ichiga olgan va internet orqali obyektning boshqarish imkonini beruvchi jismoniy obyektning virtual nusxasi paydo bo‘ladi. Narsalar internetiga misol qilib kinoteatrda proyektor kabi qurilma texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatiga aniqlangan nosozlik va rejadan tashqari ta‘mirlash doirasida almashtirilishi kerak bo‘lgan ehtiyot qismlar ro‘yxati haqida signal yuboradi. .

Hozirgi globallashtirish jarayoni va axborot ko‘lami davrida axborotdan foydalanish tezligi juda yiriklashgan. Shunday ekan ushbu davrda ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish va axborotni sintezlash ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ham ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy-majlisga murojaatnomasida: ta‘lim tizimini to‘liq raqamlashtirish, oliy ta‘limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish, ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda “bir million dasturchi” loyihasini amalga oshirish hamda ta‘limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan axborot texnologiyalarini joriy etish kabi asosiy masalalarga e‘tibor qaratgan edi.

Bugungi kunga kelib esa bu ishlar amalga oshirildi. Shu kunga kelib ta‘lim dasturlarini an‘anaviy usuli, ya‘ni ma‘ruzani yirik hajmli kitoblar va qo‘llanmalar orqali amalga oshirilishi ta‘lim sifatining u qadar yuqori bo‘lmaganini ko‘rsatib turibdi. Hozirda ta‘lim sifatini ko‘tarishda ta‘limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Xususan, Andijon mashinasozlik institutida ham talabalar “Kredit-modul” tizimiga asoslangan “Hemis” platformasida ta‘lim olmoqdalar.

VR 80-yillarning o‘rtalarida "Scientific American" jurnalining qopqog‘ida paydo bo‘ldi. Ammo Internet bilan yaxshi vaqtlar uzoq davom etmaydi, televizor ekranida mukammal sifat VR ekranidan o‘tib ketadi.

Ammo yosh yigit — u VR filmi "o‘t" sodiq muxlislar, VRga qiziqish bildirgan. Oculus Rift asoschisi Palmer Raj edi. 2015-yilda Rajida "Vaqt" jurnali nashrida, VR global ilm-fan va texnologiya bozorining e‘tiborini yana bir bor o‘ziga tortdi. HTC, IBM, Apple, Facebook, AMD va Sony VR-ning kelajagiga qo‘shildi.

Facebook Oculusni 2 milliard 100 million dollarga sotib olganidan so‘ng yana 11 ta AR / VR kompaniyasini sotib oldi, bundan keyin AR va VR texnologiyalari keyingi chegarasi bo‘ladi.

Eng muhimi shundaki, raqamli texnologiyalar standartining muvaffaqiyatini hisobga oladigan va aniqlaydigan ko‘pgina odamlarni jalb qila oladigan va foydalanuvchi ishtirokining darajasini hisoblab, ko‘proq mijozlarni qondirish va baxt tuyg‘usi darajasini aniqlashga imkon beradi.

Katta o‘zgarish sodir bo‘lmoqda, ya‘ni mobil hisob-kitoblar chuqur hisoblash jarayoniga aylanmoqda va biz hozirgi kunlarda vorteks o‘rtasida bo‘lamiz. O‘tgan yili virtual haqiqat bilan to‘ldirilgan (AR va VR) uchinchi to‘lqin qurilmalari chiqdi, AR va VR esa mobil hisoblash texnologiyasini o‘rnini bosuvchi ikkita chastota texnologiyasini taqdim etdi. Texnologiya gigantlari tomonidan amalga oshirilgan yirik investitsiyalar va sotib olishlar, ushbu texnologiyalarni tarkibiy iste‘mol qilish uchun

bizning hozirgi asosiy platformalarimiz bilan yanada ko'proq integratsiya qilinishini ko'rsatadi.

Goldman Sachs yaqinda AR va VRning 2025 yilgacha 95 milliard dollarlik bozorga aylanishi kutilmoqda. Ushbu texnologiyalarga bo'lgan kuchli talab, ijodiy iqtisodiyot sohasidan — o'yin, video, ko'ngilochar va chakana sotishdan iborat bo'lib, ta'lim, harbiy va ko'chmas mulk sog'liqni saqlash sohasida keng qo'llaniladi.

Virtual haqiqat (VR, inglizcha: *virtual reality*, *VR*, *sun'iy haqiqat*) — texnik vositalar yordamida yaratilgan, insonga uning his-tuyg'ulari orqali uzatiladigan dunyo: ko'rish, eshitish, teginish va boshqalar. Virtual haqiqat ta'sirga ham, reaksiyaga ham taqlid qiladi. Haqiqat tajribasining mustahkam to'plami uchun virtual haqiqat va real vaqt reaksiyalarining kompyuter sintezini amalga oshiring.

Virtual obyektlarning kuchi moddiy voqelikning haqiqatiga o'xshash obyektning xavfsizligiga yaqin tutiladi. Fizikaning haqiqiy qonunlari (tortishish kuchi, suvning xususiyatlari, jismlar bilan to'qnashuvlar, ko'zgular va boshqalar) bu obyektlarga samarali yordam berishi mumkin. Biroq, virtual olam foydalanuvchilariga ko'pincha dam olish maqsadlarida (masalan, uchish, ba'zi narsalarni qidirish va h.k.) haqiqiy hayotdan ko'ra ko'proq ruxsat beriladi^[1].

Virtual haqiqatni haqiqiy haqiqat bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ularning asosiy farqi shundaki, virtual haqiqat yangi sun'iy dunyoni quradi, haqiqatni to'ldirish esa real dunyoni idrok etishga faqat alohida sun'iy narsalarni kiritadi.

VR qo'lqoplari UC *San-Diego* tomonidan sotib olingan robot qutisida. Loyiha muallifi — muhandislik maktabining mashinasozlik professori Maykl Tollidir.

Qo'lqoplar sinovli virtual pianino simulyatorida va VR obyektlari bilan o'zaro aloqada bo'lganda taktil aloqani ta'minlaydigan virtual klaviaturada yangilangan. Ushbu qo'lqoplardan farqli o'laroq, bu qo'lqoplar robotlar uchun mo'ljallangan mushak bo'lgi bilan olib tashlanishi mumkin bo'lgan ekzoskeletdan yasalgan bo'lib, ularni ancha engilroq va qulayroq qiladi. Taktil uchta umumiy komponentdan iborat:

- Leap Motion sensori (uning vazifasi foydalanuvchi qo'llarining holatini va harakatini aniqlashdan iborat);
- Makkibben mushaklari — to'qilgan material bilan lateks bo'shliqlari — foydalanuvchi barmoqlarining harakati bilan yaratilgan harakatlarga javob beradi;
- kommutator, uning vazifasi mushaklarning o'zini nazorat qilishdir, bu esa teginish hissini yaratadi.

Qo'lning virtual holatidagi o'zgarishlarni kuzatish transmitterning ajralmas qismi, taktil harorat, tebranish hissi va virtual haqiqat kostyumi bo'lishi mumkin.

Samarali harakatlarni qurish uchun qurilma erkin aylanadigan to'p bo'lishi kerak, uni faqat havoda o'rnatilgan virtual reallik skafandisi yordamida ishlatish mumkin. Hidni modellashtirish uchun texnik vositalar ham ishlab chiqilmoqda.

Microsoft *Mise-Unseen* ko'z harakati virtual dunyoni boshqarish va virtual obyektlarning ko'z harakati bilan harakat qiladi.

Nerv tizimiga bevosita aloqasi

Yuqorida tavsiflangan odam o'z his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, ammo ma'lumotlar to'g'ridan to'g'ri asab tugunlariga va hatto miya interfeyslari orqali bevosita miyaga uzatilishi mumkin. Shunga o'xshash texnologiya tibbiyotda yo'qolgan hissiy

qobiliyatlarni almashtirish uchun qo'llaniladi, lekin hozirgacha u kundalik foydalanish uchun juda qimmat va virtual haqiqatni uzatish uchun maqbul bo'lgan ma'lumotlarni uzatish sifatiga erisha olmaydi. Turli xil fizioterapevtik asboblardan va asboblardan bir xil prinsipga asoslangan bo'lib, o'zgartirilgan ong holatida haqiqiy dunyo hissiyotlarini takrorlaydi („Radioson“ va boshqalar).

XULOSA VA TAVSIYALAR

Raqamli texnologiyalar — virtual haqiqatdir (Virtual haqiqat, VR). Insonning virtual haqiqatda bo'lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo'lishi ushbu texnologiyani ko'ngilochar sohada talabga aylantirdi. Virtual haqiqatning dubulg'alari va kostyumlari, ixtisoslashtirilgan xonalar sizga noma'lum dunyoga kirishga imkon beradi, bu sizning barcha harakatlaringiz virtual olamdan javob berish uchun dasturlashtirilgan, bu sizga o'zingizni 100% ga cho'mish imkonini beradi.

Ta'lim sohasida VR o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014. https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology
2. Bakiyeva F. & Mirzahmedova N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. Theoretical & Applied Science, (11), 56-58.
3. Bakiyeva F. R., Primkulova A. A. & Mirzahmedova N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.
4. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400
5. Yuldashev U.A., Xudoyberdiev M.Z. & Axmedov T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.
6. Yuldashev U.A. Use of video lesson creative technologies in the process of electronic education// Scientific-Methodical Journal-T 2021
7. Yuldashev Ulmasbek Abdubanatovich, Khakimova Farangis Abdualimovna, Khudayberdieva Dilorom Khaydar kizi, Web of Scientist: International Scientific Research Journal, ISSN-2776-0979 Vol 2, Issue 5, 2021, pp. 693-697
8. J.D.Saidov. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5R96C>.

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xasanova Nasiba Nazar qizi
TDIU, mustaqil tadqiqotchisi
n.xasanova@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilishning zamonaviy yondashuvlari tahlili berilgan. Shuningdek, tadqiqotda barqaror rivojlanishni aniqlashga yondashuvlarning tasnifini ishlab chiqish, barqaror rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasining shakllanishining tarixiy tahlili, taklif etilayotgan davrlarda barqaror rivojlanishni tushunishning umumiy qonuniyatlari va asosiy farqlari aniqlashtirilgan.

Kalit soʻzlar: barqaror rivojlanish, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik tizim, “yashil” iqtisodiyot, uch tomonlama yondashuv.

Аннотация

В данной статье представлен анализ современных подходов к исследованию концепции устойчивого развития. Также в исследовании разработаны классификация подходов к определению устойчивого развития, исторический анализ формирования современной концепции устойчивого развития, выяснены общие закономерности и основные различия понимания устойчивого развития в предлагаемые периоды.

Ключевые слова: устойчивое развитие, концепция устойчивого развития, эколого-системная, «зеленая» экономика, триединый подход.

Abstract

This article presents an analysis of modern approaches to the study of the concept of development. Also in development are classification approaches to measuring development, historical analysis of the formation of the modern concept takes into account development, basic principles and fundamental understanding include development in the intended periods.

Key words: sustainable development, concept of sustainable development, ecological-systemic, green economy, triune approach.

KIRISH

Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish barcha davlatlar va manfaatdor tomonlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2015-yil 25-sentyabr Parijda BMT Bosh Assambleyasiga kiruvchi 193 davlat “Dunyomizni oʻzgartirish”[1] deb nomlangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish boʻyicha kun tartibini qabul qildi. Kun tartibi 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va 169 ta tegishli maqsadni oʻz ichiga oladi. 2000 – 2015-yillarga moʻljallangan Mingyillik rivojlanish maqsadlari[2]dan farqli oʻlaroq(8 ta faoliyat yoʻnalishi, 18 ta vazifa va 48 ta indikator koʻrsatkichlari), Barqaror rivojlanish maqsadlari yanada kengroq koʻlamga ega. Hujjat kundalik ritorika emas, balki undan ahamiyatliroq va odamlar sayyora va umumiy farovonlik uchun

harakatlarga aniq chaqiriqni o'z ichiga oladi. 2030-yilgi kun tartibi global hamjamiyatni barqaror, bardoshli va ishonchli dunyo sari harakat qilish uchun dadil va samarali choralar ko'rishga chaqiradi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlari[3] ni amalga oshirishda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlarning sifatli bajarilishi, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masaladir. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030"[4] strategiyasida belgilangan asosiy g'oyalar: barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash kabilarni amalga oshirish hozirgi kunning bosh masalasidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish atamasi XX asrning 80-yillarida ilmiy jamoatchilikka G. X. Brundtland komissiyasi tomonidan kiritilgan: rivojlanish "barqaror, uzoq muddatli bo'lishi va u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishi, kelajak avlodlarni o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidan mahrum etmasligi zarur"[5]. Shuni ta'kidlash kerakki, barqaror rivojlanish ko'plab omillar ta'sirida bo'lgan jarayon bo'lib, uni o'rganishdagi yondashuvlarda ilmiy jamoatchilik, biznes va hukumat vakillari o'rtasida o'zaro farq qiladi.

80-yillarning oxiridan boshlab barqaror iqtisodiy rivojlanish muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy mualliflarning tadqiqotlari mavzusiga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy olimlar barqaror rivojlanishning ekologik, institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy kabi muhim rivojlanish mezonlarini aniqlaydilar. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotchilarning katta e'tibori konsepsiyani quyidagi yondashuvlardan tahlil qilishga qaratilgan: **ekologik-tizimli, triada, "yashil" iqtisodiyot.**

Ekologik-tizimli yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasi shakllanishining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan. Dastlab, ushbu yo'nalish doirasida ekologik barqarorlik, biosfera va bioxilma-xillikni saqlash, resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi muammolari ko'rib chiqildi.

Bu sohada ilk tadqiqotchilar D. Meadows, J. Randers bo'lganlar[6]. Ular kompyuter modellashtirish usulidan foydalanib, 21-asrning birinchi yarmida aholi o'sishi tendensiyalari, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari, tabiiy resurs zaxiralarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi oxir oqibat global falokatga olib kelishini hisobga olgan holda, "iqtisodiy o'sishning tabiiy chegarasi"ga yaqinlashishini ko'rsatadigan "O'sish chegaralari" hisobotini taqdim etdilar.

Xorijiy tadqiqotchi J. Pezzey ishida "barqaror rivojlanish"ning oltmishdan ortiq talqini qayd etilgan bo'lib, ular orasida quyidagilar bor: "barqaror rivojlanish – bu ekologik barqarorlikni va barqaror, doimiy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan iqtisodiy rivojlanishdir"; "barqaror rivojlanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan ularning

miqdorini kamaytirmaydigan yoki sifatiga putur etkazmaydigan tarzda foydalanishni nazarda tutadi, aks holda, bu ularning kelajak avlodlar uchun foydaliligini kamaytiradi"; "barqaror rivojlanish deganda yaqin kelajakda tabiiy va ijtimoiy muhit tomonidan qo'llab-quvvatlaniladigan iqtisodiy o'sish tushuniladi. Ideal barqaror jamiyat - bu barcha energiya quyosh manbalaridan olinadigan va qayta tiklanmaydigan resurslar qayta ishlanadigan jamiyatdir[7].

Rus olimi V.A. Koptyug va boshqalar tadqiqotlarida, "barqaror rivojlanish" konsepsiyasining quyidagi talqini berilgan: "kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini saqlab qolgan holda hozirgi avlodlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan rivojlanishdir"[8]. A.D. Ursulning ta'kidlashicha, barqaror rivojlanishni "jamiyatning va atrof-muhitning sezilarli darajada tanazzuliga yo'l qo'ymaydigan rivojlanish" deb qarash mumkin[9]. V.I. Danilov-Danilyanning fikriga ko'ra, barqaror rivojlanish "shunday ijtimoiy rivojlanishki, unda yaratilgan turmush sharoiti insonning tanazzulga uchrashiga olib kelmaydigan, tabiiy muhit buzilmagan, ijtimoiy buzg'unchi jarayonlar jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi darajada rivojlanmagan bo'ladi"[10]. A. P. Tyapuxin fikricha, bir vaqtning o'zida, barqaror rivojlanish inson sivilizatsiyasi atrof-dagi tabiatni yo'q qilmaydi, aksincha, uning rivojlanish qonunlarini hisobga oladi va belgilangan cheklovlar va taqiqlarni o'rnatadi[11].

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasining evolyutsiyasi "**yashil**" **iqtisodiyot konsepsiyasi** yaratilishiga olib keldi va jamiyat tabiat tizimlari bilan birga hamohang rivojlanishi e'tirof etildi[12]. "Global yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi BMTning atrof-muhit dasturi (2009-yil) doirasida taklif etildi[13].

Bizning fikrimizcha, sanab o'tilgan tadqiqotlar "barqaror rivojlanish" konsepsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqish va atrof-muhit muammolari va antropogen omilning atrof-muhitga ta'sirini ommalashtirishga jiddiy hissa qo'shdi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishini bashorat qilish va empirik tadqiqotlar olib borish imkoniyatini bermaydi. Bu yondashuv keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va birinchi navbatda tabiiy fanlar hamjamiyatida qo'llaniladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot uchun materiallar Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy hujjatlari, boshqa hukumatlararo va jamoat tashkilotlarining hisobotlari, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari, xorijiy kutubxona fondlaridan olingan birlamchi manbalardan iborat. Asosiy tadqiqot usullari quyidagilardan iborat: tarixiy-genetik usul, davrlashtirish usuli, tasniflash usuli, tahlil usuli, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usuli.

TAHLIL VA NATIJALAR

20-asrning o'rtalaridan boshlab BMTning barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha faoliyati umumiy gumanistik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqishdan atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini

kamaytirish masalalarini muhokama qilishga o'tdi. Global o'zgarishlar bilan barqaror rivojlanishning funksional elementlarini aniqlashga tizimli yondashuvlar ham o'zgardi (1-jadval).

Uch tomonlama yondashuvda barqaror rivojlanishni talqin qilish 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyalari ishi natijalariga ko'ra shakllana boshladi. Konferensiyada jahon hamjamiyatida barqaror rivojlanishga erishish uchun "XXI asr Kun tartibi" harakat dasturi qabul qilindi. Konferensiyada G.X.Brundtland komissiyasining g'oyalari rivojlantirilib, barqaror rivojlanish deganda "Kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish" tushunilishi ta'kidlandi[5].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda *E.B. Barbierning* ishlari muhim rol o'ynaydi. U "Resurslarga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning barqarorligiga erishishning minimal zaruriy sharti barqarorlik uchun zarur shartlarni bajarishdir", — deb ta'kidladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish tabiiy resurslardan samarali foydalanishga, shuningdek, tugab borayotgan tabiiy resurslarni o'zlashtirishdan olingan renta boshqa ishlab chiqarish (tabiiy) aktivlarga yo'naltirilishiga asoslanadi[14].

Iqtisodiy va ekologik jihatlarni birlashtirish rivojlanish tashabbuslari nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni, balki mintaqaning uzoq muddatli farovonligi bilan bog'liq bo'lgan atrof-muhit va tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ham ta'minlaydi[15].

Ekologik jihatga e'tibor bermaslik resurslarning kamayishi, ifloslanishi va ekotizimlarning degradatsiyasi kabi salbiy oqibatlariga, bu esa mintaqalarning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligiga putur etkazishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, "...ekologik jihatlarni hisobga olish mintaqalarga iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini tushunishga va salbiy ta'sirlarni yumshatish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi"[16].

Xorijlik olim H. Deyli barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik jihatlarni ilmiy ishlanmalarida o'rgangan. Olim mintaqalarda resurslar va ekotizimlarning ekologik chegaralarini tan olish muhimligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, an'anaviy iqtisodiy o'sishni tabiiy resurslarni tugatmasdan va atrof-muhitga zarar etkazmasdan cheksiz davom etib bo'lmaydi[17].

R. Kostansa "...iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ko'rib chiqish muhimligini, resurslarni barqaror boshqarish va atrof-muhitni boshqarish zarurligini ta'kidlagan"[18].

Xorijlik olimlar S. Levin va V. Klark murakkab tizimlar va ularning barqarorlikka ta'sirlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ular ekologik tizimlardagi chidamlilik, ularning buzilishlarni qabul qilish, ularning tuzilishi va funksiyalarini saqlab qolish qobiliyatini o'rgangan[19].

1-jadval

Rasmiy hujjatlar va hisobotlarda "barqaror rivojlanish" tushunchasi

Yillar	Hujjat nomi	Qaysi tashkilot tomonidan qabul qilingan	"barqaror rivojlanish" mazmuni va mohiyati	Asosiy natijalar
1972 y.	BMT ning atrof muhit bo'yicha konferentsiyasi deklaratsiyasi	1972-yil 5-iyun, BMTning atrof muhit bo'yicha konferentsiyasi tomonidan qabul qilingan. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declarathenv.shtml	Atrof-muhitning ifloslanishi muammosiga nisbatan insonning yangi axloqiy va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar yig'indisi	Atrof-muhit ifloslanishi bo'yicha izchil xalqaro konsensusga erishish uchun birinchi yirik urinish
1976 y.	"O'sish chegaralari"	Mualliflar: Donella H. Meadows, Dennis L. Meadows, Jorgen Randers, Uilyam Berens III. https://www.clubofrome.org/publication/the-limits-to-growth/	Barqaror rivojlanish inson populyatsiyasining ko'payishi va buning natijasida tabiiy resurslarning yo'qolishini o'rganish orqali ko'rib chiqiladi	Hisobotda o'sishning davom etishi Yerning o'zining tabiiy chegaralariga etishiga olib kelishi mumkinligini taxmin qiladi.
1987 y.	"Bizning umumiy kelajagimiz" hisoboti	Bizning umumiy kelajagimiz. BMT ning YUNEP hisoboti https://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf	Rivojlanish "barqaror, uzoq muddatli bo'lishi va u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishi, kelajak avlodlarni o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidan mahrum etmasligi zarur"	Barqaror rivojlanish" atamasining birinchi versiyasi shakllantirilgan
1992 y.	"XXI asr kun tartibi"	BMT ning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasi tomonidan qabul qilingan, Rio-de-Janeyro, 1992 yil 3-14 iyun https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/agenda21.shtml	Iqlim va iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishidagi nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan mexanizm	Barqaror rivojlanishning asosiy qoidalarini qabul qilingan.
1997 y.	Kioto protokoli	BMT ning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasiga Kioto protokoli, 1997 yil 11 dekabrda qabul qilingan. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/kyoto.shtml	Faoliyat kvotalari orqali atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirish mexanizmini ishlab chiqish	Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish maqsadlari belgilangan, "rivojlangan" mamlakatlarda CO ₂ emissiyasi darajasi uchun ko'rsatkichlar qabul qilingan.
2006 y.	Mas'uliyatli investitsiyalar tamoyillari	BMT ning mas'uliyatli investitsiyalar bo'yicha tamoyillari, 2005 yil. https://www.unpri.org/investment-tools	ESG kun tartibi qoidalarini hisobga olgan holda investitsiya qarorlari	Mas'uliyatli investitsiya mexanizmining paydo bo'lishi
2009 y.	"Global yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi	BMTning atrof-muhit dasturi (YUNEP) www.un.org/ru/events/chemistry2011/annual_report_2009.pdf	"yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"	Jamiyat-tabiati tizimlari bilan birga hamohang rivojlanishi e'tirof etildi
2015 y.	Parij kelishuvi	BMT ning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi bo'yicha kelishuv https://www.un.org/ru/climatechange/paris-agreement	Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash	Kelishuv natijasida global isish tezligini kamaytirish

Taniqli iqtisodchi olim Uilyam Nordxaus(2018y. Nobel mukofoti) tadqiqotlarida iqlim o'zgarishi iqtisodiyoti va integratsiyalashgan baholash modellarini (IAMs) ishlab chiqqan. Uning (DICE) modeli iqlim siyosatining xarajatlari va afzalliklarini baholash uchun iqlim dinamikasi, iqtisodiy o'sish, energiyadan foydalanish va uglerod emissiyasini birlashtirgan[20]. Olimlar moslashuvchan boshqaruvning muhimligini, barqaror rivojlanish uchun ekotizimlarning o'zgarishlar va buzilishlarga moslashish qobiliyatini ta'kidlagan.

Bir guruh rus olimlari[21] barqaror rivojlanish - bu "resurs bazasidan oqilona foydalanish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini xavf ostiga qo'ymasdan, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratish" deb ta'kidlaydilar. H.N. Gizatullin va V.A. Troiskiy[22] o'z tadqiqotlarida "barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta asosiy nuqtayi nazarning kombinatsiyasi natijasida paydo bo'lganligini tasdiqlaydi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik. Shunga ko'ra, barqaror rivojlanishning uchta maqsadi haqida to'xtaladilar: atrof-muhit yaxlitligi, eko-samaradorlik va eko-adolat".

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar "barqaror rivojlanish" konsepsiyasining mohiyatini "iqtisodiy o'sish va rivojlanish o'rtasidagi optimal mutanosiblikni saqlash, tabiiy resurslarni ijtimoiy va tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarishning barqaror jarayonlarini ta'minlaydigan darajada takror ishlab chiqarish" deb belgilaydilar. V.L. Tovbina[23] barqaror rivojlanishni "ijtimoiy adolat va ekologik mas'uliyat tamoyillariga javob beradigan uyg'un iqtisodiy rivojlanish jarayoni" sifatida qaraydi.

Mahalliy olimlarimizdan A.A. Isadjanov fikricha, barqaror rivojlanishning asosiy mohiyati rivojlanishni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirish va rag'batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo'llashga, energiya samaradorligini ta'minlashga va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hal etishga qaratilgan[24].

Vaxabov A. fikricha, barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini esa xavf ostiga qo'ymaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanishni "ijtimoiy"- "iqtisodiy"- "ekologik" uchlikning o'zaro bog'liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobidan taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etish mumkin. Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilishi zarur bo'ladi[25].

Nigmatov A. ta'rificha, barqaror rivojlanish konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda hozirgi zamon kishilik jamiyatining o'zaro uzviy bog'langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o'z ichiga olgan g'oyalar tizimidir[26].

Uch tomolama yondashuv tadqiqotning tizimli xarakterini o'z ichiga oladi, bunda barcha jihatlar yagona obyekt sifatida ko'rib chiqiladi va har qanday jihatni istisno

qilish ko‘rib chiqilayotgan tizimning beqarorligiga olib keladi.

XXI asrning boshlaridan dunyo olimlari “Yashil” iqtisodiyot to‘g‘risida juda ko‘p munozaralar olib bormoqdalar, u iqtisodiy o‘shishning omillari atrof-muhitga tobora bog‘liq bo‘lib qolayotganini ta’kidlamoqdalar [27].

Iqtisodiy adabiyotda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda [28] qo‘llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda “yashil iqtisodiyot” mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda “yashil iqtisodiyot” tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa “yashil iqtisodiyot” – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish hisoblanib, uning asosini sof yoki “yashil” texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to‘liq ta’rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [13].

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi [13]. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo‘naltirish zarur bo‘ladi.

Fikrimizcha, “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish tushunchasini to‘liq qamrab ololmaydi, aksincha barqaror rivojlanishga eltuvchi muhim rivojlanish bosqichi va tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA

Biznesni barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga rioya qilish nafaqat kompaniyalar, balki butun davlatning samarali rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Barqaror rivojlanishga sodiqlik o‘tgan asrning dolzarb global tendentsiyasiga aylandi. Uglerodsiz iqtisodiyotni ommalashtirish va innovatsion “yashil” moliyaviy vositalardan keyingi o‘n yilliklarda foydalanishni davom ettirish iqlim va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ko‘plab mahalliy va global muammolarni samarali hal qiladi.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 2-dekabrda tasdiqlangan PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori [29] muhim dasturiy amal hisoblanadi.

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-

tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirishda quyidagilar:

- ✓ issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

- ✓ qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga etkazish;

- ✓ sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

- ✓ yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

- ✓ iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

- ✓ yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

- ✓ respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metr dan ortiqroqqa etkazish;

- ✓ hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish maqsad qilingan.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi tarafdorlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasining yaxshilanishida muayyan ijobiy natijalarga olib kelganligiga qaramasdan mukammal emas, deb hisoblashadi. Ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapital cheklanganligi, tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning etishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligini ifodalovchi holatlar hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko‘ra amaldagi iqtisodiy model “jigar rang iqtisodiyot” deb ataladi.

Umuman, “barqaror rivojlanish”, “yashil o‘shish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik “yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish “yashil o‘shish”ni ta’minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Demak, “yashil iqtisodiyot”ni barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning asosi sifatida qabul qilish mumkin.

Barqaror rivojlanishning konseptual qoidalarini o‘rganar ekanmiz, ko‘plab ilmiy maqolalarni tahlili "barqaror rivojlanish" va "yashil iqtisodiyot" tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlariga bag‘ishlangan. Bu barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida “yashil iqtisodiyot”ning alohida ilmiy tadqiqot sohasi sifatidagi yondashuvligini ta’kidlash uchun asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://sdgs.un.org/ru/2030agenda>
2. <https://www.un.org/ru/youthink/mdg.shtml>
3. <https://lex.uz/docs/5870397>
4. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
5. Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития «Наше общее будущее». Организация объединенных наций. 1987. URL: <http://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf>
6. Meadows D., Randers J. Limits to growth. The 30-Year Update. UK, Earthscan, 2005. 363 p.
7. Pezzey J. Economic analysis of sustainable growth and sustainable development // Environment Department working paper. № ENV 15. Washington, DC: World Bank, 1989. 104 p.
8. Коптюг В.А., Матросов В.М., Левашов В.К. Новая парадигма развития России: комплексные исследования проблем устойчивого развития. М.: Academia; Иркутск: РИЦ ГП «Облформпечать», 2000. 459 с.
9. Урсул А.Д. Становление устойчивой цивилизации: новые глобальные цели // Философия и общество. 2016. № 1 (78). С. 29–56.
10. Устойчивое развитие: Новые вызовы: учебник для вузов / под общ. ред. В.И. Данилова-Данильяна, Н.А. Пискуловой. М.: Аспект Пресс, 2015. 336 с.
11. Тяпухин А. П. Сущность, состав и эволюция системы управления устойчивым развитием региона / А. П. Тяпухин, А. Т. Раимова // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2009. № 19(52). С. 21—29
12. Перелет Р. А. Направления стратегии «зеленого роста». // [rospromeco.com/expertnoe - mneniye /28- analytic /expertnoe-mneniye/](http://rospromeco.com/expertnoe-mneniye/28-analytic/expertnoe-mneniye/)
13. Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЭП, www.un.org/ru/events/chemistry2011/annual_report_2009.pdf
14. Barrier E. B. The concept of sustainable economic development // The economics of sustainability. – Routledge, 2017. – С. 87-96.
15. Mitlin D., Satterthwaite D. Sustainable development and cities // Sustainability the Environment and Urbanisation. – Routledge, 2014. – S. 23-61.
16. Collins A., Munday M., Roberts A. Environmental consequences of tourism consumption at major events: An analysis of the UK stages of the 2007 Tour de France // Journal of Travel Research. – 2012. – Т. 51. – №. 5. – S. 577-590.
17. Daly H. E. Ecological economics and sustainable development. – Edward Elgar Publishing, 2007.
18. Costanza R. Ecological economics in 2049: Getting beyond the argument culture to the world we all want // Ecological Economics. – 2020. – Т. 168. – S. 106484.
19. Levin S. A., Klark W. Toward a science of sustainability // Center for International Development Working Papers. – 2010.
20. Nordhaus W. Evolution of modeling of the economics of global warming: changes in the DICE model, 1992–2017 // Climatic change. – 2018. – Т. 148. – №. 4. – S. 623-640.

21. Розенберг Г.С., Черникова С.А., Краснощеков Г.П., Крылов Ю.М., Гелашвили Д.Б. Мифы и реальность «устойчивого развития» // Проблемы прогнозирования. 2000. № 2. С. 131–154.
22. Гизатуллин Х.Н., Троицкий В.А. Концепция устойчивого развития: новая социально-экономическая парадигма // Общественные науки и современность. 1998. № 5. С. 124–130.
23. Товбина В.Л. Новая экологическая парадигма – важный фактор обеспечения устойчивого развития // Ученые записки Российского государственного гидрометеорологического университета. 2012. № 26. С. 248–265.
24. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.
25. Вахабов А. В., Хажикабиев Ш. Х. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. Спецвыпуск 4. – С. 3-12.
26. Nigmatov A Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari // Monografiya. –Т.: Spectrum Media Group. – 2015. – Т. 120.
27. Бобилев С.Н., Кирюшина П.А., Кудрявцева О.В. Зеленая экономика и цели устойчивого развития для России. МГУ им.М.В.Ломоносова 2019, с. 283
28. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-436-sonli Qarori// <https://lex.uz/uz/docs/6303230>
30. Xasanova, N. (2023). Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(10). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a641.
31. Rajabov N., Adilova M. Mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy-ekologik jihatlari. Monografiya // “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, — Т.: 2024, 156 бет
32. Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management Иктисодиёт ва таълим. – 2022. – Т. 23. – №. Махсус сон. – С. 212-219.
33. Dhar B. K., Shaturaev J., Kurbonov K. The causal nexus between innovation and economic growth: An OECD study, Social Science Quarterly. – 2023. – Т. 104–№4. – С.395-405, [https://doi.org/10.1111/ssqu.13261\(2023b\)](https://doi.org/10.1111/ssqu.13261(2023b)).
34. Shaturaev J., Hakimova M., Kurbonov X, Rajabov N. Crafting a Neutrosophic-Driven Tool to Probe Turnover Propensities in Manufacturing Entities // Journal of Neutrosophic Science, Vol. 23, No. 02, PP. 221-237, 2024. doi.org/10.54216/IJNS.230218.
35. Nazirjon, R., Kurbonov, K., Jakhongir, S., Ibodullo, K., Marguba, A., & Gulshoda, Q. (2023, December). Econometric Analysis of Economic and Ecological Aspects of Sustainable Development of Regions in Terms of Digital Economy. In

International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking (pp. 152-165). Cham: Springer Nature Switzerland.

36. Ражабов Н. (2022). Эркин иқтисодий зоналарда инвестицион муҳит жозибadorлигини бошқариш масалалари хусусида: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a15. Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(3), 101–108. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a512

RAQAMLI PLATFORMALARNING KORXONALAR MARKETING FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

Qulmatova Sayyora Safarovna
TDIU Raqamli iqtisodiyot kafedrası PhD

Annotatsiya

Raqamli platformalar bu – mavjud xizmatlar to‘plamiga buyumlar Interneti va foydalanuvchilar, ko‘p sonli boshqa platformalar kirishini ta‘minlash uchun ochiq interfeysga ega axborot tizimlaridir. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim jihat sifatida bu biznes muhitida hamda odamlar va kompaniyalar muloqotini ishlashni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Ushbu maqolada raqamli platformalarning biznesdagi o‘rni va ularning turlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli platformalar.

Аннотация

Цифровые платформы — это информационные системы с открытым интерфейсом, обеспечивающие доступ пользователей Интернета вещей и большого количества других платформ к набору существующих сервисов. Важнейшим аспектом развития цифровой экономики является упрощение и снижение издержек в бизнес-среде и коммуникации между людьми и компаниями. В данной статье описывается роль цифровых платформ в бизнесе и их виды.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровизация, цифровые платформы.

Abstract

Digital platforms are information systems with an open interface that provide users of the Internet of Things and a large number of other platforms with access to a set of existing services. The most important aspect of the development of the digital economy is the simplification and reduction of costs in the business environment and communications between people and companies. This article describes the role of digital platforms in business and their types.

Keywords: digital economy, digitalization, digital platforms.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning muhim xususiyatlaridan biri bu platformalar va platformaga asoslangan mahsulotlar yoki xizmatlarning ortib borayotganligidir. Platformalar, asosan, tranzaksiyalar uchun vositachi hisoblanadi. Shu bilan birga, Internet kirish va iste'molchilarni qidirish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirdi, bu bozorlar hajmini sezilarli darajada kengaytirdi va iste'molchi kirishi mumkin bo‘lgan korxonalar sonini keskin oshirdi. Raqamli platformalar bozordagi ziddiyatlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Xususan, qidiruv, kirish, tashish va ko‘paytirish xarajatlarining keskin qisqarishi platformalarning roli, innovatsiyalar qiymati va korxonalarining ma‘lumotlar ehtiyojlari va iste‘molchilarning shaxsiy hayoti o‘rtasidagi muvozanatga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi.

AGABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi paytda tarmoqlar va ma'lumotlarga asoslangan biznes modellari bilan raqamli platformalar, ayniqsa, bozorlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda[1]. OECD ma'lumotlariga ko'ra va YUNESKO tomonidan keltirilgan internet vositachilari Internetda uchinchi shaxslar o'rtasidagi operatsiyalarni birlashtiradi yoki osonlashtiradi[5]. Ular Internetda uchinchi shaxslar tomonidan yaratilgan kontent, mahsulotlar va xizmatlarga kirish, joylashtirish, uzatish va indekslash imkonini beradi. Platformaning qiymati to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish imkoniyatini taqdim etish va ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir o'tkazish tartibini osonlashtirishdir[3]. Raqamli platforma bu – raqamli texnologiyalar to'plamidan foydalanish va mehnat taqsimotining o'zgarishi tufayli tranzaksion xarajatlarning kamayishiga olib keluvchi yagona axborot muhiti bilan birlashtirilgan bozor ishtirokchilarining ko'p sonli algoritmlashtirilgan munosabatlar tizimidir[6].

METODOLOGIYA

Yangi raqamli texnologiyalar korxonalar marketing faoliyatini tashkil qilishda qidiruv, kirish, tashish va ko'paytirish xarajatlarini keskin kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ulkan imkoniyatlarni ochib berdi, shunindек, qidiruv xarajatlarining kamayishi ko'pincha yirik raqamli platformalar orqali almashishni osonlashtiradi[7]. Athey and Ellison tomonidan platformalarning iste'molchi qidiruviga rahbarlik qiluvchi axborot vositachilari sifatidagi ro'lini ko'rsatib berildi[2]. Bu modellarida platforma sotuvchilarga auksionlar orqali taqdim etiladigan ma'lum miqdordagi reklama pozitsiyalariga ega va sotuvchilar o'zlarining takliflari tartibida platformaga joylashtiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini onlayn xarid qilish va restoranlarga onlayn buyurtma berish ko'plab qulayliklar yaratgan. Raqamli platformalarning korxonalar marketing faoliyatini samarali tashkil etishda katta ahamiyati mavjud, bu vositachilarni raqamli iqtisodiyotda sotuvchilar va mahsulotlar o'rtasidagi operatsiyalarni osonlashtiradi.

Umuman olganda, kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati ya'ni mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko'payishini ta'minlaydi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi, aholining joriy daromadlari va jamg'armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko'tarilishiga zamin yaratadi, sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi, davlat byudjet mablag'larining bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi, tashqi iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etadi, resurslardan oqilona foydalanish, yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumayev N.X. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishi. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlik-mamlakatimiz-iqtisodiyotining-ustuvor-yunalishi>

2. Xalilov N.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari. Journal of marketing, business and management.2023 y.27-34 b. <file:///C:/Users/WorkStation/Downloads/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikni-rivojlantirish-yo-llari.pdf>

3. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari 2023- yil yanvar-dekabr. O'zStat. <https://stat.uz>

4. Jay Conrad Levinson, Paul R. J. Hanley. The Guerrilla Marketing Revolution: Precision Persuasion of the Unconscious Mind. — Piatkus Books, 2005. — 192 p. — ISBN 978-0749926113.

5. Vales W.J. Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W.J. Wales, V.K. Gupta, F.T. Mousa // International Small Business Journal. – 2013. — №31(4). – P. 357-383.

TURISTIK ZONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saydaliyeva Umidaxon Solijon qizi

TDIU, tayanch doktorant,

Tel:(91)150-84-34

Annotatsiya

Ushbu maqolada turistik zona turlari, ular rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-iqtisodiy omillar, turistik zonalar mahsulotining shakllanish va iste’mol jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turistik rekreatsion zona, erkin iqtisodiy zona, maxsus iqtisodiy turistik rekreatsion zona, tashkiliy-iqtisodiy omillar, turistik zonalar mahsuloti.

Аннотация

В данной статье описаны типы туристских зон, особенности их развития, организационно-экономические факторы, процесс формирования и потребления продукции туристских зон.

Ключевые слова: туристско-рекреационная зона, свободная экономическая зона, особая экономическая туристско-рекреационная зона, организационно-экономические факторы, продукция туристских зон.

Annotation

This article describes the types of tourist zones, features of their development, organizational and economic factors, the process of formation and consumption of products of tourist zones.

Keywords: tourist and recreational zone, free economic zone, special economic tourist and recreational zone, organizational and economic factors, products of tourist zones.

KIRISH

Jahonda turistik zonalarni tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish, turistik xizmatlarning sifati va qamrovi samaradorligini oshirish yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, turistik zonalarni rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, milliy iqtisodiyotda uning rivojlanish modelini ishlab chiqish, mintaqalarning investitsion turistik jozibadorligini oshirish, zamonaviy turizm infratuzilmalarini shakllantirish, valyuta tushumlarini ko‘paytirish barobarida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik zonalar o‘z ixtisosligiga yoki asosiy faoliyat turiga qarab turistik zonalar turlicha ta’riflanadi:

Bugungi kunda rekreatsion-turistik zonalar deganda rekreatsion va turistik mahsulotlar yaratilgan, infratuzilma jamlangan, rekreatsion va turistik oqimlar yo‘naltirilgan eng istiqbolli hududlar tushuniladi[1].

An'anaviy tadbirkorlik zonasi singari turistik zonasi ham korxonalariga boshqa joylarda mavjud bo'lmagan davlat va mahalliy soliq imtiyozlaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu rag'batlantirishning maqsadi biznesni jalb qilish, o'sishni rag'batlantirish va aholining muayyan hududlarida bandlik imkoniyatlarini oshirishdir[2].

Turistik-rekreatsion maxsus iqtisodiy zona – davlatning geografik jihatdan cheklangan hududi bo'lib, uning doirasida turizmni, shuningdek, turizmning raqobatdosh ustunliklarini va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan tegishli faoliyatni amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida imtiyozli iqtisodiy rejim o'rnatiladi[3].

Turistik zonalar - tabiati, tarixi, madaniyati yoki boshqa jihatlari bilan chambarchas bog'langan turistik obyektlardan iborat hududdir. Turistik zona sayyohlik obyektlari o'rtasida hamkorlik qilish orqali sayohat davomida uzoqroq qolish imkonini yaratish uchun mo'ljallangan va bu joylarning jozibadorligini oshirishga qaratilgan [4].

Turistik-rekreatsion zona - bir yoki bir nechta bog'liq bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki havaskor turistlar tomonidan foydalaniladigan turistik va rekreatsion resurslarga ega bo'lgan hududdir[5].

Turistik va rekreatsion zona - turizmni ustuvor rivojlantirish uchun mo'ljallangan hudud bo'lib, bunda hududning ekologik va iqtisodiy funksiyalarini turistik va rekreatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi[6].

Turistik zona deganda iqtisodchilar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan turizmni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan, tarixiy, madaniy va tabiiy ko'rgazma obyektlari jamlangan hududni tushunishadi[7].

METODOLOGIYA


Maqolada ilmiy mushohada, kuzatish, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda turistik zonalarini rivojlantirish chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish, uni samarali rejalashtirish, turistik korxonalar faoliyatini tashkil etishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan mamlakatimiz sharoitida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim masalalar qatoriga kiradi. "Iqtisodchilarning baholariga qaraganda, turizm sohasidan olinadigan pul tushumlari bir yil davomida har qanday mamlakatda 3-martadan 5-martagacha muomalada bo'ladi. Shuning uchun turistik xizmatlar bozori har qanday davlat, mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi va byudjet daromadlarini keskin oshiruvchi tarmoq hisoblanadi. Katta mablag'lar talab qilishiga qaramay, turizm sohasiga investitsiyalar kiritish ham ancha foydali bo'lib, bu mablag'lar nisbatan tez muddatlarda o'zini oqlaydi" [8].

Turistik zonalar mamlakatlarning iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy katalizator vazifasini bajaradi. Turistik zonalar rivojlanishiga turizmning bevosita ta'siri turistik mahsulotlar ishlab chiqish darajasini oshirish orqali turistlar mablag'lari jalb qilinadi, faol mamlakat iste'mol bozori tashkil etiladi va turistik zonalar industriyasining investitsiyali jozibadorligi hamda mamlakatdagi turizm industriyasi korxonalari soni oshadi. Chunki taqdim

etilayotgan turistik xizmatlar sifatini oshirish malakali ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlar sonini oshirishni talab etadi (1-rasm).




1-rasm. Turistik zonalarning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy omillari¹

Hozirgi vaqtda turizm respublikamiz iqtisodiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Mamlakat darajasida turizmning roli ko'pgina elementlarni o'z ichiga oluvchi turistik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Turistik zonalarda turizm mahsulotlarini shakllantirish va realizatsiya qilish ushbu hududdagi korxonalar va tashkilotlar doirasida amalga oshiriladi. Bunday xo'jalik yurituvchi subyektlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin (2-rasm).

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan



2-rasm. Turistik zonalarda turistik mahsulotni shakllantirishda ishtirok etadigan korxonalar va tashkilotlar¹

Turistik zonalarda turizmni rivojlantirishning asosiy natijasi tashrif buyuruvchi turistlarning dam olish vaqtida amalga oshiriladigan xarajatlarning jalb qilinish darajasi bilan belgilanadi. Turistik tashriflar vaqtida turist oddiy hayot tarziga qaraganda bir muncha ko'proq pul mablag'larini sarflaydi, shu sababli turizm sohasi mahalliy bozorni qo'shimcha valyuta bilan ta'minlashga hamda mamlakat to'lov balansini yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turistik zonalarni rivojlantirish ko'p qirrali majmua xususiyatiga ega. Shuning uchun mamlakatda turistik zonalarni faoliyatini rivojlantirishda quyidagilarning amalga oshirilishini tavsiya qilamiz:

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

- mamlakatning turistik zonalarini baholash va ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish;
- mavjud turistik zonalar obyektlarining holatini yaxshilash va yangilarini tashkil etish;
- mamlakatdagi turistik zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularni doimiy nazorat qilish;
- mamlakatlarning turistik mahsulotini milliy va xalqaro turizm bozoriga chiqarish bo'yicha marketing faoliyatini amalga oshirish hamda marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish;

Taklif qilingan tavsiyalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining samarali yo'nalishi sifatida xalqaro va ichki turizm xizmatlari bozorining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Mamlakatda turizm sohasining rivojlanishi kuchli multiplikativ samara bilan birgalikda kechadi. Bu holni ko'p yillik jahon tajribasi va ko'plab ilmiy izlanishlar tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova G., Kazakov A. Prospects for the development of recreation and tourist zones of the Tashkent region in the context of the preservation of the ecosystem of the region <https://inscience.uz/index.php/socinov/inde>

2. Tourism zones in the commonwealth of Virginia//www.vatc.org/tourism/zones/zones

3. Плисецкий Е.Е. Особые экономические зоны как форма территориальной организации туристической отрасли в России автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата географических наук Москва — 2012.

4. JTA Tourism Zone Development Act|Creating Tourism Destinations|About Policy|Japan Tourism Agency. Available online: <http://www.mlit.go.jp/kankocho/en/shisaku/kankochi/seibi.html>

5. Полякова Ирина Леонидовна развитие региональных туристско-рекреационных комплексов 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (региональная экономика) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Оренбург-2013.

6. Евстропьева О.В., Бардаш А.В., Будаева Д.Г. методологические подходы к туристско-рекреационной дифференциации территорий с особыми условиями использования //Современные проблемы сервиса и туризма 2019. Т.13. № 1. С. 9. DOI: 10.24411/1995-0411-2019-10102

7. Королёва Н.В. Рекреационная зона как структурная территориальная единица экономики государства <https://cyberleninka.ru/article/n/rekreatsionnaya-zona-kak-strukturnaya-territorialnaya-edinitsa-ekonomiki-gosudarstva>

8. Тухлиев И.С., Хайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. “Туризм асослари”. Дарлик. Т.: “Фан ва технология” 2014 й.-314 б.

SANOAT KORXONALARI EKSPORT STRATEGIYASINI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mansurov Saidxo‘ja Kamalovich

TDIU, tayanch doktorant

e-mail: said.mansurov1988@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalarini strategik rejalashtirish va eksport strategiyasini yaratishning ilmiy-nazariy asoslari hamda xorijiy olimlar tomonidan bu boradagi qarashlari bilan birgalikda muallifning fikrlari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqobatbardosh, strategik rejalashtirish, sanoat, resurslar, ishlab chiqarish, eksport, marketing, daromad, logistika, sertifikatlash, tashqi iqtisodiy faoliyat, bozor segmenti, tashkilot, tovar-bozor matritsasi, missiya, korporativ, funksional.

Аннотация

В данной статье представлены научно-теоретические основы стратегического планирования промышленных предприятий и создания экспортной стратегии, а также взгляды зарубежных ученых на этот счет, а также мнения автора.

Ключевые слова: конкурентное, стратегическое планирование, промышленность, ресурсы, производство, экспорт, маркетинг, выручка, логистика, сертификация, внешнеэкономическая деятельность, сегмент рынка, организация, товарно-рыночная матрица, миссия, корпоративный, функциональный.

Abstract

This article presents the scientific and theoretical foundations of strategic planning of industrial enterprises and the creation of an export strategy, as well as the views of foreign scientists on this matter, as well as the opinions of the author.

Keywords: Competitive, strategic planning, industry, resources, production, export, marketing, revenue, logistics, certification, foreign economic activity, market segment, organization, product-market matrix, mission, corporate, functional.

KIRISH

Global integratsiyalashuv sharoitida jahon iqtisodiyotida barqaror o‘shishga erishish, iqtisodiy xatarlarni yumshatish va bozordagi mavjudlikni diversifikatsiya qilish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatdosh ustunliklardan foydalanishni maqsad qilgan korxonalar uchun mustahkam sanoat eksporti strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bundan strategiyalar korxonalar uchun bozordagi uzoq vaqt muvaffaqiyatini ta’minlaydi, raqobat ustunliklar yaratadi va iqtisodiy xavflarni yumshatib, innovatsiya va moslashuvni rivojlantirishni ta’minlaydi. Sanoat eksporti strategiyasini

shakllantirish va amalga oshirish nafaqat bozorni kengaytirishga yordam beradi, balki strategik resurslarni boshqarish, innovatsiyalar va bozor dinamikasiga moslashish orqali raqobatbardosh global muhitda biznesni rivojlantirishga yordam beradi. Shunga ko'ra sanoat korxonalarini eksport strategiyasini yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

I. Ansoffning fikricha, strategiya, bu — belgilangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan yo'nalish majmuasini shakllantirish uchun mo'ljallangan tizim hisoblanadi.[7] I. Ansoff korxonani strategiyasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy qarorlar guruhini belgilaydi: tashkilotni ichki baholash; tashqi imkoniyatlarni baholash; maqsadlarni shakllantirish va vazifalarni tanlash; mahsulot strategiyasi bo'yicha qaror; raqobat strategiyasi; muqobil loyihalarni yaratish; ularni tanlash va amalga oshirish.

I. N. Gerchikova "strategiya" tushunchasini kelajak uchun ishlab chiqilgan va kompaniya tomonidan belgilangan aniq maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan tizim sifatida tushunadi [8]. P. S. Zavyalov va V. E. Demidov strategiyani asosiy maqsadga erishish uchun muammolar va resurslarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydigan umumiy harakatlar dasturi sifatida belgilaydilar.[9]

D. Daniels va X. Radeba "Xalqaro biznes" darsligida eksport strategiyasini ishlab chiqishning quyidagi rejasini ta'riflaydilar:[10]

- 1) kompaniyaning eksport salohiyatini nisbatlar bo'yicha baholash uning imkoniyatlari va resurslari;
- 2) ixtisoslashtirilgan konsalting firmalarida eksport bo'yicha ekspertlardan yordam olish;
- 3) bozor yoki bozorlarni tanlash;
- 4) eksport maqsadlarini aniqlash va kompaniya mahsulotining tanlangan bozorga kirishini ta'minlash.

S. Popovning "Firmaning tashqi iqtisodiy faoliyati" kitobida kompaniyaning eksport bozorlaridagi xatti-harakatlari uchun quyidagi strategiya keltirilgan:[11]

- 1) korxonaning ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- 2) mahsulot siyosatini belgilash;
- 3) narx siyosatini belgilash;
- 4) sotish siyosatini belgilash;
- 5) aloqa siyosatini belgilash.

Iqtisodiy adabiyotlarda strategiyaning asosini ko'rib chiqilishida strategiyalarni ishlab chiqish va tahlil qilish uchun bir nechta turdagi modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ular sanoat mahsulotlari strategiyasini shakllantirish jarayonida turli xil uslublarda qo'llanilishi mumkin. 1957 yilda Ansoff I. birinchilardan bo'lib o'zining "tovar-bozor" matritsa nazariyasini ishlab chiqqan. Iqtisodchi tomonidan ishlab chiqilgan matritsaga muvofiq strategik o'sish mahsulot va bozor segmenti uchun kompaniya strategiyasini harakatlanish mezonlarini baholashi mumkin bo'ladi.

I. Ansoff o'zining SWOT-tahlilida bozorlarga kirish xususiyatlari bilan birgalikda mahsulotning iste'mol talabidan kelib chiqib rivojlantirishni ilgari surgan.

Uning bozorlarga kirib borish va mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirish strategiyasi quyidagicha:[12]

- 1) bozorlarga kirish;
- 2) mahsulot ustida ish olib borish;
- 3) bozorlarni rivojlantirish;
- 4) diversifikatsiya.

Agarda korxonaning yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlari va aylanma mablag'lari deyarli mavjud bo'lmasa, bunda yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqilishi tufayli yangi bozorlarni o'zlashtirish strategiyasiga to'g'ri keladi.

Ansoffning SWOT tahlil analizi shuni anglatadiki, unda mahsulotning harakatlanish tizimi bosqichma-bosqich keltirilgan. Bozorlarga kirish strategiyasida tovar va bozorlarni muvofiqlashtirish orqali tovar va bozorga parallel tarzda ish olib borilishini ko'rsatib bergan. Mahsulot ustida ish olib borish bosqichida mahsulotdan foydalanish ko'rsatkichlarini oshirish, yangi turdagi har xil assortimentga ega bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarni yaratilishini ilgari suradi. Shundan so'ng bozorlarni rivojlantirish bosqichida bozorlarda yangi iste'mol qatlamlar va yo'nalishlarni kengaytirish nazarda tutilgan. Yakuniy bosqichda korxonaning kelgusidagi yangi bozorlarni va mahsulot turlari assortimentlarini o'zlashtirilishini bildiradi.

Eksport strategiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha umumiy strategiyaga ahamiyat berilib, bunda, asosan, ishlab chiqarilgan mahsulot turlari ajratilishi va mamlakatlar miqyosida divizional usullardan foydalanish ko'rsatkichlarini qo'llash inobatga olinmaydi.

Shu munosabat bilan umumiy eksport strategiyasiga qo'shimcha ravishda, tashqi bozor segmentining xususiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, ishlab chiqarilgan har bir mahsulot turlari bo'yicha alohida tashqi bozor segmentlarini ishlab chiqish, shu bilan birgalikda, har bir korxonaga uchun alohida eksport strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday holatda umumiy eksport strategiyasi korxonada qo'llaniladigan marketing strategiyasini hisobga oladigan universal dastur sifatida taqdim etilishi mumkin. Shu bilan birga, strategiya korxonaning amaldagi eksport holatidan belgilangan maqsadlar asosida rivojlanish istiqbolga o'tishga imkon beradigan vosita sifatida ishlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, tashqi bozorlardagi o'rnatilgan talablarga muvofiq eksport faoliyatini amalga oshirilishida korxonaga imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu esa ichki bozorning raqobatbardoshlik darajasi, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirilishi, ishlab chiqarish obyektlarining mavjudligi va mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Korxonaning eksport salohiyati — bu korxonaga tomonidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarib, ularni tashqi bozorlarga yo'naltirish orqali katta daromad sifatida qaraladi. Shunday ekan, strategik maqsadlarga erishilishidagi asosiy masala eksport mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, mahsulotlarni uzoq muddatga tashqi bozorlarga yo'naltirishda eksport strategiyasini ishlab chiqilishini inobatga olish kerak. Eksport mahsulotlarini jahon bozorlarida uzoq muddatga o'z brendini saqlab qolishda quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– eksportni muntazam amalga oshirilishida mamlakatning ichki bozorida raqobatbardosh bo‘lgan va bozor segmentiga ega nisbatan barqaror mahsulotlar taklif etiladi. Eksportga taklif etilayotgan bunday mahsulotlarning raqobatbardoshligi uning iste‘mol xususiyatlari bilan belgilanadi, ular mahsulot ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan dizayn va texnologik tamoyillarga asoslangan eng muhim xususiyatlarini tavsiflaydi va sanoat mahsulotlarning iste‘mol hajmi, unumdorligi va narxini belgilaydi. [13]. Shuning uchun mahsulot tashqi bozor uchun “yangi mahsulot” nomi sifatida yuritiladi;

– eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar mahalliy yoki xorijiy investorlar tomonidan ishlab chiqarishni amalga oshirilishi bilan boshlanadi. Korxonada ishlab chiqarish quvvatini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish uchun olingan litsenziyalar natijasida ishlab chiqarish jarayoniga kirishiladi;[14]

– eksportga jalb etilgan mahsulotlar tashqi muhitda an’anaviy bozorlarni o‘zlashtirgandan so‘ng raqobat muhiti xalqaro doiraga ko‘tariladi.[15]

METODOLOGIYA

Sanoat mahsulotlari eksport strategiyasi ishlab chiqishning nazariy uslublarini bir qator yondashuvlar asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xorijiy tajribalarni o‘zlashtirilishi, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining pastligi raqobatchilarni bozordan chiqarib yuborish imkoniyatiga ega. Fikrimizcha, sanoat mahsulotlarining eksport strategiyasini rejalashtirish nazariyasi besh bosqichli yondashuv sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

– birinchi yondashuv korxonada eksport faoliyatini amalga oshirish bosqichiga etib kelishi. (Bunda korxonada aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganligi qisqa va uzoq muddat ichida ichki bozorlarga tayyor raqobatbardoshli mahsulotlarni etkazib berilishi va mijozlarni ko‘paytirib borishi hamda korxonaning ishlab chiqarish obyektlarini kengayishi orqali eksport faoliyatini amalga oshirish bosqichiga olib keladi).

– ikkinchi yondashuv mamlakatning (eksport faoliyatini amalga oshiruvchi korxonada) davlat tomonidan tadbirkorlarga eksportni qo‘llab quvvatlashga berilayotgan imkoniyatlar va qonunchilikdagi imtiyozlarni amalda tatbiq etilishi;

– uchinchi yondashuv ishlab chiqilgan raqobatbardosh sanoat mahsulotlarini eksportga yo‘naltiruvchi mamlakatlar kesimida joylashtirilishi lozim bo‘ladi. (importyor mamlakatning geografik joylashinuvi, logistika va iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda strategik nazariyani shakllantirish).

– to‘rtinchi yondashuv yuqoridagilarga ko‘ra, importyor mamlakatlar talabidan kelib chiqqan holda, sanitariya va gigiyena talablarga muvofiq laboratoriya jihozlarini zamonaviy ko‘rinishda bo‘lishi va ishlab chiqilgan mahsulotlar kesimida sertifikatni olish uchun shartnomalar tuzish.

– beshinchi yondashuv eksport shartnomalarni tuzish va boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish (eksport shartnoma tuzilgandan so‘ng, shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda mahsulotni etkazib berilishini ta‘minlash maqsadida, korxonada ishlab chiqarish liniyalarini nazoratga olish, vujudga kelishi mumkin


bo‘lgan muammolarni oldindan bartaraf etish, xom ashyo bilan uzluksiz ta‘minlash, shuningdek ishchilarni bekor turib qolishini oldini olish va bandligini ta‘minlash).[16]

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarini tomonidan raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorlarga uzoq muddatga yo‘naltirishda va mahsulotning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini saqlab qolishni ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlardan yuqori foyda olishda strategik rejalashtirishning ahamiyati muhim sanaladi. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar tashqi bozorlarga o‘z vaqtida etkazib berilishini ta‘minlashda, bevosita korxonaning boshqaruv uslubini joriy etilishida strategik rejalashtirish amalga oshiriladi.[1]

Yuqoridagilarga ko‘ra, “strategik rejalashtirish” va “eksport strategiyasi” atamalarini uzviy bog‘liqligini keltirish mumkin. Strategiya atamasi ilgari harbiy atamalarda qo‘llanilgan bo‘lib, so‘ngra esa ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy atama sifatida XX asrning 50-60 yillarida qo‘llanila boshlandi. Shu vaqtlardan boshlab sanoat korxonalarini boshqarish uslubini joriy etishda strategiyaning mazmun va mohiyatini ochib berishda bir qancha yondashuvlar shakllandi.

Strategik rejalashtirish sohasidagi taniqli mutaxassis I.Ansoffning fikricha, strategik rejalashtirish, korxonaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlanishi, yaratilgan imkoniyatlardan to‘laonli foydalanish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan himoya qilishga yordam berish jarayoni hisoblanadi.



1-rasm. Strategik rejalashtirish jarayoni¹

¹ Manba: Ansoff H.I “Implanting strategic management”-Springer, 2018 y. ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

I. Ansoffning ta'rifiga tayangan holda puxta ishlab chiqilgan strategik reja korxonaga iqtisodiy samara keltirish bilan birga har qanday vaziyatda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga echim topilishi bilan belgilanadi.[2]

I. Ansoff strategiyaga "Tashkilotni barcha bosqichlarida boshqariladigan qarorlar qabul qilish qoidalari" deb ta'rif bergan. Uning ta'rifiga ko'ra, to'rt xil turdagi strategiyalar mavjud.

-Firmalarning hozirgi va kelgusi faoliyatidagi natijadorligini qoidalar asosida baholash. Baholash mezonlari ko'rsatma, mazmun miqdori vazifa deb nomlanadi.

-Firmaning tashqi muhit bilan munosabatlari shakllantiriladigan qoidalar (qaysi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni qayerda va qanday ishlab chiqish kerak va h.k). Ushbu qoidalar to'plami mahsulot-bozor strategiyasi yoki biznes strategiyasi deb ataladi.

-Tashkilot ichidagi jarayonlar va tartib munosabatlar o'rnatiladigan qoidalar. Ushbu qoidalar tashkiliy tushunchalar deb ataladi.

-Firmaning kundalik faoliyatini amalga oshirish qoidalari—asosiy tezkor qarorlar.

I. Ansoffning ilgari surgan nazariyasi ishlab chiqarish jarayonida keng qamrovli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib, uning mahsulot-bozor strategiyasi bo'yicha keltirgan ta'rifi bu korxonalarda strategik rejalashtirishning bozor segmentiga qaratilganligini tushunish mumkin.

F. Longning ta'rifiga ko'ra, korxonalar strategiyasi bu—sanoat korxonalarining uzoq muddatli maqsad va vazifalarni belgilovchi, harakat yo'nalishini hamda resurslarni taqsimlovchi vosita deb hisoblaydi. Mazkur ta'rifda puxta reja asosida mahsulot ishlab chiqarish va resurslarni shakllantirib borishga qaratilgan.[3]

A. Tompson va A. Striklend strategik rejalashtirishning besh vazifasini hal etish uchun yaratilgan tizim orqali ko'rib chiqadilar. Bular:

- korxonalar faoliyat turini aniqlash va strategik yo'riqnomalarni shakllantirish;
- strategik maqsadlar va ularni amalga oshirish vazifalarni belgilash;
- ishlab chiqarish faoliyatning ko'zlangan maqsadlari va natijalarga erishish strategiyasini shakllantirish;
- strategik rejani amalga oshirish; rejani yoki bajarish usullarini o'zgartirish va faoliyat natijadorligini baholash.[4]

Ushbu olimlarning strategik rejalashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari mahsulot va bozorga yo'naltirilganligini, shuningdek, bozor iqtisodiyoti globallashtirish davrida korxonalar joriy qilinishi lozim bo'lgan tizim sifatida keltirish mumkin.

Eksport faoliyatini tashkil etishda alohida masala tovar tanlash hisoblanadi. Bu erda turli xil yondashuvlar bo'lishi mumkin. Ulardan eng oddiy korxonada ishlab chiqarilgan tovarlarni tashqi bozorga etkazib berishdir. Bunday holda mahsulotni standartlashtirish strategiyasi qo'llaniladi. Marketing bo'yicha mutaxassislar ma'lum bir mahsulotga hech qanday o'zgartirish kiritmasdan xaridor topish vazifasi yuklanadi. Ko'pincha, Rossiya kompaniyalarining menejerlari o'z mahsulotlari raqobatbardosh bo'lishiga imkon beruvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega emas deb hisoblashadi. Ammo o'ziga xoslik tashqi bozorga chiqishning yagona yo'li emas. Nikolay Grishko o'z kompaniyasining eksport strategiyasini rus baletining obraziga

asosladi. Chet ellik xaridorlarni Mayya Plisetskayaning vatanida yaxshi balet shippaklarini ishlab chiqarish mumkinligiga ishontirish qiyin emas edi. Hozirda Grishko kompaniyasi balet poyafzallari ishlab chiqaruvchi dunyodagi uchta etakchi kompaniyalardan biri hisoblanadi.[5]


G.Minzbergning ta'rifiga ko'ra, strategik rejalashtirish rasmiy va operativ tushunchalarga bo'lingan. Jumladan: rasmiy rejani aniqlashtirilishi murakkab jarayon bo'lib, unda kelgusini hisobga olish va nazorat qilish, qarorlar qabul qilishning yaxlit tizimini yaratishning rasmiylashtirilgan tartibi sifatida izohlaydi. Operativ rejalashtirish bu korxonaning ishlab chiqarish faoliyati davomida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ayrim holatlar echimi uchun vaqtinchalik ishlab chiqiladi.[6]

Fikrimizcha, G.Minzbergning rasmiy rejaga bergan tushunchasi bu- puxta ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillari asosida korxonada o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ayrim holatlar yoki muammolarni bartaraf etishda operativ rejaga tayanmagan holda boshqaruv salohiyatining oqilona echimlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, G.Minsberg strategiyaning korxonalarga qo'llashda umumlashtirilgan ta'rifini aniqlashga harakat qilgan. U o'zining "5R" strategiyasida reja (plan), namuna, model, shablon (pattern), strategik joylashuv (position), rivojlanish istiqboli (perspective), hiyla va chalg'ituvchi omillar (ploy) ni joylashtirgan. Ushbu nazariyaga muvofiq tadqiqotchida boshqaruv strategiyasini nazariy va amaliy qismlarini keng yoritishga urinish bo'lgan, biroq korxonani strategik boshqarishdagi hiyla va chalg'ituvchi omillarni korxonaning boshqaruv strategiyasiga mantiqan mos tushmasligi sababli ushbu omilni ko'proq boshqa sohalarda qo'llash tavsiya qilinadi.

Ushbu rivojlanish ta'rifi A.Chandler va I.Ansoff tomonidan berilgan ta'riflarini birlashtiradi. Fikrimizcha, iqtisod yo'nalishidagi adabiyotlarda mavjud bo'lgan strategik rejalashtirish haqidagi barcha qarashlarni hisobga olib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: strategik rejalashtirish korxonani tashqi sharoitlarga moslashishini ta'minlaydi, chunki u o'ziga muhim element sifatida tashqi muhit tahlilini va uning salbiy ta'siriga qarshi usullar ishlab chiqishini o'rganadi.

Strategik boshqaruv faoliyati bu — tashkilotning maqsadlari va vazifalarini belgilash chog'ida uning samarali rivojlanishi, korxonada oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishishda korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda hamda ichki va tashqi muhit o'rtasidagi bir qator munosabatlarni saqlab qolish bilan bog'liq faoliyat sifatida keltiriladi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosida sanoat korxonasi nisbatan eksportni strategik rejalashtirish jarayoni doirasida boshqaruv faoliyatining beshta asosiy turini keltiramiz (2-rasm).



2-rasm. Boshqaruv faoliyatida eksportni strategik rejalashtirish jarayoni¹

Yuqoridagi rasimga muvofiq boshqaruv faoliyati doirasida strategik maqsadlar bosqichida rejalashtirilgan mahsulot turi, sifati va narxini belgilash jarayonida raqobatbardoshlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Hamkorlar ishtirokida eksport shartnomalar imzolanganidan soʻng korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga kirishib, resurslar taqsimlanadi. Bunda korxonani boshqaruv bilan bogʻliq boʻlgan byudjet daromad manbalarini koʻrib chiqish va ularni taqsimlash, xomashyolarni ishlab chiqarish jarayoniga oʻz vaqtida etkazib berish, ishchi va xodimlarni malaka va funksiyalariga muvofiq, toʻgʻri yoʻnaltirish va boshqalar amalga oshiriladi.

Korxonaga resurslar toʻgʻri taqsimlangandan soʻng ishlab chiqarish jarayoni boshlanadi. Bunda korxonada belgilangan eksport strategiyasini amalga oshirish bosqichiga oʻtadi. Muvofiqlashtirish jarayoni boshlangʻich va yakuniy bosqich jarayonlarni birlashtiradi. Unda eksport shartnomalari oʻz vaqtida bajarilishi, ishlab chiqarishni uzluksiz ishlashini nazorat qilish, vujudga kelishi mumkin boʻlgan kamchiliklarni oldindan bartaraf etishni oʻz ichiga oladi.

Yakuniy bosqichda tayyor boʻlgan raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yoʻnaltirish bosqichiga oʻtiladi va shartnoma shartlari toʻliq bajarilgandan soʻng korxonani faoliyati tahlil qilinadi.


Fikrimizcha, strategik rejalashtirish jarayonining tarkibiy elementlarini koʻrib chiqishda strategik rejalashtirish bosqichlarining tuzilishi va mazmuni S. Vuton va T.Xornom tomonidan taklif qilingan nazariyada toʻliq ochib berilgan va quyidagilardan iborat.

-Strategik faoliyatning yoʻnalishlarini tanlash bosqichi. Korxonada maqsadlarini aniqlash, rejalashtirish va kutilayotgan natijalar tahlili hamda ularning maqsadlar oʻrtasidagi tafovutlarni aniqlash.

¹ Muallif ishlanmasi

-moliyaviy maqsadlar rejalashtirilgan faoliyatning natijalari shu jumladan, korxonada daromadining oʻsishi, tashkilotning kredit toʻlov qobiliyatini oshirish va mahalliy loyihalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan xolda korxonada va mamlakat valyuta tushumlarini koʻpaytirish.

Korxonalarining ichki bozordagi faoliyatidan farqli oʻlaroq, eksport qilishda hozirgi vaqtda moliyaviy maqsadlardan koʻra strategik maqsadlar ustunlik qiladi, bu tashqi bozorlarda faoliyat yuritishning birinchi bosqichlarda ularning bozor mavqeyini mustahkamlash zarurati bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan maqsadlar asosida korxonaning eksport strategiyasi shakllanadi (4-rasm).



4-rasm. Korxonada eksport strategiyasining tarkibiy tuzilishi¹

Umuman olganda, ushbu atamaning mohiyatini hisobga olgan holda tashkilotning strategik rivojlanishi sohasidagi turli mualliflarning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin.

Eksport strategiyasini ishlab chiqish elementlaridan biri bu jarayonni boshqarish mexanizmlarini yaratishdir. Eksport strategiyasini boshqarish uni amalga oshirish uchun sharoit yaratish bilan bogʻliq. Bu jarayon alohida amalga oshirilmaydi, bu kompaniyaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishning umumiy jarayonining ajralmas qismidir. Boshqaruvni tashkil etish koʻp jihatdan kompaniyaning tashqi iqtisodiy faoliyatda qay darajada ishtirok etishiga bogʻliq. Agar kompaniya eksport faoliyatini endigina boshlayotgan boʻlsa, unda bu funksiyani alohida mutaxassislariga topshirish tavsiya etiladi. Eksport va boshqa tashqi iqtisodiy operatsiyalarning doimiy xususiyatini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan boʻlinma — tashqi iqtisodiy faoliyat boʻlimi tashkil etiladi. Uning asosiy vazifasi tashqi iqtisodiy faoliyatni rejalashtirish, yangi eksport buyurtmalarini izlash, eksport narxlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, tuzilgan shartnomalar boʻyicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat

¹ Manba: Ilmiy maqolalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

qilishdan iborat. Bo‘limni tashkil etish o‘rnatilgan yoki maxsus shaklga ega bo‘lishi mumkin. Birinchi holda bo‘lim faqat asosiy funksiyalarni bajaradi (shartnomalar tuzish, ularning bajarilishini nazorat qilish, biznes muzokaralarini tayyorlash va o‘tkazish va boshqalar), boshqa zarur funksiyalar tegishli bo‘limlarda (buxgalteriya hisobi, iqtisodiy bo‘lim, marketing xizmati va boshqalar) amalga oshiriladi. Tashkilotning maxsus shakli tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘limida barcha zarur funksiyalar amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini shakllantirish jarayonida ushbu jarayonning barcha ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Ushbu vazifa kompaniya faoliyati yo‘nalishlari va uning maqsadlariga muvofiq tuzilgan muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Uzoq muddatli davrda har qanday sanoat korxonasi rivojlanishining asosi iste‘molchilarning mahsulot sifati va iste‘molning taxminiy hajmiga nisbatan kutilayotgan talablarini hisobga olgan holda tuzilgan strategik harakatlar rejasining mavjudligi hisoblanadi. Korxonaning marketing xizmati doirasida mahsulot ishlab chiqarish va sotishning rejalashtirilgan ko‘rsatkichlariga erishish uchun kompaniyaning potensialini ikkita asosiy yo‘nalishda ochib berish imkoniyatlari baholanadi: allaqachon rivojlangan bozor sektorida an‘anaviy xaridorlarga sotishni ko‘paytirish va yangi tez rivojlanayotgan bozorlarga chiqish orqali sotish bozorlarini kengaytirish.

Eng maqbul eksport strategiyasini tanlashning alohida ahamiyati chet el bozorida tovarlarni sotish jarayoniga hamroh bo‘ladigan jiddiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Ushbu bozorga kirishni rejalashtirish tashqi bozorni aniq tahlil qilish bilan muvaffaqiyatli zabt etish uchun zarur shart bo‘lib xizmat qilishi, aksincha, tanlangan bozorga kirish vazifasini bajarishni murakkablashtirishi mumkin bo‘lgan ko‘plab tashqi va ichki omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Umumiy eksport strategiyasidan tashqari xorijiy bozor segmentining xususiyatlarini hisobga olgan holda ma‘lum bir mahsulot turi uchun ishlab chiqilgan marketing strategiyalarini, shuningdek, eksport assortimentini ishlab chiqaradigan korxonaning strategik ishlab chiqarish bo‘linmalarining har bir turi uchun ajratish zarurligi alohida ahamiyatga ega. Bu bilan eksport jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli muammolarning oldi olinishiga erishish mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada adabiyotlardan olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi muhim xulosalarga ega bo‘ldik:

– eksport O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda, ayniqsa, paxta-to‘qimachilik tarmog‘i kabi sanoat klasterlari sharoitida muhim o‘rin tutadi. Eksport hajmini oshirish mamlakat daromadlarini oshirishga yordam beradi va barqaror iqtisodiy o‘shishga yordam beradi;

– sanoat klasterlarining eksport salohiyatini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajriba nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki mahsulot sifatini oshirish,

marketing strategiyalarini ishlab chiqish va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashni ham o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuv muhimligini ta'kidlaydi;

– sanoat korxonalarining eksport strategiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli eksport faoliyati nafaqat o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni, balki innovatsion yondashuv va texnologiyalardan faol foydalanishni ham talab qiladi;

– O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterining eksport salohiyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ham, biznes va ta'lim darajasida ham tizimli yondashuv va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishni talab qilishini anglash muhim;

– ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga investitsiyalarni jalb etish paxta-to'qimachilik klasterining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda;

– mahsulotlarni farqlash va geografik kengayish bozorlarni diversifikatsiya qilish va alohida bozorlarga qaramlikni kamaytirish uchun strategik harakatlardir;

– eksportchilarni subsidiyalar, rag'batlantirish, o'quv dasturlari va maslahat yordami kabi eksportni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur.

Umuman olganda, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterining eksport salohiyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish jahon tendensiyalarini tahlil qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishga asoslangan kompleks va tizimli yondashuvni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davlyatova G. TO'QIMACHILIK KORXONALARINING IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a41 //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – T. 23. – №. 3. – C. 270-274.

2. Ansoff H. I. et al. *Implanting strategic management*. – Springer, 2018.

3. Long F., Liu J., Zheng L. The effects of public environmental concern on urban-rural environmental inequality: Evidence from Chinese industrial enterprises //Sustainable Cities and Society. – 2022. – T. 80. – C. 103787.

4. Thompson A. et al. *EBOOK: Crafting and executing strategy: The quest for competitive advantage: Concepts and cases*. – McGraw hill, 2013.

5. Королев В.И., Королева Е.Н. Внешнеторговый менеджмент: содержание и инструменты // Российский внешнеэкономический вестник — 2015 — №1. С.94-103 (Korolev V.I., Koroleva E.N. Vneshnetorgovyy menedzhment: sodержanie i instrumenty // Rossijskij vneshnejekonomicheskij vestnik — 2015 — №1. S.94-103).

6. Mintzberg H. Rethinking strategic planning part I: Pitfalls and fallacies //Long range planning. – 1994. – T. 27. – №. 3. – C. 12-21.

7. Igor Ansoff H. Strategic management of technology //Journal of Business Strategy. – 1987. – T. 7. – №. 3. – C. 28-39.

8. Gerchikova I. N. *Menedzhment [Management]*. Moscow, Banki i birzhi, Yuniti Publ. – 1995.

9. P. S. Zavyalov, V.E. Demidov, Success formula: marketing. 2nd prod., and additional -M.: International relations, 416 (1991)
10. Daniels J. D., Radeba L. H. International business: external environment and business operations. Translation from English. – 1994.
11. Попов С. Г. ВЭД фирмы. Особенности менеджмента и маркетинга //М.: Издательство “Ось-89. – 1999.
12. Kurniawan D., Iswahyudin M. D., Suciati T. R. SWOT Analysis and Ansoff Matrix in Creative Food Industry Business Development: A Study on Creative Food Business “Komala” //Open Access Indonesia Journal of Social Sciences. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 128-136.
13. Benabdellah A. C. et al. Design for the environment: An ontology-based knowledge management model for green product development //Business Strategy and the Environment. – 2021. – Т. 30. – №. 8. – С. 4037-4053.
14. Liu H., Zhao H. Upgrading models, evolutionary mechanisms and vertical cases of service-oriented manufacturing in SVC leading enterprises: Product-development and service-innovation for industry 4.0 //Humanities and Social Sciences Communications. – 2022. – Т. 9. – №. 1. – С. 1-24.
15. Sulaiman A., Ali M. S. S., Ahmad A. Encouraging comparative advantages of export-oriented Indonesian agriculture products //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2020. – Т. 575. – №. 1. – С. 012073.
16. Hoque M. T. et al. Eyes open and hands on: market knowledge and marketing capabilities in export markets //International Marketing Review. – 2022. – Т. 39. – №. 3. – С. 431-462.

МАРКЕТИНГОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СРЕДСТВ РАЗМЕЩЕНИЙ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ТУРИЗМЕ НА ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Ахмедходжаев Равшан Темурович

ТГЭУ, независимый исследователь (PhD),

e-mail: ravseanahmed@gmail.com

Аннотация

В данной научной статье подчёркиваются маркетинговые аспекты развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Республики Узбекистан, критерии развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Республики Узбекистан, приведены правовые аспекты, обобщены меры по ускоренному развитию средств размещения в экологическом туризме Узбекистана.

Ключевые слова: экологический туризм, средства размещения, туристско-рекреационная отрасль, маркетинговые аспекты, экономика туризма, экономические показатели, туристические услуги, охраняемые природные территории, туристические деревни, туристские кластеры, туристские комплексы.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekoturizmga joylashtirish vositalarini rivojlantirishning marketing jihatlari, O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekoturizmga joylashtirish vositalarini rivojlantirish mezonlariga alohida urg‘u berilgan, huquqiy jihatlari ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda ekoturizmga joylashtirish vositalarini jadal rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni sarhisob qiladi.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, joylashtirish vositalari, turizm va rekreatsiya sanoati, marketing jihatlari, turizm iqtisodiyoti, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, turizm xizmatlari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, turistik qishloqlar, turistik klasterlar, turistik majmualar.

Abstract

This scientific article emphasizes marketing aspects of the development of accommodation facilities in ecological tourism in protected natural areas of the Republic of Uzbekistan, criteria for the development of accommodation facilities in ecological tourism in protected natural areas of the Republic of Uzbekistan, provides legal aspects, summarizes measures to accelerate the development of accommodation facilities in ecological tourism in Uzbekistan.

Keywords: eco-tourism, accommodation facilities, tourism and recreational industry, marketing aspects, tourism economics, economic indicators, tourism services, protected natural areas, tourist villages, tourist clusters, tourist complexes.

ВВЕДЕНИЕ

Узбекистан занимает одно из первых мест в списке самых быстрорастущих туристических центров ВТО и ставит перед собой амбициозные и перспективные задачи по развитию туризма. В Узбекистане в рамках масштабных и необратимых реформ по модернизации страны приоритет отдается комплексной модернизации индустрии туризма, разработке и совершенствованию нормативно-правовой базы для устойчивого развития отрасли, организации обслуживания иностранных гостей в соответствии с международными стандартами, улучшению инфраструктуры. Разрабатывается «Стратегия комплексного развития туризма до 2030 года». Уже к 2030 году планируется привлечение иностранных туристов свыше 15 миллионов человек, а поток внутренних туристов довести до 25 миллионов человек, в 2023 году нашу страну в общей сложности посетили 7 миллионов туристов. Узбекистан поставил цель – войти в топ-30 стран, наиболее посещаемых туристами [1]. В 2024 году планируется привлечение 11 миллионов иностранных туристов, а также увеличение экспорта туризма до 2,5 миллиардов долларов США. За январь-март 2024 года в зарубежные страны с туристической целью выехало 1 263 тыс. граждан Республики Узбекистан. По сравнению с соответствующим периодом прошлого года их число увеличилось на 365,6 тыс. человек или на 40,7 % [2]. За 9 месяцев 2023 года объем доходов от сферы туризма Узбекистана составил 1,72 миллиарда долларов США. В рамках форума Всемирной туристической организации, проходившей в Узбекистане в городе Самарканде в октябре 2023 года, были с успехом подписаны инвестиционные соглашения на сумму 2 миллиарда 300 миллионов долларов США.

